

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

UDK 81.141

NURILLAYEVA SHAHZODA SHUKRULLOYEVNA

***IKROM OTAMUROD POEZIYASINING LINGVOPOETIK
TAHLILI***

***5A111201-O‘zbek tili va adabiyoti
Magistr***

***akademik darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA***

Ilmiy rahbar:

f.f.n. O‘rinova O.T.

Qarshi - 2017

ISHNING MUNDARIJASI:

ISHNING UMUMIY TAVSIFI

I bob. O‘zbek filologiyasida she’riy san’atlarning o‘rganilishi va uning muammolari..... 9-bet.

- 1.1. O‘zbek adabiyotshunosligida she’riy san’atlarning o‘rganilishi9-bet.
- 1.2. O‘zbek tilshunosligida she’riy san’atlarning o‘rganilishi ... 15-bet.
- 1.3. She’riy san’atlarni tadqiq qilishning ayrim muammolari 20-bet.
- 1.4. Ikrom Otamurod ijodida she’riy san’atlarning o‘rni..... 27-bet.
- Bob bo‘yicha xulosalar..... 31-bet.

II bob. Poetik matnda lisoniy tejamlilik va ortiqchalikning fonetik shakllarda ifodalanishi..... 32-bet.

- 2.1. Ikrom Otamurod poeziyasida lisoniy tejamlilik va ortiqchalikning o‘rganilishi..... 37-bet.
- 2.2. Ikrom Otamurod poeziyasida fonetik tejamlilikning ifodalanishi .. 44-bet.
- 2.3. Poetik matnda fonetik ortiqchalikning uslubiy xususiyatlari..... 56-bet.
- Bob bo‘yicha xulosalar..... 65-bet.

III bob. So‘z ma’nosiga asoslangan badiiy san’atlarda so‘z qo‘llash mahorati66-bet.

- 3.1. Tashbehni shakllantiradigan leksik vositalar tahlili.....66-bet.
- 3.2. Asar matniga badiiy parchalarni kiritishga asoslangan badiiy san’atlar.....74-bet.
 - 3.2.1. Asar matniga maqol va iboralarni kiritishga asoslangan badiiy san’atlar76-bet.
 - 3.2.2. Oyat va hadislarni qo‘llash bilan bog‘liq san’atlar.....79-bet.
 - 3.2.3. Atoqli otlarni qo‘llashga asoslangan san’atlar.....83-bet.
- 3.3. Lisoniy birliklarning shakli va takroriga asoslangan badiiy san’atlarning leksik-semantik xususiyatlari.....87-bet.

3.3.1. Soʻzlarni shakliy (boʻgʻin, vaznga koʻra) tengligiga asoslangan badiiy sanʼatlarning lisoniy tahlili.....	88-bet.
3.3.2. Soʻz takroriga asoslangan badiiy sanʼatlarda semantik-stilistik munosabatlar.....	90-bet.
Bob boʻyicha xulosalar.....	98-bet.
Umumiy xulosalar.....	99-bet.
Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.....	100-bet.

TADQIQOTNING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. Ma'lumki, millatimizning ruhi bo'lgan o'zbek tili qurilishining ilmiy-nazariy talqini milliy mafkura va g'oyalarimizning ravnaqi uchun muhim zaminlardan biridir. Mamlakatimizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov: "...o'zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish milliy o'zlikni, Vatan tuyg'usini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasizdir"¹, - deb bejizga ta'kidlamagan edi.

Har bir til jamiyat bilan birgalikda uzluksiz taraqqiy etib borar ekan, lingvistik omillar tilshunoslar oldiga yangi-yangi tadqiqotlarni ko'ndalang qo'yaveradi. Ayniqsa, badiiy asar tilini o'rganish o'zbek tilshunosligining hozirgi kundagi munozarali va dolzarb masalalaridan biridir.

O'zbek tilshunosligida badiiy asar tilini o'rganish XX asrning 40-yillaridan boshlandi. Ularning ba'zilar masalaning umumiy tomonlariga, ayrimlari konkret bir ijodkorning asarlari tiliga, ba'zilar o'zbek tili stilistikasiga², ayrimlari esa badiiy nutq stilistikasiga aloqadordir³.

She'r poetik nutq talablari asosida ohang jihatdan ma'lum bir tartibga solingan, hayotga munosabatni his-tuyg'ular vositasida ifodalaydigan, o'quvchiga estetik ta'sir etadigan, muayyan ritmik qurilishga ega bo'lgan ijod mahsulidir. She'riyatda ohangdorlik yoki xushohanglikni ta'minlash eng birinchi shart hisoblanadi. Unda so'zlar tarkibida qatnashuvchi tilning eng kichik birligi-fonemalar ham, qofiyalar ham xushohanglikka xizmat qilishi lozim. Bularning hammasiga til vositalari orqali erishiladi. Ayni shu o'rinda tilshunoslik bilan adabiyotshunoslikning tekshirish obyekti ham, manfaati ham to'qnashadi. Sharq mutafakkirlari tadqiqotlarida badiiy asar tili adabiyotshunoslik yoki tilshunoslik nuqtai nazaridan alohida ajratilmaydi. Bu borada bizga eng yaqin namuna Alisher Navoiydir. U o'zining «Muhokamat ul-lug'atayn» nomli tadqiqotida so'z, uning

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -Toshkent: Ma'naviyat, 2008. -B. 87.

² Shomaqsudov A. va b. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent: Fan, 1983.

³ Qo'chqortoyev I. Badiiy nutq stilistikasi. – Toshkent: Fan, 1975; Doniyorov X., Yo'ldoshev B. Adabiy til va badiiy stil. – Toshkent: Fan, 1998; Abdullayeva L. Leksicheskaya stilistika uzbekskoy xudojestvennoy literaturi. – Tashkent: Fan, 1979; Yo'ldoshev B. Badiiy nutq stilistikasi. – Samarqand, 1982; Karimov S. O'zbek tilining badiiy uslubi: Filol.fanlari d-ri ... dis.avtoref. – Toshkent, 1993.

ma'nosi, fikr ifodalashdagi samara va vazifasi yuzasidan olib borgan kuzatishlari lingvopoetikaning mukammal namunasi hisoblanadi⁴.

Biz o'z kuzatishlarimizni tadqiqot obyektimizning xarakteridan kelib chiqqan holda umumfilologik – ham tilshunoslik, ham adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan amalga oshirishni lozim topdik. Shu bilan birga, imkonimiz darajasida Sharqda shakllangan badiiy san'atlar asosida olib borishga harakat qildik.

Badiiy san'atlarni hozirgi o'zbek she'riyati materiallari asosida o'rganish o'zbek mumtoz adabiyoti bilan zamonaviy adabiyot tilidagi lisoniy-uslubiy jihatlarni, adabiyotga xos tendensiyalar - an'anaviylik, vorisiylik va izchillikni belgilashga xizmat qiladi. Ayni ehtiyoj mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Ilmiy izlanishning obyekti sifatida o'zbek she'riyatiga munosib hissa qo'shgan Ikrom Otamurodning she'riy asarlari olindi. “Vaqt ranglari” (1982), “Janub qushlari” (1983), “To'rg'ayli manzillar” (1984), “Ufqlar orti bepoyon” (1987), “Ruhimning qayg'usi” (1995), “Sen” (1999), “Kanglum, o'zing” (2002), “Tavr” (2005), “Muqaddar” (2013) kabi she'riy kitoblari, shuningdek, bir nechta dostonlari “Yarador umid otlari” (1986), “Uzoqlashayotgan og'riq” (1990), “Sopol siniqlari” (1994), “Aning umidi”, “Xaritaga tushmagan joy” (1992), “Tag'azzul”, “Iztiror”, “Balki”, “Qush”, “Huviyyat”, “O'rin” va boshqalar tanlangan.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi she'riy san'atlarning hozirgi o'zbek shoirlari ijodiy mahsulining badiiyligini, emotsional-ekspressivligini, estetik ta'sir kuchini ta'minlashdagi, g'oyaviy maqsadini amalga oshirishdagi o'rnini lisoniy-uslubiy jihatdan tadqiq qilishdan iborat.

Mazkur maqsadning amalga oshuvi esa quyidagi vazifalarni hal etishga bog'liq:

– o'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligida badiiy san'atlarning o'rganilganlik darajasini belgilash;

⁴ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. T. 16. – Toshkent: Fan, 2000. – B. 45-55.

– poetik matnda fonetik tejamlilik va ortiqchalikning uslubiy xususiyatlarini belgilash;

– poetik nutqning xushohangligini ta'minlashda unli va undosh fonemalarning, badiiy takrorning, shuningdek, boshqa vositalarning ahamiyatini ochib berish;

– badiiy san'atlarning poetik nutqning badiiyligi, emotsional-ekspressivligi, ta'sir kuchi va jozibasini ta'min etishdagi ahamiyatini tahlil qilish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

– badiiy san'atlarning hozirgi o'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligiga doir lug'atlar, o'quv qo'llanmalari, ilmiy maqolalardagi talqini va o'rganilish darajasi aniqlandi.

– badiiy san'atlarning tarkib topishida lisoniy birliklarning mavqei belgilandi;

– lisoniy tejamlilik va ortiqchalikning badiiy asar tilida tutgan o'rni ochib berildi;

– poetik nutqning xushohangligini ta'minlashda unli va undosh fonemalarning, badiiy takrorning, shuningdek, boshqa vositalarning ahamiyati ochib berildi;

– ijodkorlarning adabiy til va sheva materiallaridan, tilning tarixiy va zamonaviy leksik qatlamlaridan, shuningdek, leksik-semantik va uslubiy imkoniyatlaridan foydalanish mahorati va individual jihatlari tahlil qilindi;

– olingan natijalar umumlashtirilib, xulosalandi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari.

Birinchi faraz:

– badiiy san'atlarni adabiyotshunoslik, tilshunoslik va uslubiyat nuqtai nazaridan o'rganishning nazariy aspektlarining belgilanishi;

Ikkinchi faraz:

– badiiy san'atlarning hozirgi o'zbek adabiyotidagi holati, ulardan zamonaviy adiblardan Ikrom Otamurodning foydalanish darajasini belgilash;

Uchinchi faraz:

– o‘zbek shoirlarining she’rlarini an’anaviy bo‘lgan sharqona she’riy san’atlar nazariyasi asosida tahlil qilish yo‘llari va usullarini o‘rganish.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbek tilshunosligida badiiy san’atlarning lisoniy-uslubiy tahlili masalasi Navoiy asarlari misolida XX asrning 60-yillaridan keyin o‘rganila boshlandi⁵. Hozirgi o‘zbek she’riyatida badiiy vositalarning lingvopoetik xususiyatlariga bag‘ishlangan ishlar mavjud bo‘lsa-da, she’riy san’atlar hozirgacha o‘rganilib kelinmoqda.

O‘zbek tilshunosligida qofiyalarni yuzaga keltiruvchi lingvopoetik vositalar monografik tarzda I. Mirzayev⁶ va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

Tadqiqotda leksik birliklar va jonlantirish, epitet, o‘xshatish, metaforaning namoyon bo‘lishi, ulardan yuzaga keladigan samara - badiiylilik masalalari asosli dalillar bilan tahlil qilindi. Bundan tashqari ishda fonika masalalari bilan bog‘liq san’atlarga chuqur e’tibor berilib, she’riy san’atlarni o‘rganishning lisoniy-uslubiy xususiyatlari tahlil qilindi.

Tadqiqotda qo‘llanilgan metodikaning tavsifi. Ish sinxron-tavsifiy usulda bajarilgan. Magistrlik dissertatsiyaning tadqiq obyekti badiiy nutq bo‘lganligi tufayli, unda uslubiy tahlildan, badiiy san’at turlarini o‘zaro qiyoslash usullari, qiyosiy-tarixiy, tasviriy, stilistik metodlaridan keng foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Ilmiy tadqiqot natijalari o‘zbek tilshunosligida badiiy asar tili, poetik nutq, lingvopoetika bilan bog‘liq ilmiy tushunchalarning shakllanishi va rivojiga muayyan hissa bo‘lib qo‘shiladi. Uning materiallari Davlat ta’lim standartlari talablariga mos holda oliy o‘quv yurtlari uchun darslik va qo‘llanmalar yaratishda qo‘l keladi, tadqiqotdan o‘zbek she’riyati tili va uslubi, badiiy adabiyot tili, o‘zbek tili nutq madaniyati, uslubiyati mavzularida maxsus kurslarni o‘qitishda, darsliklarni yaratishda foydalanish mumkin.

⁵ Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1979; Hamidov Z. Navoiy badiiy san’atlari. – Toshkent: Universitet, 2001.

⁶ Mirzayev I. Problemi lingvopoeticheskoy interpretatsii stixotvornogo teksta: Avtoref. dis ... kand.filol.nauk. – Tashkent, 1992.

Ish tuzilmasining tavsifi. Tadqiqot uch bob, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 102 sahifa.

I. BOB. SHE'RIY SAN'ATLARNING O'RGANILISHI VA UNING MUAMMOLARI

1.1. O'zbek adabiyotshunosligida she'riy san'atlarning o'rganilishi

Ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lgan badiiy adabiyot o'zining san'atga aloqadorligi bilan alohida o'rin tutadi. U voqelikni so'z orqali aks ettirishi e'tibori bilan boshqa san'at turlaridan ajralib turadi, uning bu xususiyati jamiyat a'zolarining his-tuyg'ularini keng va chuqur shu bilan birga, harakatda ifodalashi bilan san'atning eng ommaviy turlaridan biri sifatida shakllanishini ta'minlagan.

Adabiyot so'zining arabcha adab so'zi bilan bog'liqligini hisobga olsak, badiiy adabiyot estetik ta'sir etishi bilan shaxsning ma'naviyatini boyitadi, estetik qobiliyatini o'stiradi, unda ezgulikni qadrlashga bo'lgan intilishni rag'batlantiradi, ya'ni keng ma'noda tarbiyaviy ahamiyatga ega. Badiiy adabiyot nazm va nasrda voqelanishi bilan ham farqlanadi. Badiiy adabiyotning nazmdan boshlanganini M. Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida keltirilgan badiiy parchalar ham tasdiqlaydi. Bu badiiy parchalarda turkiy xalqlarning ibtidoiy jamoa tuzumi davriga oid turmush tarzi, lirik kechinmalari badiiy tarzda namoyon bo'lgan. Aytish mumkinki, xalq poeziyasi og'zaki ijod tarzida yozuv paydo bo'lmasdan ancha ilgari yuzaga kelgan. Chunki poetik nutqning muayyan ritmik o'lchovlarga – ritm va ohangni yuzaga keltiruvchi turoq va qofiyalarga ega bo'lishi, uning tezda yodlab olinishiga va xotirada uzoq saqlanishini ta'minlagan, o'z navbatida, uning qo'shiq sifatida ijro etilishiga imkon yaratgan. Xalq qo'shiqlarining yashovchanligi boisi ham shunga bog'liq. Demak, hozirda badiiy san'atlar qatorida sanalayotgan ayrim san'atlarning paydo bo'lishi ham ibtidoiy jamoa davri mahsulidir.

Bu o'rinda ibtidoiy jamoa davrida yuzaga kelgan raqs san'atidagi muayyan ritm va taktlar musiqadagi hamohanglikka asoslanganidek, bu davr she'riyatining o'ziga xos ritmikasini yuzaga keltirgan jihatlar qo'shiq, she'r va musiqa san'atining umumiy ildizlari bir ekanligini ko'rsatadi. U. Po'latovanning qayd etishicha, «Raqs harakatlarini muayyan ritm va taktsiz tasavvur e'tib bo'lmaganidek, uni musiqasiz, ayniqsa, cholg'u asboblardan doirasiz tasavvur

qilish qiyin. Bu borada ikki san'at turining o'zaro mushtarak jihatlari bor... shunga o'xshash jihatni ashula-qo'shiq bilan raqsning hamkorligida ko'rish mumkin»⁷.

O'z-o'zidan savol tug'iladi: badiiy san'atlar sifatida baholanayotgan tushuncha, o'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligida qay darajada o'rganildi va qanday talqiniga ega? Biz o'z izlanishimizda shu savolga javob berishga intildik. Shu bilan birga, hozirgi o'zbek shoirlaridan Ikrom Otamurod she'riyati misolida bu san'atlarning qay darajada namoyon bo'lganligini kuzatishga harakat qildik.

Badiiy nutq filologiyaning obyekti sifatida uzoq yillardan buyon adabiyotshunoslar va tilshunoslar o'rtasida bahsga sabab bo'lib kelayotgani hech kimga sir emas. Ular haligacha shu bir obyektning qaysi qismi o'z ilmiy kuzatishlariga asos bo'lishini aniqlab olishganicha yo'q. Ko'pincha ularning har biri shu obyekt materiallaridan ko'proq olishga harakat qiladilar. Shu bilan birga, ular shu obyektning qaysi jihati raqiblarining e'tiboridan chetda qolayotgani yuzasidan bir-birlarini yozg'irib ham kuyadilar⁸.

Badiiy nutq filologiyaning obyekti sifatida ularning ikkisiga ham tegishlidir. Sharq mutafakkirlari tadqiqotlarida badiiy nutq adabiyotshunoslik yoki tilshunoslik nuqtai nazaridan ajratilmagan. Bu jihatdan bizga eng yaqin namuna Alisher Navoiyning «Muhokamat ul-lug'atayn» asaridir. Alisher Navoiy ushbu asarida lingvopoetik tadqiqotning ilk namunasini yaratib bergan. Mazkur tadqiqotdagi ayrim unli fonemalarning miqdoriy belgisi – cho'ziq-qisqalik orqali so'z tarkibida turli ma'nolarni yuzaga keltirishi natijasida tuyuq janrining shakllanishi haqidagi fikrlari, sinonim va omonim so'zlar yuzasidan berilgan kuzatishlari o'zbek filologiyasida lingvopoetik tadqiqotning asoschisi sifatida baholashga imkon beradi.

Alisher Navoiyning «Mezonul avzon» asari adabiyotshunoslikka oid bo'lsa ham, undagi tahlillar muayyan darajada tilshunoslikka ham aloqadordir. Chunki badiiy o'lchovlarga oid tahlillarda fonetik birliklarning xususiyatlariga tegishli

⁷ Po'latova U. O'zbek xoreografiya terminologiyasining shakllanish manbalari va rivojlanishi: Filol. fanlari nomzodi ... dis.avtoref. – Toshkent, 2001. – B. 6-7.

⁸ I. Qo'chqortoyev. Badiiy nutq stilistikasi bahsi // Shu muallif. Badiiy nutq stilistikasi. – Toshkent: Fan, 1975. – B. 5-12.

jihatlar ham o'z aksini topgan. Bularni o'rganish Alisher Navoiyning fonetik qarashlarini yana ham to'ldirishi aniq.

Mavzu taqozosi bilan biz bu o'rinda o'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligida badiiy san'atlar qay darajada o'rganilganiga e'tibor berishimiz, shu asosdagina hozirgi o'zbek she'riyati namunalaridan qay darajada foydalangani haqida xulosa berishimiz mumkin. Demak, keyingi mulohazalarimiz shu xususda boradi.

O'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligida ham badiiy san'atlarni tushinishdagi ikki yo'nalish borligini qayd etishimiz lozim. Uzoq davrlar Sharq adabiy an'analari asosida rivojlangan adabiyotimiz XIX asrning so'nggi choraklariga kelib o'z ildizlaridan uzilib qoldi, buning o'z obyektiv sabablari bor. Dastlab, Markaziy Osiyo Chor Rossiyasi tasarrufiga o'tdi, keyin uzoq yillar Sobiq Ittifoq tarkibida bo'ldi. Ayni yillar davomida o'zbek badiiy adabiyoti G'arb adabiyotshunosligida shakllangan nazariya ta'sirida rivojlandi, o'z-o'zidan Sharq adabiyotshunosligi an'analari asosida tarkib topgan badiiy san'atlarga doir terminlar o'rnini g'arbona terminlar egalladi. Ilmiy adabiyotlarda ham G'arb adabiyotshunosligiga mansub terminlar bilan ish ko'rildi. Albatta, bu davrlarda mumtoz adabiyotimizni o'rganish taqozosi bilan Sharq she'riyatida shakllangan badiiy san'atlar tahliliga aloqador ishlarda sharqona terminlarni o'rganishga ham ma'lum darajada e'tibor berildi. Lekin umumta'limda, oliy ta'limda, asosan, g'arbona badiiy san'atlarga tegishli terminlar va tushunchalar bilan ish ko'rildi. Ilmiy tadqiqotlarimizda ham shu yo'nalishga ustuvorlik berildi. Badiiy san'atga aloqador mulohazalar juda qadimdan mavjud. Aristotel «Poetika» asarida quyidagilarni yozadi: «Epos va tragediya, shuningdek, komediya va difiramb ijod etish, yaratish, avletika va kifaristikaning katta qismi - bu hammasi, umuman aytganda, o'xshatish (mimesis) san'atidan o'zga narsa emas; ular o'zaro uch jihatdan: (1) tasvirlashning turlari bilan; (2) tasvirlash predmeti bilan; (3) rang-barang noo'xshash usullar bilan farqlanadi». Bu o'rinda Aristotel poeziyaning umuman o'xshatishga asoslanishini qayd etgan. Aristotel qanday kishilar bo'lishini ham qayd etib o'tgan: «...faqat «ijod» tushunchasini vazn bilan bog'lovchi

kishilargina hayotni qayta gavdalandirish mohiyati tufayli emas, umuman vazn tufayli /ularning hammasini/ shoirlar deb ulug'lab, ba'zi birlarini elegiklar, boshqalarini epiklar deb aytadilar⁹». O'zi hayajonlana oladigan shoir tomoshabinlarni hayajonlantira oladi, o'zi g'azablana oladigan shoir ham g'azablantira oladi. Shuning uchun poeziya - iste'dodli yoki majnunsifat insonning qismatidir. Iste'dodli odamlar ruhan juda ta'sirchan, majnunsifatlari esa jazavaga moyil bo'ladilar¹⁰».

Aristotelning «Ritorika» asarida ko'plab uslubga oid fikrlar mavjud. Kuzatilishicha, hozirda nutq madaniyati va notiqlik san'atiga qo'yiladigan talablarning aksariyati uning shu asaridan joy olgan. Uning qarashlariga ko'ra badiiy asarda bayonning odatiy holatdan chetlashishi ham musofirning o'zga yurtda ko'rgan narsalaridan taajjubga va hayratga tushganidek tasavvur uyg'otadi, chunki noodatiy narsadan hayratlanish va taajjublanish ham yoqimlidir. Mazkur asarda badiiy san'atlardan metafora, o'xshatishga tegishli muhim jihatlar ko'rsatib o'tilgan. Muallifning qayd etishicha, metafora poeziya uchun ham, proza uchun ham buyuk xizmatga ega. Agar nutq predmetini bezash, maqtash lozim bo'lsa, metaforani eng yaxshi va chiroyli narsalar orasidan, yomonlash zarur bo'lsa, metaforani yomon va xunuk narsalar orasidan qidirish kerak. Topib ishlatilgan metafora ham topishmoqlarning samarasini berishi mumkin. Bunday metaforani tushunib olish, topishmoqning javobini topganday kishiga huzur bag'ishlaydi. Aristotel o'xshatishni ham o'ziga xos metafora deb baholaydi. Uningcha, ularning farqi juda oz. O'xshatishdan birgina **kabi** so'zi chiqarib tashlansa, metafora yuzaga keladi. O'xshatish, metafora va epitetlardan ham me'yorida foydalanish zarurligi, ularni suiste'mol qilish uslubni g'alizlashtirishi ham qayd etib o'tilgan.

Forobiy ham bu borada o'z mulohazalarini aytib o'tgan. U o'zining «Shoirlar san'ati qonunlari haqida» risolasida Aristotelning «Poetika» asarini sharhlash asosida o'z qarashlarini bayon etgan Forobiy she'riyatning o'xshashlik va qiyos asosiga qurilishini shunday bayon qilgan: «Mana shu aks-

⁹ Aristotel. Keltirilgan ish. – B. 8.

¹⁰ Aristotel. Keltirilgan ish. – B. 35.

o'xshashliklarning ba'zilar eng mukammal bo'ladi, boshqalari nuqsonli bo'ladi. Ularning mukammalligini, yo nuqsonli ekanini aniqlash shoirlar va turli tuman til va she'riyatni o'rganayotgan ma'rifat ahlining fikr doirasiga kiradi»¹¹. «Mulohazalar bir qancha boshqa qismlarga ham bo'linishi mumkin. Biz senga aytsak, bu shulardan iborat: mulohaza yo qat'iy, yo qat'iy emaslikdan holi bo'lmaydi. Bordiyu, agar u qiyosiy bo'lsa, u holda bilquvva tabiatidan bo'ladi, yo bo'lmasa, bil fe'l harakatidan bo'ladi. Bordi-yu, agar u uning tabiatidan bo'lsa u holda mulohaza yo istiqro (induktiv), yo tamsiliy (analogiya) bo'ladi. Tamsil esa ko'pincha she'r san'atida ishlatiladi. Bundan ayon bo'lishicha, badiiy mulohaza tamsil-analogiyaga kiradi»¹². «...aytishlaricha, mulohazalar yo butunlay rost, yo butunlay yolg'on bo'lishi mumkin ... butunlay yolg'on bo'lsa, u holda uni, hech shubhasiz, she'riy deb ataladi»¹³.

Bu o'rinda Forobiy «yolg'on» so'zini metafora, timsol va ko'chimlar ma'nosida qo'llagan.

Forobiy o'z qarashlarida she'riyatning inson his-tuyg'ulariga estetik ta'sirini rassomlik san'atidagi jihatlar bilan shunday qiyoslaydi va ular o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarini ham e'tirof etadi. «...she'r san'atini bezaydigan narsalar so'z-mulohazalar bo'lsa, rassomlar san'atini bezaydigan narsa-bo'yoqlar sanaladi. Bularning ikkovining o'rtasida farq bor ammo ikkalasi ham fe'lda bir-biriga o'xshash ikkalasi ham odamlar tasavvuri va sezgilarida bir maqsadga taqlid qilishga yo'nalgan bo'ladi»¹⁴. (Bu o'rinda **taqlid** so'zi keng ma'noda hayotda qanday va qanday voqelar bo'lishi mumkinligi nazarda tutilgan).

She'r san'ati hozirgi tilshunoslikka tegishli manbalarda goh ritorik figuralar, goh sintaktik figuralar, goh stilistik figuralar tarzida taqdim etiladi. Keng ma'noda bu tushunchalar doirasiga ko'chimlar ham, stilistik figuralar ham kiritiladi.

Hozirda nutqiy figuralar deganda badiiy asarda ishtirok etuvchi obrazli ifodalar-ko'chimlar va sintaktik figuralarni tushunish odatga aylandi. Ayrim hollarda bular qatoriga fonemalarning qo'llanishi orqali yuzaga keladigan

¹¹ Forobiy. Shoirlar san'ati qonunlari haqida // Aristotel. Poetika. – B. 64.

¹² Forobiy. Keltirilgan ish. – B. 65.

¹³ Forobiy. Keltirilgan ish. – B. 65.

¹⁴ Forobiy. Shoirlar san'ati qonunlari haqida // Aristotel. Poetika. – B. 73.

xushohanglik ham kiritiladi. Bu holat lingvopoetika bilan bog‘liq g‘arbona qarashlarni aks ettiradi.

Sharqda nutqiy figuralar termini o‘rnida badiiy san’atlar termini bilan ish ko‘rish keng tarqalgan. Endi o‘zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligida badiiy san’atlarning qay darajada o‘rganilganiga nazar tashlaymiz, chunki ahvolni aniqlamay turib, asosiy masalaga o‘tish mumkin emas.

1.2.O‘zbek tilshunosligida she’riy san’atlarning o‘rganilishi

A. Shomaqsudovning «O‘zbek tili stilistikasi» o‘quv qo‘llanmasida¹⁵ badiiy san’atlarga alohida qism ajratilgan emas. Qo‘llanmaning birinchi qismida stilistikaning umumiy masalalari, funksional stillar va adabiy til normalari yoritilgan. Ikkinchi qismida asosiy e’tibor leksik stilistikaga qaratilgan. Ish olti bobdan iborat bo‘lib, so‘z qo‘llash aniqligi, aktiv va passiv lug‘at sostaviga oid so‘zlarning stilistik xususiyatlari ishlatilish doirasi bilan bog‘liq bo‘lgan so‘zlarning stilistik xususiyatlari, emotsional-ekspressiv rangdorlik bilan bog‘liq bo‘lgan so‘zlarning stilistik xususiyatlari, leksikografiya mavzulari yoritilgan.

Qo‘llanmaning «Kirish» qismidan o‘rin olgan «Fonetika va stilistika» bahsida she’riyatda fonikani yuzaga keltiruvchi alliteratsiya, assonans, tovush takroriga oid mulohazalar bor.

1983 yilda nashr etilgan, ilmiy jamoa tomonidan yozilgan «O‘zbek tili stilistikasi» o‘quv qo‘llanmasidan o‘rin olgan «Sintaktik figuralar va troplar» qismida badiiy san’atlarga aloqador tahlillar mavjud. Undagi sintaktik figuralarga tegishli qismini I. Rasulov, troplarga oid qismini R. Qo‘ng‘urov yozgan. Qo‘llanmada anafora, epifora, takror, sintaktik parallelizm, antiteza, gradatsiya, ritorik so‘roq kabi sintaktik figuralar, metafora, metonimiya, sinekdoxa, o‘xshatish, epitet, ironiya, antifraza, sarkazm, perifraz, mubolag‘a, litota, allegoriya, jonlantirish, apostrofa kabi troplar haqida misollar bilan ma’lumotlar berilgan¹⁶.

A. Hojiyev qalamiga mansub «Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati»da allegoriya, alliteratsiya, anafora, antiteza, asindeton, assonans, giperbola, gradatsiya, jonlantirish, kalambur, kinoya, litota, majoz, metafora, metonimiya, oksyumaron, parallelizm, parafraza, paronomaziya, ritorik so‘roq, sinekdoxa, so‘z o‘yini, kataxreza, kinoya, inversiya, takror, fonika, shaxslantirish, evfoniya, emfaza, epitet, epiforadan iborat trop va sintaktik figuralar kiritilgan hamda misollar asosida izohlab o‘tilgan¹⁷.

¹⁵ Shomaqsudov A. O‘zbek tili stilistikasi. I va II qismlar. – Toshkent, 1974.

¹⁶ Shomaqsudov va boshqalar. O‘zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983. – B. 228-246.

¹⁷ Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002.

L. Abdullayevaning «O‘zbek badiiy adabiyoti leksik stilistikasi» mavzuidagi ishida bir bob to‘lig‘icha «Metaforalar va ularning stilistik qo‘llanishi»ga bag‘ishlangan. Muallif dastlab metafora haqida umumiy ma’lumot bergan. So‘ngra metafora asosida yuzaga kelgan ismlar, laqablar haqida qisqacha to‘xtalib, badiiy asarlarda qo‘llangan metaforalarning tasnifi keltirilgan¹⁸.

O‘zbek tilshunosligida badiiy tilning lisoniy imkoniyat va vositalarini uslubshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilishga bag‘ishlangan bir qator ishlar ham yuzaga keldi. Biz bu o‘rinda R. Qo‘ng‘urovning badiiy tasvir vositalariga¹⁹ va E. Qilichevning²⁰ badiiy matnni tahlil qilishning nazariy muammolariga bag‘ishlangan ishlarini³ ko‘zda tutmoqdamiz. Biz bu ishlarga dissertatsiyaning tegishli qismlarini yozish jarayonida o‘rni bilan to‘xtalamiz.

O‘zbek tilshunosligida badiiy san’atlardan biri perifraza yuzasidan ham kuzatishlar bor. X. Shamsiddinovning «Badiiy nutqda kosmonavt terminining funksional-semantik sinonimiyasi» maqolasida M. Shayxzoda she’riyatida qo‘llangan **fazokash sayyoh, fazo yo‘lchilari, fazo kemasining passajiri, azaliy manzillar ilk musofiri** kabi individual-muallifiy perifrazalar motivlashuviga aloqador tahlillar mavjud. Yana shu muallifning 1993 yilda e’lon qilingan «Perifraza xususida ayrim mulohazalar» maqolasi²¹ bosilib chiqdi. Unda mazkur badiiy san’atning badiiy tasvir vositalari tarkibidagi o‘rni, lisoniy va nutqiy ko‘rinishlari, uni yuzaga keltiruvchi omillar, frazeologizmlar bilan umumiy va xususiy jihatlari, imlosi, yagona ko‘rinishdagi nomga ega bo‘lishi zarurligi yuzasidan mulohazalar keltirilgan.

1997 yilda I. Umirovning «O‘zbek tilida parafrazalar» mavzuidagi nomzodlik dissertatsiyasi himoya qilindi²². Mazkur ishida muallif perifrazaning yondosh hodisalar bilan munosabati o‘xshash va farqli tomonlari, tuzilishi, shakllanishi bilan bog‘liq jihatlarni ko‘rsatib bergan. Biroq muallif bu ishida perifraza tarkibiga yasama so‘zlarni ham, frazeologizmlarni ham kiritib yuborgan.

¹⁸ Abdullayeva L. Leksicheskaya stilistika uzbekskoy xudojestvennoy literaturi. – Tashkent: Fan, 1979. – S. 8-49.

¹⁹ Qo‘ng‘urov R. O‘zbek tilining tasviriyo vositalari. – Toshkent: Fan, 1977.

²⁰ Qilichev E. Badiiy tasvirning leksik vositalari. – Toshkent: Fan, 1972.

²¹ Shamsiddinov X. Perifraza xususida ayrim mulohazalar // O‘zbek tili va adabiyoti. – 1993. – № 4. – B. 29-35.

²² Umirov I. O‘zbek tilida parafrazalar: Filol.fanlari nomzodi ... dis.avtoief. – Toshkent, 1996.

Bizning nazarimizda, ushbu badiiy vositaga oid nazariyaga muayyan aniqliklar kiritilishi lozim. Muallif tahlil uchun keltirgan misollar publitsistik nutqdan olingan. Poetik asarlardan misollar olingan emas. Demak, she'riyatdagi perifrazalar alohida mavzu sifatida o'rganishni talab etadi.

X. Shamsiddinovning «O'zbek tilida so'zlarning funksional-semantik sinonimlari» mavzuidagi monografik tadqiqotida metafora, metonimiya, sinekdoxa, ellipsis, metaforik epitet, evfemizm, o'xshatish, frazeologizm, perifraza, antonomasiya, enantiosemiya, oksyumaron, timsol kabi trop va sintaktik figuralar asosida tildagi so'zlarning funksional-semantik sinonimlarining tarkib topishi va shakllanishi juda yaxshi ko'rsatib berilgan.

Bundan tashqari, unda mazkur ifoda vositalarining yuzaga kelishida ishtirok etuvchi psixolingvistik omillar tahlil qilingan²³.

Tilshunoslik yo'nalishidagi oliy o'quv yurti darsliklari va o'quv qo'llanmalarda asosan an'anaviy tarzda metafora, metonimiya, sinekdoxalar o'rganilsa ham, ularning lisoniy turlariga ko'proq e'tibor beriladi. O'zbek tilshunosligida badiiy san'atlarning fonika bilan bog'liq jihatlarini yoritish hamon e'tibordan chetda qolib kelmoqda.

O'zbek tilida metaforaning lisoniy xususiyatlari G. Qobuljonovanning «Metaforaning sistemaviy lingvistik talqini» mavzuidagi ishida atroflicha tahlil qilingan. Muallif metaforani yuzaga keltiruvchi sabablarni quyidagicha umumlashtirgan: «Yuqoridagilarni jamlab aytish mumkinki, metaforaning yuzaga kelishi quyidagi unsurlarni talab qiladi:

1. Obyektiv va subyektiv borliqdagi narsalar orasida (keng ma'noda) o'xshashlik.
2. Shu o'xshashlikning lisoniy aksi bo'lishga mutanosib semalar.
3. Narsalardan birining, ba'zan badiiy ifodasining nomi (ayni nutqiy sharoit uchun) yo'qligi.

²³ Shamsiddinov X. O'zbek tilida so'zlarning funksional-semantik sinonimlari. Filol.fanlari d-ri ... dis.avtoref. – Toshkent, 1999. – B. 280.

Ana shu unsurlar yordamida nomning metaforik ko‘chishi yuzaga keladi²⁴. Ushbu ishda metaforadan farqli, ammo unga yondosh bo‘lgan hodisalar deb ko‘p ma’nolilik, funksiyadoshlik, metonimiya, o‘xshatish, metafora, bilvosita nutq, simvol, yolg‘on, kinoya, epitetlar ko‘rsatilgan va ular metaforaga qiyosan tahlil qilingan²⁵.

Keyingi paytda o‘zbek tilshunosligida badiiy san’atlar va ularni yuzaga keltiruvchi vositalarni zamonaviy she’riyatda o‘rganish borasida ba’zi ishlar paydo bo‘ldi. G. Keldiyorovanning “O‘zbek badiiy nutqida antiteza” (E.Vohidov she’riyati misolida) mavzuidagi nomzodlik dissertatsiyasi shunday ishlardan biridir.

Ayniqsa, muallif antitezaning karrelyatsiya, antonimlar, inkor, oksyumoron kabi yondosh hodisalar bilan aloqasi va farqlariga oid fikrlari diqqatga molikdir. Muallifning tahlillarida antiteza hosil qiluvchi so‘z va so‘z birikmalarining ma’noviy, uslubiy xususiyatlari, asar tiliga badiiy-estetik ruh berishdagi imkoniyati va kuchi atroflicha tavsiflangan. Muallif antiteza hodisasining lisoniy tomonlariga, ayniqsa, antiteza hosil qiluvchi leksemalarning lisoniy materiali, uning tarkibini belgilashga alohida e’tibor bergan. Mana shu ma’noda G. Keldiyorovanning quyidagi xulosalari xarakterlidir: “Erkin Vohidov she’riyatida antitezalar, asosan, ot turkumiga oid hamda ko‘p hollarda boshqa tillardan (arab, fors-tojik) o‘zlashgan, mavhum tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar vositasida, sifat turkumiga oid, olmosh hamda ba’zi hollarda fe’l turkumiga oid so‘zlar, birikmalar asosida shakllantirilgan. Ular butun-bo‘lak, o‘zaro aloqadorlik, belgi, xarakter-xususiyat, hajm-o‘lchov, rang-tus, ichki hissiyotlar kabi ko‘plab jihatlarni ham uyg‘unlashtirib, ham ajratib ko‘rsatish uchun xizmat qildirilgan”²⁶.

Badiiy san’atlarning lisoniy tahliliga bag‘ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari tahlilidan so‘ng quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

²⁴ Qobuljonova G. Metaforaning sistemaviy lingvistik talqini: Filol.fanlari nomzodi ... dis. avtoref. – Toshkent, 2000. – B. 9.

²⁵ Qobuljonova G. Metaforaning sistemaviy lingvistik talqini: Filol.fanlari nomzodi ... dis.avtoref. – Toshkent, 2000. – B. 12.

²⁶ Keldiyorova G. O‘zbek badiiy nutqida antiteza: Filol.fanlari nomzodi ... dis.avtoref. – Toshkent, 2000. – B. 7.

1. Hozirgi o'zbek badiiy adabiyoti tilidagi badiiy san'atlarning lisoniy xususiyatlari borasida hali keng qamrovli, fundamental nazariy tadqiqotlar yuzaga kelgani yo'q.

2. San'atlarning ba'zi turlari qoniqarli o'rganilgan. Chunonchi, tazod, saj', o'xshatish.

3. Badiiy san'atlarning aksariyati, masalan, muvozana, iqtibos kabi turlari deyarli o'rganilgan emas.

4. Badiiy san'atlar yuzasidan fundamental, umumlashma tadqiqotlar yaratish hozirgi o'zbek tilshunosligining dolzarb muammolardan biridir.

5. Badiiy san'atlarning adabiyotshunoslik, tilshunoslik va uslubiyat nuqtai nazaridan o'rganishning nazariy aspektlarini belgilash muhim vazifalardan biridir.

1.3. She'riy san'atlarni tadqiq qilishning ayrim muammolari

Ilmiy adabiyotlarda ko'rib o'tilganidek, she'riy san'atlar haqida anchagina ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Natijada, bu san'atlarning ko'pgina tomonlariga aniqliklar kiritilgan, ayniqsa, ularning badiiy adabiyotda obraz yaratish funksiyasi bilan bog'liq xususiyatlari yaxshi yoritilgan. Shunga qaramasdan, she'riy san'atlar bilan bog'liq munozarali o'rinlar ham mavjud.

Birinchidan, she'riy san'atlar qaysi sohaning tekshirish obyekti deyilgan masala munozaralidir. She'riy san'atlar badiiy obraz yaratish vositasi sifatida adabiyotshunoslikning, ayniqsa, poetikaning tekshirish obyekti ekanligi shubhasizdir. Buni badiiy san'atlar bo'yicha hozirgacha yaratilgan ishlarning aksariyati adabiyotshunoslar qalamiga mansubligi ham tasdiqlaydi. Badiiy san'atlar har qanday ijodkorning badiiy mahoratini, individual uslubini belgilovchi vositalardan biri hisoblanadi. Shu ma'noda, she'riy san'atlar har bir adibning tilga munosabati, lisoniy mahorati va ijodkorligini, topqirligi va zukkoligini o'zida mujassam qiluvchi vosita hamdir. Bu hol, ayniqsa, hozirgi zamon nazmiy asarlar tilida yorqin va bo'rtgan holda namoyon bo'ladi. Demak, adabiyotshunoslik badiiy san'atlarga badiiy obraz yaratishning asosiy vositalaridan biri sifatida yondashadi va adibning bu boradagi mahoratini o'z nuqtai nazaridan baholaydi.

Keyingi paytlarda she'riy san'atlar tilshunoslik aspektida ham tadqiq etila boshlandi. Badiiy san'atlarning ba'zi tomonlari "tilning tasviriy vositalari", "tilning obrazli tasviriy vositalari", "tilning uslubiy vositalari", "lingvopoetik vositalar" kabi terminlar ostida (asosan semantika aspektida) tilshunoslikda ham o'rganilmoqda. Ammo bu ishlarda badiiy vositalardan, ko'p hollarda semantik kategoriyalardan izchil chegaralanmagan holda o'rganib kelindi. Bunday ishlarda, asosan, yozuvchining sinonim, omonim, antonim, ko'p ma'noli so'zlar va frazeologizmdan, shuningdek, metonimiya, sinekdoxa, metafora, qisman mubolag'a, jonlantirish kabi vositalardan qanchalik foydalanganligi tahlil qilingan. Tilshunoslik sohasida bajarilgan bu kabi ishlarda ikki xususiyat ko'zga tashlanadi: 1) tahlil jarayonida she'riy san'at termini va unga doir tushunchalar tilga

olinmaydi; 2) lisoniy vositalar matndan uzib olingan holda, u yoki bu vositaning (masalan, omonim, sinonim va b.) asar tilida qanchalik uchrashini shunchaki qayd etish usulida o'rganiladi. Ba'zan keltiriladigan matnlar esa qayd qilingan til vositasining haqiqatda mavjudligini tasdiqlash uchungina keltiriladi. Bunday ishlarning deyarli barchasida tahlil qilinayotgan lisoniy vositaning badiiy til, badiiy obraz yaratishdagi roli haqida gapirilmaydi...

Qayd qilinganlardan qat'iy nazar, she'riy san'atlarni hosil qiluvchi, ularni yuzaga keltirishda vosita bo'luvchi lisoniy hodisalar o'ziga xos tarzda tilshunoslikda ham o'rganib kelinmoqda. Omonimlar, antonimlar, so'zning ko'chma ma'nolari, metonimiya, metafora, sinekdoxa, o'xshatish, takror so'zlar, so'z takrori, frazeologiya va b. oid tadqiqotlar bunga misol bo'la oladi.

She'riy san'atlarni yuzaga chiqaruvchi vosita – til, tilning imkoniyatlaridir. Masalan, tazod (antiteza) san'ati tilda antonim so'zlarning mavjudligi tufaylidir. Shunga o'xshash barcha badiiy san'atlar zaminida tilning vosita va imkoniyatlari turadi. Ammo tildagi barcha vositalar bir darajada badiiy san'atlarni yuzaga keltirishga xizmat qilmaydi. Bu jarayonda faol qatnashadigan va qatnashmaydigan lisoniy vositalar bo'lishi aniq. Bu har qanday tilning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Bunday vositalar tilning turli sathlari bo'yicha ham miqdor, ham sifat jihatidan farqlanadi. Masalan, badiiy san'atlarning yuzaga kelishida barcha lug'aviy birliklar qatnashmasligi aniq. Shuningdek, antonim, omonimlarning barchasi ham bir xilda ishtirok etmaydi va h.

She'riy san'atlarni tilshunoslik ham, adabiyotshunoslik ham o'rganishi mumkin. Bunda har qaysi fan tarmog'i o'z maqsadidan kelib chiqadi. Adabiyotshunoslikni badiiy san'at vositasida yuzaga kelgan obrazlilik, badiiylik qiziqтира, tilshunoslikni badiiy san'atning yuzaga kelishida ishtirok etuvchi til vositasi, uning bu vazifada ma'noviy, uslubiy xususiyatlari, shu san'at tufayli so'z (vosita) semantik strukturasidagi o'zgarish va boyish holatlari qiziqtiradi.

She'riy san'atlarga bag'ishlangan tadqiqotlar sintetik (aralash) usulda olib borilishi qonuniydir. Chunki hatto adabiyotshunos ham bu sohaga doir o'z

izlanishlarida tilshunoslik nuqtai nazaridan ba'zi mulohazalarni aytishga majbur bo'ladi. Mana shunday aralash usulda, ya'ni tilshunoslikka oid tahlillarda adabiyotshunoslikka oid tahlil usullari ham bo'lishi **lingvopoetik tadqiqot** deb yuritilmoqda.

She'riy san'atlarga oid ishlarning mazmuni bilan batafsil tanishish shuni ko'rsatadiki, bu sohaga oid quyidagi muammolar o'z yechimini kutmoqda:

1. She'riy san'atlar va ularning milliy adabiyotda qachon paydo bo'lganligiga aniq javob yo'q. Mavjud adabiyotlarning aksariyatida, asosan, arab va fors poeziyasi tilga olinadi.

2. She'riy san'atlarga berilayotgan ta'riflar ham har xil. Berilgan ta'riflarda o'zaro yaqin va uzoq bo'lgan ta'riflar ko'p. Ko'p hollarda bitta she'riy san'at tadqiqotlarda har xil ta'riflangan.

3. Hozirgacha aniqlangan badiiy san'atlarning miqdori masalasida ham turli fikrlar mavjud. Chunonchi, bu masalada turli miqdorlar keltiriladi.

Shunga ko'ra, hozirda she'riy san'atlar miqdorini aniq belgilash imkoni yo'q. Bu masala o'z yechimini har bir konkret milliy adabiyotlardagi she'riy san'atlarni atroflicha tahlil qilish orqaligina hal etish mumkin. Har qanday holda ham, badiiy san'atlar miqdori mutlaq emas, nisbiy bo'lishi aniq. Chunki san'atlar miqdori adabiyotda barcha tarixiy davrlarda bir xil bo'lishi mumkin emas. Bunga sabab ba'zi san'atlar eskirishi, iste'moldan chiqishi mumkin. Arab grafikasi iste'moldan chiqqach, arabiy harflarning shakliiy xususiyatlari bilan bog'liq san'atlar hozirda qo'llanishdan chiqdi. Hozirgi o'zbek mumtoz adabiyotida iste'molda bo'lgan qaysi san'atlarning hozirgi adabiyotda saqlanib turgani, qaysilari iste'moldan chiqqani va buning sabablarini o'rganish ham muhimdir.

4. Mavjud adabiyotlarda she'riy san'atlarni nomlashda ham bir xillik yo'q. Bitta san'at birdan ortiq nom bilan yuritilayotganiga yoki bitta san'at parallel ravishda arabcha, forsha, turkiy, ruscha nomlar bilan yuritilayotganiga duch kelish mumkin. Bizning nazarimizda, badiiy san'atlar atamalarini unifikatsiyalash, ularning nomlarini terminologik nuqtai nazardan tartibga solish lozim. Chunki san'atlar nomining arabcha yoki forsha shakllarda yuritilishi, o'zbek adabiyoti

uchun notabiiy hodisadek tuyuladi. Ushbu o'rinda ba'zi san'atlarning jonlantirish, takror, mubolag'a, savol-u javob, kinoya kabi yuritilayotgani alohida ahamiyatga egadir.

5. She'riy san'atlarning miqdorida bo'lganidek, ularni ta'rif va tavsiflashda ham bir xillik yo'q. Bu hol ushbu san'atlarning asl mohiyati hali yetarli ravishda oydinlashmaganidan darak beradi*.

6. She'riy san'atlarni ularga yondosh bo'lgan hodisalardan, ayniqsa uslubiy vosita va usullardan farqlash, ular orasida aloqadorlik va farqlar, chegaralarni belgilash g'oyat muhimdir. Masalan, ba'zi vositalar o'xshatish, metafora, takror, mubolag'a, tazod (antiteza), litota va b. ba'zi adabiyotlarda ham uslubiy vosita, ham badiiy san'at ko'rinishi sifatida keltiriladi. Umuman, badiiy san'at bilan uslubiy kategoriyalar orasidagi farqlar, u yoki bu kategoriyaga kiruvchi hodisalarni aniq chegaralash muhimdir.

7. Agar diqqat qilinsa, hozirga qadar she'riy san'atlarni tadqiq qilishga bag'ishlangan tadqiqotlarning deyarli barchasi mumtoz adabiyot tarixiga mansub asarlar asosida amalga oshirilganini ko'rish mumkin. Demak, badiiy san'atlarning hozirgi o'zbek adabiyotidagi holati, ulardan zamonaviy adiblarning foydalanish darajasini o'rganish muhimdir. She'riy san'atlarni tadqiq qilishning hozirgi darajasi bu san'atlar go'yoki faqatgina mumtoz adabiyot tili uchungina xosdek taassurot tug'diradi.

Yuqoridagi ilmiy tadqiqot ishlarining tahlili yuzasidan olib borgan kuzatishlar har qanday she'riy san'atning zamirida til materialiyotishini ko'rsatdi. Lisoniy material badiiy san'at vazifasini o'tashida uning quyidagi imkoniyatlari namoyon bo'ladi:

1. So'zning to'g'ri va ko'chma ma'noda qo'llash imkoniyatlari.
2. So'zning shakliy imkoniyatlari.
3. So'zlarning o'zaro qo'shilish imkoniyatlari.
4. So'zning takrorlanish imkoniyatlari.

* Bu ushbu ishning boblaridagi tahlillarida keltirilgan.

5. Alifbo sirasidagi ba'zi harflarning shakliy-simvolik tasvirlash imkoniyatlari.

6. Fonetik-orfoepik imkoniyatlar.

Qayd qilingan imkoniyatlarga tilshunoslik nuqtai nazaridan yondashilsa, she'riy san'atlar quyidagi lisoniy vositalarga tayanishi ma'lum bo'ladi:

1. Ko'p ma'nolilik xususiyatiga asoslangan san'atlar.
2. So'zning ko'chma ma'nolariga asoslangan san'atlar.
3. So'zlar ma'nosining o'zaro yaqinligiga asoslangan san'atlar.
4. Qarama-qarshi ma'noli so'zlar (antonimlar)ga asoslangan san'atlar.
5. So'zlardagi shakliy yaqinlikka asoslangan san'atlar.
6. So'zlardagi shakliy aynanlik (omonimlar)ka asoslangan san'atlar.
7. So'zlar takrori va takroriy so'zlarga asoslangan san'atlar.
8. Juft so'zlarga asoslangan san'atlar.
9. Atoqli otlarni qo'llashga asoslanilgan san'atlar.
10. O'zlashma so'zlarning xususiyatlariga asoslangan san'atlar.
11. Varvarizm va okkozional qurilmalarga asoslangan san'atlar.
12. Frazeologik birliklarni qo'llash bilan bog'liq san'atlar.
13. Sintaktik birliklarni qo'llash bilan bog'liq san'atlar.
14. Fonetik va orfoepik birliklarning talaffuzi va funksional xususiyatlariga asoslanilgan san'atlar.
15. Harflarning shakliy xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan san'atlar.
16. Asar matniga o'zga materialni (maqol, ibora, gap, nutqiy matn kabi) kiritishga asoslangan san'atlar.
17. So'zlarni shakliy (bo'g'in, vaznga ko'ra) tengligiga asoslangan san'atlar.
18. Matnga varvarizmlarni matn mansub bo'lgan til uchun meyor hisoblanmagan so'z va iboralarni, matniy parchalarni kiritishga, asoslangan san'atlar va b.

Poetik nutqning eng yetakchi xususiyati sifatida she'riyatda xushohanglikni ta'minlash tushuniladi. She'rni she'r sifatida ajratib turadigan,

boshqacha aytganda, she'rni she'r qilib turadigan eng muhim, eng zarur hodisa qofiyadir. Har qanday qofiyadosh so'zlarda kamida ikki, uch fonema bir xil bo'ladi. She'rning misralaridagi xushohanglikni aynan shular ta'minlaydi. Fonemalarni uyushtirib xushohanglik yuzaga keltiruvchi dastlabki vosita qofiya hisoblanadi. Qofiyaning eng muhim xususiyatlaridan yana biri ritm va intonatsiyani yuzaga keltirishi hisoblanadi. Bundan tashqari ichki qofiya ham bo'lib, bu orqali g'azallarning ohangdorligi yana ham ortadi. Qofiya she'riyatda bandlar chegarasini belgilab turadi. Bunga misol tariqasida Z. M. Boburning «Qaro zulfing firoqida...» so'zlari bilan boshlanuvchi g'azalini hamda Mashrabning g'azallaridan misollar keltirish mumkin.

O'zbek tilidagi o'z qatlamga mansub so'zlar she'riyatda xushohanglikni ta'minlashga qo'l kelishi bilan ajralib turadi. Bu holni quyidagilar bilan asoslash mumkin:

- o'z qatlamga mansub so'zlarning asosiy qismi bir va ikki bo'g'inlidir;
- o'z qatlamga mansub so'zlarda hech qachon undosh tovushlar qatorlashib kelmaydi;
- o'z qatlamga tegishli so'zlar qator undoshlar bilan tugamaydi;
- o'z qatlamga kiradigan so'zlarning ikkichi bo'g'ini unli bilan boshlanmaydi;
- so'z tarkibida ikki unli yonma-yon qo'llanmaydi.

Mazkur belgilar shundan dalolat beradiki, o'zbekcha so'zlarda fonemalarning joylashuvida xushohanglikni buzadigan jihatlarning o'zi yo'q. Xushohanglikni buzadigan jihatlari boshqa tildan o'zlashgan so'zlarda kuzatiladi: fors-tojik tilidan o'zlashgan so'zlarda undoshlarning qatorlashib kelishi: bazm, barg, baxt, baland, do'st kabi; arab tilidan o'zlashgan so'zlarda unlining yonma-yon qo'llanishi: matbaa, mutolaa, saodat, oila, doir kabi; o'zbeklar uchun artikulyatsiyasi qiyin «'» fonemasi ishtirok etishi: ra'no, da'vo, ta'na, e'lon, me'mor kabi; ruscha-baynalmilal so'zlarda ikki, uch undoshning yonma-yon

kelishi ham xushohanglikni buzadi, talaffuzni qiyinlashtiradi: sport, tekst, shtraf, skver, stansiya kabi.

O'zbek tilidagi sonor undoshlarning tarkibida qo'shimcha tonlarning mavjudligi ularning she'riyatda xushohanglikni yuzaga keltiruvchi omillardan biri sifatida qaralishi mumkin. Masalan, m, n, ng, l, r undoshlarining xushohanglikni ta'minlashdagi xizmatini asoslaydigan jihatlarni mumtoz adabiyotimiz vakillari asarlarida kuzatishimiz mumkin. Bu hol, ayniqsa, burun sonantlarida alohida mavjud, ularda bo'g'in hosil qilish imkoniyatlari borligining o'zi xushohanglikni yuzaga keltirishda asqotadi. Bu undoshlardagi jaranglilik ham xushohanglikka xizmat qiladi.

Nutqda ayrim tovushlarning satrlar va baytlardagi so'zlar tarkibida ishtirok etishi ham xushohanglikni ta'minlaydi. Bunga ko'plab misollar keltirish mumkin. Ular alliteratsiya nomi bilan ataluvchi san'atlar qatoriga kirgan. Xushohanglikni ta'minlashda unlilarning ahamiyati beqiyosdir. Chunki ular tarkibida ovozning mavjudligi, shovqinning ishtirok etmasligi xushohanglikka xizmat qiladi. Ularning bo'g'inni shakllantirishdagi asosiy omil ekanligi ham undoshlarga nisbatan afzalliklari hisoblanadi. Shu bilan birga, ular barmoq vaznida turoqlarni shakllantirishda, aruz vaznida uzun-qisqa hijolarning tarkiblanishida ham faol ishtirok etadi. O'zbek tili fonemalarining estetik jihatdan baholanishi uchun hozirgi zamon erishgan texnika vositalari yutuqlaridan foydalangan holda tajribalar o'tkazish zarur.

Xushohanglikni ta'minlashda radifning ham o'z o'rnini bor. Radif ishtirok etgan she'riy misralarning, radif ishtirok etmagan misralarga qaraganda beqiyos afzalligi bor. Bizningcha, o'zbek mumtoz adabiyotida radiflarning xushohanglikni yuzaga keltirishdagi xizmati ham, tavsifi ham, tasnifi ham alohida o'rganilishi lozim. Yana bir xushohanglikka xizmat qiladigan hodisalardan biri takror hisoblanadi. Takrorning bu boradagi xizmatlari fonemalardan tortib, gap takrorlarigacha alohida o'rganilib tavsiflanishga muhtoj.

1.4. Ikrom Otamurod ijodida she'riy san'atlarning o'rni

She'riyat bugungi kunda ham milliy adabiyotimizning yetakchi turi bo'lib qolmoqda. Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Azim Suyun, Usmon Azim, Ikrom Otamurod, Abduvali Qutbiddin, Farida Afro'z, Aziz Said, Muhammad Yusuf, Faxriyor, Bahrom Ro'zimuhammad, Rauf Subhon, Iqbol Mirzo, Zebo Mirzo, Tursun Ali, Ulug'bek Hamdam, Xosiyat Rustamova singari shoirlarning she'rlarida olamni poetik idrok etish yangi bosqichga ko'tarilgani namoyon bo'ladi.

Bugungi kunning to'laqonli iste'dodli shoirlaridan biri bo'lmish Ikrom Otamurod o'tgan asrning 70-80-yillaridan adabiyot maydoniga qadam qo'ygan ijodkorlar qatorida turadi.

Ikrom Otamurod 1951 yilning 5 mayida Qashqadaryo viloyatining Kasbi tumanidagi Kasbi qishlog'ida tug'ilgan. O'rta maktabni Komilon kishlog'ida bitirgan. 1969-1974 yillarda Toshkent Davlat universiteti (hozirgi Milliy universiteti)ning jurnalistika fakultetida tahsil olgan. 1974 yilning fevralidan 1975 yilning martigacha O'zbekiston Davlat qomusi nashriyotida muharrirlik qilgan. 1975 yilning martidan hozirga qadar «Sharq yulduzi» jurnalida adabiy xodim, bo'lim mudiri, bosh muharrir o'rinbosari bo'lib ishlab kelmokda.

Ikrom Otamurod o'z tengdoshlari orasida falsafiy mushohadasini kengligi, minbar shoirliği, notiqliği bilan ajralib turadi. Uning she'r va dostonlarida ustoz Maqsud Shayxzoda nafasi ufurib turadi.

Shoirning «Vaqt ranglari» (1982), «Janub qushlari» (1983), «To'rg'ayli manzillar» (1983), «Ufqlar orti bepoyon» (1987), «Xaritaga tushmagan joylar» (1992), «Uzoklashayotgan og'riq», «Ruhimning qayg'usi», «Sen», «Kanglum o'zing», «Tavr» (2005), «Tag'azzul» (2008) nomli kitoblari nashr etilgan.

Ikrom Otamurod bir qator, xususan, «Yarador umid otlari», «Uzoklashayotgan og'riq», «Sopol siniklari», «Sen», «Ichkari... Tashqari», «Istarim», «Xaritaga tushmagan joy», «Yobondagi yolg'iz daraxt», «Aning umidi», «Tag'azzul», «Iztiror» singari dostonlar muallifi. Uning bir qator bitiklari ingliz, rus, turk, arab, qozoq, ozarbayjon, koreys, moldavan, ukrain, turkman, tojik,

qoraqalpoq tillariga tarjima qilingan. Ayni paytda shoir Uolt Uitmen, Pablo Neruda, Rafael Alberti, Mahmud Darvish, O'lgas Sulaymonov, Yevgeniy Yevtushenko, Voqif Jabroilzoda singari ijodkorlarning she'rlarini o'zbek tiliga o'g'irgan.

Ikrom Otamurodning falastin shoiri Muin Bsisuga bag'ishlangan «Yarador umid otlari» dostoni 80-yillar o'zbek she'riyatida sezilarli voqea bo'lgan. Dostonda xorijlik ijodkor obrazi orkali inson qalbining po'rtanalari, mustakillik haqidagi orzular, ona-yurt obrazi kuchli his-hayajon bilan badiiy ifodalangan.

Shoir falsafiy mushohada bilan yo'g'rilgan she'riy uslubiga sodiq qolib, 1990 yili «Uzoqlashayotgan og'riq» dostonini yaratdi. Bu asarda zamondoshlarimizni tobora tark etib borayotgan e'tiqod, burch, insoniylik tushunchalari qalb to'g'yoni, vijdon azobi, yurak qoni bilan badiiy tadqiq etilgan.

Ikrom Otamurod ijodining o'ziga xos xususiyatlarini olim Qozoqboy Yo'ldoshev quyidagicha izohlaydi: «Ikrom Otamurod nozik ruhiy holatlar, latif hissiyotlar, inja tuyg'ularni zamzamali tasvir etishga mohir, hayot hodisalarini emas, uning ko'ngildagi jilvalarini ifodalashga moyil shoir. U inson ko'ngli mavjlarining guldan-da noziq shudringdan-da omonat, bulutdan-da bekarorligini biladi va har bir she'rida ruhiyatning ana shu betakror tovlanishlarini muhrlashga intiladi.

Ikrom olamga jo'n nazar bilan qaramagani bois, narsa-hodisalarning tashqini emas, ichini, mohiyatini ko'radi va tasvirlaydi. Mohiyatni ilg'ash hamisha qiyin, uni boshqalarga bildirish undan-da mushkul. Shuning uchun ham Ikromning she'rlari hammabop emas. Ularni tuyish va ulardan ta'sirlanish uchun ma'lum darajada hozirlik kerak bo'ladi...»²⁷

Ikrom Otamurod she'riyati o'ziga xos uslubga ega. Shoir o'z she'rlarining aksariyatiga maxsus nom bermaydi, bu falsafiy xususiyatga ega. Go'yoki she'rxon shoir qalbidagi she'r mazmuni, uning nomini tushunib, topib uqib olsin uchun.

²⁷ //O'zbekiston adabiyoti va san'ati. — 2006. — 31mart.

Ko'pchilik she'rlarining misralari qisqa-qisqa. Biroq bu qisqalikda tilning keng imkoniyatlarini qidirishga va topa bilishga harakat qiladi, mohirlik bilan uddalaydi.

Jahon she'riyatida asosan to'rtta she'r sistemi (tizimi) mavjud: Sillabik she'r sistemi, metrik she'r sistemi, tonik she'r sistemasida, sillabo-tonik she'r sistemi Bundan tashqari, barmoq, aruz, erkin she'r sistemalari ham mavjud.

Barmoq she'r sistemi misralarda bo'g'inlarning muayyan miqdoriga va izchil takroriga, bir xil turoqlarning o'ziga xos tartibda guruhlanishiga asoslanadi. O'zbek tilining ifoda va ohang imkoniyatlari, grammatik-stilistik qurilishi – barmoqni milliy she'riy sistema sifatida bunyodga keltiradi.

O'zbek she'riyatida ikkinchi – aruz sistemi ham bor. A. Fitrat yozganidek, aruz – arablarnikidir. Ulardan forslarga o'tgan va arab aruzi tuzatilib, kamchiliklari to'ldirilib, arab-fors aruzi holiga keltirilgan. Arab-fors aruzi O'rta Osiyo xalqlari poeziyasiga ham kirgan.

Erkin (sarbast) she'r sistemi. Bu she'r tizimida misralardagi bo'g'inlar miqdorining tengligi (barmoq), hijolarning cho'ziq va qisqaligi (aruz) kabi qonuniyatlar hukm surmaydi. Unda bo'g'inlar miqdori ham, turoqlar (ruklar) tartibi ham, qofiyalanish va bandlar ham turli-tuman bo'ladi, lekin musiqiylik-ohangdorlik doimo barq urib turadi. Shu sababli u erkin she'r sistemi deb yuritiladi.

Erkin she'r sistemi XXI asr jahon poeziyasida, jumladan, o'zbek she'riyatida ham yetakchilik qilsa ajabmas, chunki u „tezkor“ zamona kishilarining murakkab ziddiyatlarga to'la, shiddatkor, betakror ruhiy dunyolarini borlig'icha namoyon etishga qodir kuch – mo'jizadir.

Biz ijodini o'rganayotgan taniqli ijodkor Ikrom Otamurod barmoq vaznida ham, erkin (sarbast) vaznida ham birday ijod qilayotgan adibdir.

Shoir ijodida qisqa misralar asosida yozilgan “Taajjub shakllari” ham uchraydi. Ularning ko'pchiligi, asosan, ikki, uch, to'rt va undan ortiq misrali shakllarda ham uchraydi:

*Sen lovullab turgan laxcha cho‘g‘,
qo‘llaringa olov sapchir
silasam agar.*

Yoki matematik amallar ham qatnashib qolgan misralar:

Kelish –

ketishning qaytuvi...

Ketish –

kelishning qaytuvi...

Qaytuv=kelish+ketish... (“Sen” 59-bet.)

kabi misralar she’rxonni beixtiyor mulohazaga undaydi.

Mustaqillik davri she’riyatida o‘tkir gap aytish, o‘quvchiga aql o‘rgatish emas, balki inson ruhining murakkab manzaralarini aks ettirishga e’tibor kuchaydi. Odam sezimlarining qatlamlarini tadqiq qilish, tuyg‘uning boy va rangin qiralarini poetik kashf etishga urinish kuchaydi. Bu davr she’riyati shakliy izlanishlarga boyligi bilan xarakterlanadi. Endilikda o‘zbek she’riyati bilan tanishish uchun o‘quvchining qulog‘i va ko‘zigina emas, tafakkuri va tuyg‘ulari ham bir qadar zo‘riqishi, she’rdan zavq olish, lazzat tuyish uchun mehnat qilishi lozim bo‘lib qoldi.

O‘zbek she’rxonlarida birorta tinish belgisi ishlatilmagan tizmadan ham, murakkab mavhum obrazlilikka to‘la she’riyatdan ham, tasavvufiy ilhom samarasi o‘laroq dunyoga kelgan munojotlardan ham, poetik mini deyish mumkin bo‘lgan ramziy ifodalardan ham, meditativ nazm namunalaridan ham ta’sirlanish, ularni baholay olish ko‘nikmasi shakllanib bormoqdaki, bundan bir qadar qanoat tuyish mumkin.

Bob bo'yicha xulosalar:

O'zbek filologiyasida she'riy san'atlarning o'rganilishi va uning muammolari yuzasidan olib borilgan tahlillarni quyidagicha xulosalash mumkin:

1. O'zbek tilshunosligida badiiy asar tilini o'rganish yuzasidan qator ilmiy ishlar mavjud bo'lsa ham, she'riy san'atlar yetarli tahlilini topgan emas, bu ishlarda ko'chimlar qatoriga kiruvchi o'xshatish, metafora, metonimiya, perifraza, epitetlar tahlilga tortilgan.

2. Stilistik figuralardan antiteza, anafora alohida ishlarning mavzu obyekti bo'lgan, xolos. Ko'pchilik ishlarda sinonimlar, omonimlar, frazeologik iboralar, okkozionalizmlar tahlili odat tusiga kirgan. Ikrom Otamurod she'riyatidagi badiiy san'atlar kompleks tarzda nazariy jihatdan o'rganilmagan.

3. O'zbek adabiyotshunosligida sharqona she'riy san'atlarni o'rganish, mumtoz adabiyotimizni o'rganish, tahlil qilish asnosida tadqiq obyektlarning xarakteridan kelib chiqadigan majburiylik asosida yuz bergan jarayondir. Sharqda she'rshunoslik adabiyotshunoslik va tilshunoslik nuqtai nazaridan ajratib yuborilgan emas.

4. Bizningcha, poetik ijod mahsullarini tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilish o'zini oqlamaydi. Shuning uchun she'riy san'atlar tahlilini ham umumfilologik tarzda olib borish maqsadga muvofiqdir. Bunday tahlilning namunasini Alisher Navoiy «Muhokamat ul-lug'atayn» asarida yaratib bergan. Demak, tahlil kompleks tarzda olib borilishi lozim.

II bob. Poetik matnda lisoniy tejamlilik va ortiqchalikning fonetik shakllarda ifodalanishi

Dunyo tilshunosligida XX asrning 60-yillariga kelib matn lingvistikasi mohiyatini o'rganishga jadal kirishildi. Matnshunoslik lingvistikaning semasiologiya, grammatika, sistematika bo'limlari bilan uzviy bog'liq bo'lgani sababidan tilshunoslar tomonidan o'rganilsa, nutqiy muloqotning ko'p qirraligini hisobga olgan holda, kibernetik, psixolingvist, sotsiolingvistlar ham matn strukturasini aniqlash metodikasini ishlab chiqish masalalari bilan shug'ullanganlar. Chunki inson tajribasida umumlashgan fikrlar mehnat faoliyatining o'sish jarayoni, moddiy dunyo, borliq, voqelikni inson sezgilari, ongi orqali anglashi asosida yuzaga kelar ekan, "kommunikativ jarayonda tilni so'zlashuvchilarning til haqidagi amaliy bilimisiz, uni etiborga olmasdan to'g'ri va to'liq o'rganib bo'lmasligi aniq bo'lib qoldi"²⁸.

Tilshunoslikda matnning asosiy birligiga gapdan farqli o'laroq, murakkab sintaktik qurilma, deb qaraladi, "chunki murakkab sintaktik qurilma har doim kamida ikki gapning o'zaro munosabatidan tashkil topadi. Gap esa nutq birligi hisoblanadi"²⁹. Matn maqomini belgilashda murakkab sintaktik qurilma alohida mavqega ega, bunday tuzilish mantiqiy izchillik asosiga qurilgan mazmuniy yaxlitlikni yuzaga keltiradi. Ma'lumki, gap orqali hukm ifodalanishi yoki ifodalanmasligi mumkin, biroq matnda hukm doimiy mavjud bo'ladi, ya'ni murakkab sintaktik qurilmada bir mavzu atrofiga jipslashgan gaplar ketma-ket qo'llanadi va mantiqan zich aloqa zanjirini hosil qiladi. Matn orqali mavjud axborot to'liq yetkaziladi, natijada yetkazilgan axborot ma'lum bir fikrni tug'diradi va bu fikr xotirada saqlanadi. Shuningdek, matn o'z kategoriyasiga ega bo'lish bilan bir qatorda, gapdan ayri olib qaralmaydi, gap matn mazmunining

²⁸ Nurmonov A. Lingvistik ta'limotning yangi bosqichi // O'zbek tili va adabiyoti. -Toshkent, 2008. -№6. -B. 53.

²⁹ Turniyozov B. Katta sintaksis tushunchasiga doir // Til taraqqiyotining derivatsion qonuniyatlari: Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari. -Samarqand: SamDCHTI, 2009, 11-12-may. -B.22.

yoritilishida asosiy ishtirokchi sanaladi, albatta, “gapning matn sistemasidagi o‘rnini, uning matn hosil qilish qobiliyatini aslo inkor etib bo‘lmaydi”³⁰.

Xo‘sh, matn deb nimaga aytiladi? Matn - “nutq ko‘rinishi bo‘lib, vazifasi jihatidan tugal nutqiy butunlikdir. Yagona kommunikativ vazifani bajaruvchi gap va gaplar yig‘indisi tekst hisoblanadi”³¹, matnni “tugallangan, superfrazali birliklardan tuzilgan, leksik, grammatik, logik, stilistik aloqalar bilan bog‘langan, aniq maqsadli va grammatik qurilmali nutqiy asar”³² deyish maqsadga muvofiqdir. Matn strukturasi murakkab kompozitsion-nutqiy shakllar birlashuvidan tarkib topadi. Matnlarda gaplarning joylashuvi ham alohidalikka ega, masalan, gaplar qo‘shiluv aloqasi asosida bog‘lanishi mumkin, bunda so‘zlovchi o‘z fikri oxirida qo‘shimcha mulohaza yuritadi yoki bunday qurilmalar so‘zlovchining yodiga kutilmaganda kelgan fikrni maxsus to‘xtam orqali ifoda etadi. Demak, asosiy ifoda bilan qo‘shimcha ifoda birikuviga, aniqrog‘i, qurilmaning uzilgan qismi bilan qolgan qismini bog‘lovchi vositaga qo‘shiluv aloqasi deyiladi, qo‘shiluv aloqasi gap bo‘laklari yoki gaplar asosida yuzaga keladi va parsellyatsiya (uzilish) hodisasi bilan chambarchas aloqadordir. Tilshunoslikka oid ko‘pgina asarlarda bu hodisaning ekspressiv-stilistik mohiyatga ega ekanligi takidlanadi.

Til matn mazmunini ro‘yobga chiqarar ekan, u dastavval kommunikativ, so‘ngra estetik vazifa bajarishga qaratilgandir, tilda yetakchi bo‘lgan mazkur ikki vazifaga ko‘ra matnlar nobadiiy matn va badiiy matnga ajratiladi. Nobadiiy matndan farqli o‘laroq, badiiy matnning bosh maqsadi axborotning tinglovchiga qay darajada ta’sir etishini hisobga olish, ya’ni estetik ta’sir darajasini belgilashdir, bunda emotsional-ekspressiv vositalar estetik vazifani yuzaga keltiruvchi elementlar hisoblanadi. Badiiy matn ifodalagan estetik qiymatning kuchi til birliklarini o‘rinli qo‘llay bilishda ko‘rinadi, mavjud axborotda muallifning badiiy estetik dunyoqarashi ifoda etiladi. Obrazli tafakkur mahsuli bo‘lmish bunday matnda ijodkor mahoratiga bog‘liq holda, tilning “ohori to‘kilmagan” shakllari, sathlararo individual neologizmlarga murojaat etiladi, natijada borliq, inson va

³⁰Yuldashev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi: Filol. fanlari d-ri diss. avtoref. -T., 2009. -B. 16.

³¹O‘rinboyev B., Qo‘ng‘urov R., Lapasov J. Badiiy tekstning lingvistik tahlili. -T.: O‘qituvchi, 1990. -B. 8.

³²Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. -T.: Fan, 2007. -B. 11

uning ruhiy olami, surat va siyrati uyg'unlikda yangitdan kashf etiladi. Badiiy matnning imkoniyati shundaki, unda til birliklarini tanlash va qo'llashning ma'lum chegarasi yo'q, ijodkor zahirasida mavjud jamiki imkoniyatlardan foydalana oladi. Tilning fonetik-fonologik, leksik-semantik, grammatik vositalarini tanlab qo'llash imkoni badiiy matnda tasvir imkoniyati va usullarining keng hamda betakrorligini ko'rsatadi. Fonografik, leksik hamda ekspressiv-stilistik vositalar estetik qiymatni belgilovchi asosiy o'lchovlardan biridir, buning natijasi o'laroq, axborotning estetik ko'rsatkichi ekspressiv ifoda hamda emotsional qamrovning badiiy xoslanganligida ko'rinadi.

Badiiy matn ma'lum mantiqiy mazmun va strukturaga ega butunlikdir va yuqorida ko'rsatilgan tiplarga xos u yoki bu xususiyatni o'zida aks ettiradi, bu esa estetik vazifa uchun xizmat qiladi. Badiiy matnning mantiqiy mustahkam tasviriyligini ta'minlashda sarlavha, intertekstuallik (epigraf, reminissensiya (biror shoir tomonidan boshqa ijodkor ishlatgan poetik ibora yoki obrazli ifodani atayin yoxud beixtiyor o'zlashtirib ishlatish³³) usullarining ham alohida o'rni bor. Badiiy til badiiy matnning mazmunini ro'yobga chiqaruvchi, mazkur mazmunni reallashtiruvchi, muallifning g'oyaviy-estetik maqsadini ifodalovchi vosita hisoblanadi, obrazli til ifodalarisiz esa estetik mazmun to'la anglashilmaydi. Badiiy matnning boshqa turlaridan farqli o'laroq, poetik matnda emotsional-ekspressivlik yuqori darajada bo'lishi talab etiladi, u poetik axborot yetkazadi, shuningdek, ritmik-intonatsion qurilishiga ko'ra badiiy matnning boshqa turlaridan farqlanadi. O'quvchiga uzatilgan poetik axborotda badiiy tafakkur mahsuli bo'lmish estetik tuyg'u kuchliroq ifodalanadi, badiiy obrazlar, ramzlarning o'ziga xos murakkab tizimi hosil qilinadi, chuqur badiiy tafakkur orqali muallif va o'quvchining anglash potensiali tenglashadi. Shuningdek, o'quvchiga estetik ta'sir etishning "yuki" ko'pincha muallifning o'ziga yuklatiladi. Demak, poetik matn ma'lum o'lchovga solingan, poetik talab asosida shakllangan, emotsionalligi yuqori darajada bo'lgan, individual kechinmalar orqali tipik kechinmalar aks ettirilgan badiiy nutq

³³ Xotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. -Toshkent: O'qituvchi, 1976. -B. 256.

parchasidir. O'zbek tilshunosligida B.Umurqulov³⁴, I.Mirzayev³⁵ poetik matn, poetik nutqning ilmiy-nazariy asoslarini ko'rsatib berishgan.

Poetik matnni til birliklarining ko'lami keng shakllari yuzaga keltiradi; badiiy-estetik g'oya poetik fonologik birliklar, poetik leksik birliklar, poetik morfologik birliklar, poetik sintaktik birliklar orqali shakllanadi. Demak, poetik matnga xos qat'iy strukturaviy talablar mavjud. Poetik matnda fonetik shakli o'zgarishdagi so'zlar qofiya talabi, vazn bilan bog'liq holda, konnotatsion ma'no ifodalaydi. Konnotativlik, boshqa til birliklariga qiyosan olganda, fonetik vositalarda kuchliroq, tovushlarni ikkilantirish, cho'zish, tushirib qoldirish yoki orttirib qo'llash hamda supersegment vositalarda bu holat yaqqol ko'zga tashlanadi. Poetik matnda alliteratsiya, assonans, geminatsiya hodisalari ma'no kuchaytirishda alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, fonetik shakli o'zgarishda bo'lgan so'zlar, birinchidan, tilning tarixi bilan bog'liq holda tarixiy mavzudagi asarlarda o'tmishga xoslikni ifodalash maqsadi bilan, ikkinchidan, poetik matn tilining alohidaligini, o'ziga xosligini ta'minlash maqsadi bilan amal qiladi va ularga sof poetik shakllar deb qaraladi:

Kanglum, mendan bo'lak kiming bor sening,

kanglum, sendan boshqa mening kimim bor!

Ne desang deguvchi – yolg'izim mening,

ne aytsam aytguvchi – o'zing xokisor....

Poetik ifodani hosil qilishda poetik leksik birliklarning ma'no imkoniyati katta ahamiyatga egadir, chunki leksik birliklar borliqdagi narsa va hodisalarni nomlaydi, leksemalarda nominativlik bilan bir qatorda, konnotativlikni ham yuzaga chiqaradi. Mavjud tilning imkoniyatlarini birgina ko'p so'zlilikka ega bo'lish bilan baholab bo'lmaydi, buning uchun so'zlarning ma'no salmog'i, ko'lami e'tiborga olinadi. Poetik matnda so'z qo'llash va tanlash imkoniyati matnning boshqa turlaridan farq qiladi, ya'ni bunda sof poetik so'zlar tanlanadi. Ma'lumki, sinonimik qatordagi leksemalarning semantik miqyosi, emotsional-

³⁴ Umurqulov B. Poetik nutq leksikasi. -Toshkent: Fan,1990.

³⁵ Mirzayev I. Problemi lingvopoeticheskoy interpretatsii stixotvornogo teksta: Avtoref. diss. ...d-ra filol. nauk. - Toshkent, 1992.

ekspressivlik darajasi, stilistik o'rni e'tiborga olinadi. Ijodkor badiiy didga ma'qul bo'lgan variantni to'g'ri tanlasagina, mazmun badiiyat bilan mushtaraklikda bo'ladi. Masalan, ovoz, tovush, sado, un, sas, nido sinonimik qatorda eng ko'p sas, sado variantlari poetik matnga xos bo'lsa, qolganlari deyarli prozaik matn uchun xarakterlidir. Poetik matnda alohida tanlangan variantlar ba'zan qaytariqlarning oldini olish maqsadi bilan ham qo'llanadi:

Ko'nglimda tumanlar, umid bekordir,

Sog'inchlarim safro-so'nib bekordir.

*Na **umid**, na **sog'inch**, dunyo bekordir.*

Sen buni bilmaysan, bilmaysan erkam. ("Ruhimning qayg'usi", 24- bet)

Poetik morfologik birliklar ko'pincha ma'lum bir grammatik ma'noga ega bo'lgan so'z shakllarini qo'llashda yaqqol ko'rinadi, bo'yoqdorlikka ega grammatik sinonimlar yoki takror qo'llangan shakl yasovchilar stilistik qiymatga ega bo'lsa, affiksial morfemalarning tarixiy variantlari poetik matnni ifodalashda yetakchi sanalib, alohidalikni, xoslikni ko'rsatib turadi. O'zbek tilida bu affikslarning ko'pchiligi badiiylik uchun xizmat qiladi: *-m (bilmam), -ajak (aytajak), -gay (borgay), -mish (aytmish), -gil (ko'rgil)* kabi. Yoxud subyektiv baho formalarining noodatiy qo'llanishida estetik maqsad aniq namoyon bo'ladi:

Ruhimni qiymalab tashlaydi sitam,

Seni tushunolmay qolaman badir.

*Oh mening yagonam, **bag'ritoshginam**,*

***Bilmam** aybim **nadir**, xatoim **nadir**?! ("Ruhimning qayg'usi" 25-bet)*

Demak, poetik matn tanlangan, alohida sanaluvchi so'zlardan tuziladi, poetik axborot poetik ortiqchaliklar, poetik qisqartmalar, sof poetik ifodani talab qiladi. "Badiiy matnda boshqa uslub matnlarida bo'lganidek qat'iy mantiq, soddalik, tushunarliklik, normativlik kabi qonuniyatlarga to'la-to'kis amal qilinavermaydi. Unda badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalaniladi"³⁶. Tilning barcha sathlarida amal qiluvchi lisoniy tejamlilik va ortiqchalik tamoyili badiiy

³⁶ Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. -Toshkent: Fan, 2008. -B. 88.

matnning shakllanishida zaruriy vositalar sanalib, tejamlilik tilda “iqtisod qilish” natijasida yuzaga kelsa, ortiqchalik til birliklarini pleonastik qo‘llash orqali yuzaga keladi. Mazkur ikki tamoyildan badiiy matnda o‘quvchiga estetik ta’sir etish, konnotatsion ma’no ifodalash, shuningdek, ritmik-kompozitsion qurilishni shakllantirish maqsadi bilan foydalaniladi.

Magistrlik dissertatsiyada lisoniy tejamlilik va ortiqchalik tamoyillarining poetik matndagi o‘rni Ikrom Otamurod lirikasi misolida tahlil etildi.

Ma’lumki, badiiy asar til materialini keng planlilik asosida qamrab oladi. Ijodkor o‘z ona tilida mavjud shakllarni bayon etishda, avvalo, uning qo‘llanish o‘rni, tushunarligi, tuzilishi va tasirchanligiga diqqat qaratib, o‘quvchi uchun kerakli tasvir va tasavvurni yaratadi. Lingvopoetik tahlilda til vositalarining joylashish o‘rnini aniqlash muhim tamoyillardandir. Bunday vositalarning lingvistik va badiiy mohiyatini ochib berish orqali badiiy mazmunning shakllanish va ifodalanish mexanizmlarini aniq tasavvur qilish mumkin bo‘ladi.

2.1. Ikrom Otamurod poeziyasida lisoniy tejamlilik va ortiqchalikning o'rganilishi

XX asrning 30-yillaridayoq adabiy asarning g'oyasi bilan bog'liq emotsional ma'noni ifodalaydigan til vositalarini ko'rsatish matn lingvistik talqinining asosiy vazifasi ekanligi ta'kidlanadi. Ana shunday vositalarga shakliy-mazmuniy nomuvofiqlikdagi ikki tamoyil – lisoniy tejamlilik va ortiqchalikni kiritish mumkin, bu qonuniyatlar asosida fonotsion va estetik kuch mavjud bo'ladi. Shuningdek, bu ikki qarama-qarshi hodisaning tilda turli birliklarda qo'llanib kelishi til sathlarining barchasida mavjudligi bilan belgilanadi.

Tilshunoslar tomonidan “ongli iqtisod qilish”, “lingvistik iqtisod”, “ekonomiya prinsipi” “til ekonomiyasi” kabi terminlarning qo'llanishi tejamlilik tamoyilining mohiyatini belgilaydi. Tejamlilik biror til birligining belgisiz kelishi yoki fonetik qisqaruvi bilan yuzaga keladi, u keng tushuncha bo'lib, lisoniy taraqqiyotda muhim o'rin tutadi va tilda optimallikka intilish talabi bilan yuzaga keladi. Ixchamlikka, qulaylikka intilish til birliklarini tejashga, bu esa o'z o'rnida fonotsion energiyaning tejalishiga, so'zlash organlarining harakatini yengillatishga olib keladi. Poetik matnda bundan ko'zlangan maqsad esa vazn talabi hamda poetiklikni, xoslikni ta'minlash, emotsional-ekspressivlikni ifodalash sababidandir. Mazkur hodisa til taraqqiyotining omili hisoblanadimi?³⁷ degan fikrga “albatta”, deb javob berib, ushbu hodisaning poetik matndagi o'rni xususida fikr yuritmoqchimiz, chunki fonetik, leksik, grammatik unsumni uslubiy talab bilan tejash poetik matnda yetakchi sanaladi. Bu hodisa tilning qaysi sathida yuzaga kelganini hisobga olgan holda, uning stilistik funksiyasini belgilash mumkin. Ma'lumki, til ifoda va mazmun planiga ega, mazmun qamrovi ifoda hajmi yordami bilan namoyon bo'ladi, poetik matnda mazmun qamrovining keng ko'lamli bo'lishi maqsad etilgan holda, ifoda plani “ixcham, iloji boricha qisqa va qulay tuzilmalar orqali mazmunni ro'yobga chiqarishga intilishi tarzida namoyon bo'ladi”³⁸. Hatto M.Koshg'ariy “Devonu lug'otit turk” asarida tejamlilikning

³⁷ Ёўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. -Тошкент: Фан, 2008. -Б. 88.

³⁸Eltazarov J. So'z turkumlari paradigmasidagi o'zaro aloqa hamda ko'chish hollari. -T.: O'zME, 2006. -B.110.

fonetik ko‘rinishlari xalq tilida talaffuzni yengillatish maqsadi bilan amal qilishini ta’kidlagan. Bu, ikkinchidan, mehnat jarayoni bilan bog‘liq holda yuz bergan. Og‘zaki nutqda yengil, ixcham so‘zlashishga intilishni xalq maqollarida ham kuzatish mumkin: *Mard bir marta o‘lar, nomard yuz marta* maqolida ikkinchi gapdan kesim (*o‘lar*) tushirilgan, *mard* va *nomard* sifatlarining substantiv holati ham tejamlilikning bir ko‘rinishi sanaladi. Fikr ixcham, muxtasar, lo‘nda bayon etilganda ifoda aniq yo‘naltiriladi, tasvirning yorqinligi ta‘minlanadi, shu boisdan poetik matnda vazn hamda badiiy talabga ko‘ra qo‘llanadi.

Insonlarning o‘zaro muloqoti natijasida axborot uzatishning ikki turi – implitsit va eksplitsit ifoda yuzaga keladi. Ulardan birinchisi fikrni yashirin, yopiq; ikkinchisi aniq, ochiq ifodalashi bilan bir-biriga zid qo‘yiladi. Implitsit ifoda tejamlilik prinsipiga asoslanadi. Ba’zi o‘rinlarda implitsitlik va ellipsis hodisasi o‘rtasiga chegara qo‘yilmaydi, ya’ni ellipsis implitsit ifoda tarzida e’tirof etiladi. Biroq, elliptik qurilmalarda struktur plandan tushirilgan gap bo‘lagini osongina aniqlash mumkin, implitsit qurilmalar esa yakunlangan, tugallangan fikrga qo‘shimcha axborot uzatish, uni aniqlashtirish va kengaytirish uchun xizmat qiladi. Biroq har ikkala shakl ham nutqiy tejamlilikni ifodalaydi. *Jim qolish* usuli implitsit ifoda sanalib, fikr oxiriga ko‘p nuqta qo‘yish orqali mazmunni to‘liq anglash tinglovchi hukmiga havola qilinadi. Ellipsisga shakliy implitsit, jim qolish usuliga sof implitsit ifoda sifatida qarash to‘g‘riroq bo‘ladi.

Ortiqchalik termini “qo‘llash shart emas”, “keraksiz” degani emasligini ayrim tilshunoslar ta’kidlaydilar³⁹. Tilshunoslikda ortiqchalik atamasi ikki talqinga ega: 1) matnda hech qanday semantik yuk olmagan, ya’ni biror vazifa bajarmagan til birligi; 2) ortiqchalik atamasi adabiy meyorga nisbatan olinib, shartli ifodalanadi, ya’ni mavjud semantikaning turli til birliklarida takrorlanib ortiqcha ma’noga egalik qilishi. Ortiqcha deb hisoblanayotgan ma’no fakultativ yoki tavnologik xarakterda bo‘lmay, ma’lum konnotativ ma’no ifodalashga xoslangan bo‘ladi. Ortiqchalik, birinchidan, til birliklarida doimiy o‘ziga xoslik sifatida, ikkinchidan, uslubiy ortiqchalik sifatida tushuniladi. Biz tadqiqotimizda

³⁹ Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. -Toshkent: O‘zME, 2002. -B. 76.

ortiqchalikning ikkinchi xususiyatiga asoslandik. Ushbu termin rus tilidagi *избыточность*, ayrim Yevropa tillaridagi *pleonazm* terminlariga sinonim sifatida qoʻllangan, deb qarash maqsadga muvofiq boʻladi. Ortiqchalik deganda pleonazmning tavnologiyaga teng kelmagan holatlari nazarda tutildi. Tavnologiya nutqda “keraksiz” ortiqchalik sanalsa, pleonazm “zaruriy” ortiqchalik sanaladi. Pleonazmda “bir xil yoki sinonimik ifoda vositalarining, ya’ni til birliklarining semantik jihatdan takror (izbitochniy) holda boʻlishi”⁴⁰ mazmunni aniqlashtirish maqsadi bilan yuzaga keladi, ayrim hollarda stilistik figura sifatida badiiy mazmunni oshiradi. Pleonazm va tavnologiya hodisalarining yaqinligi ularning bir xil hodisa sifatida qaralishiga olib kelgan oʻrinlar mavjud, har qanday takror, xoh u qisqa boʻlsin, xoh u toʻliq boʻlsin, pleonazmga aloqador boʻladi, tavnologiya pleonazmning bir koʻrinishi boʻlib, unda biror soʻz oʻz shakliy xususiyatini saqlagan holda takrorlanadi, aksincha, pleonazm takrorga aloqador boʻlib, uning bir koʻrinishi sifatida qaraladi, tavnologiya esa pleonazmning bir turi, biroq unda soʻz shaklan takrorlanmay, mavjud fikr yangi informatsiyaga ega boʻlmagan holda, boshqa soʻzlar bilan takroran qoʻllanadi, ya’ni oʻrinsiz takror yuzaga keladi: *tirik jon, soʻz soʻzlamok* kabi. Aslan tavnologiya yunoncha tautologiya < tauto < aynan, oʻsha + logos - soʻz, ta’limot degan ma’noni beradi⁴¹, aynan soʻz deyilganda, bir xil ma’noga ega ikki soʻz anglashilib, ularning birikuvidan stilistik xoslanish kuzatilmaydi hamda ma’no aniqlashtirishga yordam bermaydi. N.Mahkamov pleonazmga jins tushunchasi, tavnologiyaga tur tushunchasi sifatida qarash toʻgʻriligini ta’kidlaydi⁴². Tavnologiya pleonastik qoʻllanishning bir turi boʻlib, takror qoʻllanayotgan ortiqcha til birligi hech qanday semantik vazifa bajarmasa, tavnologik qoʻllanish yuzaga keladi. Har qanday tavnologiyadan pleonazm yuzaga kelishi mumkin, aksincha, har qanday pleonastik qoʻllanishda tavnologiya amal qilmaydi, shu bois ular yaqin hodisalar sanaladi. Takror qoʻllanuvchi tovush, affiks, soʻz, soʻz birikmasi tamoman ortiqcha boʻlishi yoki ma’lum stilistik

⁴⁰ Mahkamov N. Adabiy norma va pleonazm. -Toshkent: Fan,1988. -B. 17.

⁴¹ Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati. -T.: OʻzME, 2002. -B. 101.

⁴² Mahkamov N. Koʻrsatilgan asar. -B. 9.

funksiya bajarishi mumkin, demak, pleonazm tavnologiya hodisasiga qaraganda kengroq tushunchadir.

Pleonazm takror soʻzlardan farqlanadi, takror soʻzlarda shakl takrorlansa, eʼtirof etganimizdek, pleonazmda mavjud maʼno uslubiy talab bilan qayta takrorlanadi. Takror soʻzlarda bir soʻz aynan takrorlanib, defis bilan ajratiladi, bir soʻzning ikki marta takrorlanishi oʻzaro tenglik munosabati bilan yuzaga keladi: *tez-tez, oʻylab-oʻylab* kabi. Yoki oddiy takror shaklida takrorlanuvchi elementlar vergul bilan ajratiladi, bunda maʼnoni kuchaytirish, intensivlikni, ekspressivlikni oshirish koʻzda tutiladi: *tez, tez yur* kabi. Takrorda umuman tobe munosabat ifodalanmaydi, *tez-tez yur* shaklida *tez-tez* harakatning davomiyligini koʻrsatsa, *tez, tez yur* tuzilishida harakat maʼnosini kuchaytirish kuzatiladi, demak, takroriy shakllarning formal tuzilishi semantik farqni yuzaga keltiradi. Pleonastik qoʻllanishda takrorlanayotgan shakllar stilistik farqni yuzaga keltiradi yoki takrorning biri butunlay ortiqcha boʻladi, shunga koʻra, takror soʻzlar grammatik shakl sanaladi, pleonazm esa stilistikaning obyekti hisoblanadi.

Lisoniy tabiatiga koʻra tejamlilik va ortiqchalikni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Fonetik tejamlilik va ortiqchalik.
2. Leksik tejamlilik va ortiqchalik.
3. Semantik ortiqchalik.
4. Morfologik (affiksial) tejamlilik va ortiqchalik.
5. Sintaktik tejamlilik va ortiqchalik.

Hozirga qadar oʻzbek tilining turli sathlarini oʻrganish boʻyicha koʻplab tadqiqotlar amalga oshirilib kelinmoqda, lisoniy birliklarni uslubiy nuqtai nazardan oʻrganish boʻyicha ham koʻplab yutuqlarga erishilgan, biroq tilimizda amal qiluvchi lisoniy tejamlilik va ortiqchalikni stilistik aspektda oʻrganish oʻz yechimini topgan emas.

M.Mirtojiyev tejamlilik tamoyilining leksik holatda mavjudligini eʼtirof etgan holda, tilda elliptik sinekdoxalar ifodaning ixchamlikka intilishi natijasida yuzaga kelishi, biri vositasida ikkinchisini tushunish mumkinligi, bu kabi elliptik

sinekdoxalar ot, sifat, fe'l turkumiga oid soʻzlar doirasida uchrashi haqida soʻz yuritadi⁴³. I.Shukurov qaratqich-qaralmish, sifatlovchi-sifatlanmish tipli birikmalarda komponentlardan birining tushishi hisobiga elliptik metonimiyalarning yuzaga kelishini taʼkidlab⁴⁴, masalan, birikmaning qaratqichi belgisiz qoʻllanganda, uning qaralmishi ellipsisga uchrashi mumkin, deydi va *Sharq (xalqi), majlis (ahli)* kabi semantik yaxlitlangan shakllarni qaratqich-qaralmish tipli birikmalar deb koʻrsatadi. Biroq birinchi komponentda qaratqich kelishigini tiklab boʻlmaydi, maʼno gʻalizlashadi: *Sharqning xalqi, majlisning ahli* kabi. Demak, bunda birinchi komponent bosh kelishikda va metonimiya nisbatan keyin semantik yaxlitlangan turgʻun birikmada yuzaga keltirilgan.

N.Mahkamov tejamlilikning terminologiyada amal qilishini, natijada terminlar aniq va qisqa boʻlishini, buning uchun termin tarkibidagi affiksni chiqarib tashlash yoki kontekstdan oson anglashilib turgan elementni tushirish mumkinligi xususida fikr yuritadi⁴⁵.

M.Misliddinova M.Koshgʻariyning xalq ogʻzaki nutqida soʻz ichida ikki bir xil tovush kelgan paytda uning biri qisqarishi yoki singarmonizm hodisasi yoxud talaffuz qulayligini taʼminlash maqsadida soʻz oʻrtasidagi biror tovushni tushirish talaffuzni yengillatish maqsadi bilan yuzaga kelishini koʻrsatganligini taʼkidlaydi⁴⁶. M.Turobova esa gapning formal-sruktural xususiyatlarini belgilashda tejamlilik tamoyilining soʻzlashuv nutqidagi oʻrnini, kommunikatsiyada informatsiyaga ziyon yetkazmagan holda kam kuch sarf etishga intilish mumkinligini sintaktik tejamlilik misolida tahlil etadi⁴⁷. Yuqorida taʼkid etganimizdek, tejamlilikning deyarli barcha koʻrinishlari soʻzlashuv nutqida mavjud, negaki suhbatdosh va tinglovchi replikasida mimika, jest, vaziyat yetakchi boʻladi.

⁴³ Mirtojiev M. Oʻzbek tilida ellipsis natijasida sinekdoxaning sodir boʻlishi // Oʻzbek tilshunosligi masalalari. 475-chiqishi. -T., 1975. -B. 59-67.

⁴⁴ Shukurov I. Ellipsis sababli otlarda nutqiy metonimiyalar sodir boʻlishi // Oʻzbek tili va adabiyoti. -Toshkent, 1982. -№3. -B. 44-46.

⁴⁵ Mahkamov N. Terminologiyada “ekonomiya prinsipi” // Oʻzbek tili terminologiyasi va uning taraqqiyot perspektivalari: I Respublika terminologiya konferensiyasi materiallari. -T., 1986. (byulleten OʻzR FA). -B. 49-50.

⁴⁶ Misliddinova M. Talaffuzdagi tejamlilik // Oʻzbek tili va adabiyoti. -Toshkent, 2005. -№5. -B. 80-83.

⁴⁷ Turobova M. Sintaktik tejamlilik hodisasi // Oʻzbek tili va adabiyoti. -Toshkent, 2006. -№5. -B. 79-83.

O'zbek tilshunosligida tejamlilik tamoyili yuzasidan dastlabki tadqiqotlar XX asrning 70-yillarida vujudga kelgan. A.Nurmonov kommunikatsiya jarayonida fonetik birliklarda yuzaga kelgan qisqarishga nisbatan "ekonomiya" (tejamlilik) termini qo'llanganligini va uning anlautlarda, urg'usiz bo'g'inlarda, shuningdek, tovush tushishi bilan aloqador hodisalarda yuzaga chiqishini ko'rsatgan holda, turkiy tillar bilan qiyosan tarixiy-geneologik aspektda o'rgangan⁴⁸. Masalan, olim hozirda adabiy meyor sanalgan ayrim so'zlarni tarixiy fonetik tuzilishi bilan muqoyasa etib, ikkinchi ochiq bo'g'indagi tor unlining tushishi natijasida hozirgi o'zbek tilidagi ko'pgina so'zlar morfologik qayta bo'linmaydigan bo'lib qolganligini asoslab ko'rsatadi: y a p r a q - y a p u r + g' a q (qadimgi turkiy tilda y a p u r g' a q) "barg", s i x t a - s i g' i + t a "plakat" ... kabi.

O'zbek tilshunosligida R.Qo'ng'urov til faktlarining qabatlangan holda ishlatilish holatlari uchrab turishining sabablarini keltirib, nutqdagi ortiqchalik natijasida hosil bo'luvchi pleonazmning fonetik, morfologik, sintaktik va leksik ko'rinishlarini farqlash lozimligini ta'kidlaydi⁴⁹.

N.Mahkamov pleonazmning affiksial, leksik affiksial ko'rinishlarini monografik planda tadqiq etib, bu hodisa stilistikada o'rganilishi kerakligini uning stilistik funksiya bajarishga xoslangani bilan belgilaydi⁵⁰. Shuningdek, olim terminologiyada dublet hisobiga ortiqchalikning yuzaga kelishini salbiy hodisa sifatida ko'rsatadi va tilshunoslikda mavjud *semantik ma'no*, *tavtologik takror* kabi qo'llanishlarga qo'shtirnoq ichidagi ortiqchalik sifatida qaragan.

Ortiqchalik semantik-stilistik xususiyatlarni yorqin ifodalaydi, tilda aniqlikka intilinar ekan, nutqiy ortiqchalik vujudga kelishi tabiiy. Shuningdek, zid uzvli bo'lishiga qaramasdan lisoniy tejamlilik va ortiqchalik shu darajada o'zaro uzviy bog'langanki, ulardan birini ikkinchisidan ajratib o'rganish mumkin emas, biri xususida fikr yuritilgan o'rinlarda, ikkinchisiga to'xtalmasdan bo'lmaydi. Shu ma'noda, N.Mahkamov har bir til birligi muayyan shakl va ma'noga ega bo'lsa-da,

⁴⁸ Nurmanov A. Prinsipi ekonomii v foneticheskix izmeneniyax uzbekskogo yazika: Avtoref. diss. ...kand. filol. nauk. -T., 1973.

⁴⁹ Qo'ng'urov R. Subyektiv baho formalarining semantik va stilistik xususiyatlari. -T.: Fan, 1981. -B. 146-160.

⁵⁰ Mahkamov N. Affiksialniy i leksiko-affiksialniy pleonazm v uzbekskom yazike: Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. -T., 1983.

ularning o'zaro munosabati o'rtasida ko'pincha nomutanosiblik (asimmetriya) mavjud bo'lishini ortiqchalik va tejamlilik zidlanishida ko'rib o'tgan⁵¹. Olim qonun matni(rasmiy uslub)da uchrovchi ortiqcha elementlarni ixchamlashtirish zarurligini, ularda tejamlilik asosiy mezonlardan biri hisoblanishi kerakligini ortiqcha elementlarni ko'rsatgan holda tahlil etadi⁵², shuningdek, termin(ilmiy uslub)lardagi ortiqchaliklar va ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatgan⁵³.

Mazkur tadqiqotda poeziyada lisoniy tejamlilik va ortiqchalik tamoyilining stilistik, emotsional-ekspressiv vazifa ifodalashdagi o'rni Ikrom Otamurod lirikasi misolida tadqiq etildi.

2.2. Ikrom Otamurod poeziyasida fonetik tejamlilikning ifodalanishi

Konnotativ ma'no boshqa til birliklariga nisbatan fonetik vositalarda kuchli ifodalanadi, chunki tovushlar "nutqda qo'llanilishi jihatidan o'ziga xosliklarga ega"⁵⁴. Poetik matnda tovushlarning evfonik xususiyatlari yetakchi sanalib, bu xususiyatlar tovushlarni so'z tarkibidan tushirish yoki orttirilgan holda ortiqcha qo'llashda ham ko'zga tashlanadi.

So'zdan ayrim tovushlarni yoki bo'g'inlarni tushirish, ya'ni so'zni qisqartirish bilan fonetik tejamlilik yuzaga keladi. Poetik matnda so'zning fonetik qiyofasiga alohida e'tibor beriladi. Vazn talabi, ohang bilan bog'liq ayrim noqulayliklarning oldini olish maqsadida talaffuz qulayligiga intilish fonetik tejamlilikni yuzaga keltiradi. Buning natijasida misra bo'g'inlarini tenglashtirish, musiqiylikni ta'minlash hamda uslubiy ravonlikni yuzaga keltirish hamda konnotativ ma'no ifodalash maqsad qilinadi. Demak, tovushlar nutqiy ehtiyojlarimizni qondirish bilan birga, emotsional-ekspressiv vazifa ham bajaradi.

Poetik matnda asosning shakliy tomonini tejashga intilish ko'proq so'roq olmoshlarida yuz beradi. *Nima* so'roq olmoshining she'riyatda ko'pincha *ne, na* arxaik shaklda qo'llanilishi alohidalik, xoslikni ifodalaydi:

⁵¹ Mahkamov N. Lisoniy ortiqchalik va tejamlilik natijasida vujudga kelgan desemantizatsiya // O'zbek tili va adabiyoti. -T.,2002. -№2. -B.25-28.

⁵² Mahkamov N. Qonun ijodkorligida lisoniy ortiqchalik va tejamlilik // O'zbek tili va adabiyoti. -Toshkent, 2003. -№ 6. -B. 77-79.

⁵³ Mahkamov N. Terminologiyada ortiqchalik va tejamlilik prinsiplari // Filologiya masalalari: Ilmiy maqolalar to'plami. -Toshkent: O'zDJTU, 2006. -№1. -B. 55-57.

⁵⁴ Mirtojiyev M. O'zbek tili fonetikasi. -T.: ToshDU, 1998. -B. 5.

Ruhimning iqlimida yotgan
Ne sinoat, ne sir, ne siyo?! (Zarjirsaroy. 23 b)

Yoki

Muruvvating nadur,
Xusumating nadur?
Oqibating nadur,
Qabohating nadur?
Ijobating nadur,
Kasorating nadur? (Yo'l)

Yoki

Men qarshingda turibman dalli,
Na deb, kanglung ko'taray, bilmam?
Na deb, senga beray tasalli:
Munisam, mutribam, mushfiqam?! (I.Otamurod)

Olmoshlarga xos bu kabi arxaik shakllarni hozirgi variantlari bilan qiyosan olsak, ular endilikda fonetik tejamlilikka xizmat qiladi, degan fikrimiz xato bo'lmaydi, ya'ni hozirda fonetik qisqaruv deb sanaluvchi so'zlarning ayrimlari tarixan shunday tuzilishda ifodalangan. Masalan, *ne* shaklida talaffuzning xushohangligi, so'zlovchining hissiyoti kuchliroq ifodalanadi va kelishik qo'shimchalarini belgisiz olganda, ham fonetik, ham morfologik tejamlilik yuzaga keladi:

Kanglum, mendan bo'lak kimning bor sening,
Kanglum, sendan boshqa mening kimim bor?
Ne desam, deguvchi, yolg'izim mening,
Ne aytsang, aytguvchi, o'zing xokisor!

Bu o'rinda vositasiz to'ldiruvchi vazifasidagi *ne* olmoshi nimani tipida bo'lib, misrada ikki bo'g'in tejalgan: *ne desam* - *nimani desam*, *ne aytsam* – *nimani aytsam* kabi. Shuningdek, *ne* shakli tushum kelishigining *-n* poetik varianti bilan kelgan o'rinlarda ham ikki bo'g'in tejalib, ohang ravonlashadi:

Qush malul, sukut ichinda,

izlaydi **nenidir**,

negadir intiq,

sog'inib?!

Yoki,

Yomg'irda ketayotgan odam

Kangulga bulutlar botgan

*U **nenidir** topadi, qaydam,*

*U **nenidir** yo 'qotgan?! ("Ichkari...Tashqari")*

Tilning turli sathlarida mavjud tejamlilik yonma-yon qo'llanganda, talaffuzning ixchamlashuvini, ravon ohangni ko'rish mumkin, fonetik hamda morfologik tejamlilikning baravar kelishi birdan ortiq bo'g'inning qisqarishiga olib keladi. Masalan, bir o'rinda uch bo'g'in tejalgan:

***Neki**, ruju qo'ysa o'zin ko'rsatishga, bas,*

*Demak, unda pindig'lagay **nedandir** gumon.*

Nima olmoshi fonetik qisqartirilganda ayrim so'roq olmoshlarining semantikasini ifodalaydi. So'zdan tovushning tushirilishi yangi ma'noning hosil bo'lishiga olib keladi. Masalan, *qancha* olmoshi o'rnida *ne* shakli uning leksik xususiyatini aks ettirgan holda keladi:

***Ne** ulug' tarixlar kechdi boshingdan.*

Ne ulug' tarixlar - *qancha* ulug' tarixlar kabi. Yoki *qancha* olmoshi o'rnida *ne* shakli takror qo'llanganda ohangdorlik yuzaga kelib, noaniq miqdor ma'nosi kuchaytiriladi:

...Kanglum,

birgina senideb yashadim,

yashading sen ham birgina meni deb.

*Vaqt holimga **ne-ne** g'amlar to'shadi,*

kanglum,

g'amlarim sidirding g'amim yeb.

Qancha-qancha g'amlar birikmasi o'rnida *ne-ne g'amlar* shaklining qo'llanishidan talaffuzning ixchamlashishi nazarda tutiladi. Poetik matnda *ne-ne* tarzida qo'llash ancha faol, bu orqali qo'shimcha bo'yoq, rezonator (aks-sado), bir xil shaklning takrorlanishidan eshitib ta'sirlanish kuzatiladi:

*Narx navosinda gangib,
dovdirab,
ne-ne muyulishu burilishlardan
ilinjarin yo'rg'alatib,
hovliqib,
shoshar bozorlarga xil-xil nimadir... ("O'rin" dostoni)*

Ne shakli bir misrada ham takrorlanib, ham yakka qo'llanganda, talaffuzni yengillatib, misraning ixchamligini taminlab qolmasdan, poetik musiqiylikni ham ifodalaydi: ***ne-ne** muyulishu burilishlardan* o'rnida *qancha-qancha muyulishu burilishlardan* kabi qo'llanganda, bo'g'in miqdori ortib vazn talabi, ohang buzilishidan nutqiy g'alizlik yuzaga kelishi mumkin bo'lar edi. Mazmun va shakl o'zaro mutanosib tushunchalardir, shakl mazmun talabi bilan yuzaga kelib uni reallashtiradi, masalan, so'zlar fonetik qisqartirilganda hosil bo'lgan evfoniya emotsional-ekspressivlikni ta'minlaydi.

Ne shakli poetik matnda *qanday* olmoshini ham ifodalaydi. Bir misrada *ne* shakli yonma-yon kelib, *nima* hamda *qanday* olmoshini omonimik tarzda ifodalaganda, nutqiy qulaylik yuzaga keladi:

*Shunday boshlangaydir, aslida, bot-bot,
shunday boshlangaydir, aslida, bari,
bandani **ne** ishkalu
ne mushkulot
ko'yga solib qo'ygan muammolari... ("Huviyyat" dostoni)*

Yoki

*Ochunda tog'lar mo'l, qad rostlab mag'rur,
Shoyon qilmoq istar tosh-kepalarin.
Ne tong,*

Goh,
Tog'lardan-da balandroq durur,
nurayotgan...

...Qashqadayro tepalari...

Ne shakli qanday olmoshi o'rnida kelganda, ko'pincha mavhum otlarga birikadi. Bu ixcham shakl misrada ritorik xitobning kuchayganligini ko'rsatadi, fonetik tejamlilikning bu kabi joylashuvi nutqda ixchamlilik bilan birga, ekspressivlikni ifodalaydi:

Bu – **ne** hayronlig'kim, qolaman qotib,

Oldinga o'tkazib berasan yo'ling. ("Ruhimning qayg'usi" 16-b.)

Shoir bir o'rinda nima qilsin so'zining og'zaki nutqqa xos netsin qisqargan shaklini badiiylikka putur yetkazmasdan qo'llay olgan:

Sukutga in qo'ymoq qushning murodi,

taniga sukutni singdirmoq ayon,

netsinkim,

sukutni siltab surodi,

subutsiz shovqinlar xohlasa,

qayon?! ("Qush" dostoni)

Poetik matnda ravish tipidagi nima uchun olmoshi eng ko'p ne uchun, nechun, neki variantlari bilan qo'llanadi va ta'kid ma'nosi aniq ifodalanadi:

Neki, ruju qo'ysa o'zin ko'rsatishga, bas,

Demak, unda pindig'lagay **nedandir** gumon. ...("Huviyyat" dostoni)

Yoki:

Nedur, xotirlarga nigoron boqib,

Hedyp, sog'inchlarni titaman sekin. ("Sen", Tufroqqa...)

Nima uchun olmoshi nega, nimaga kabi shakllar bilan sinonim munosabatda bo'ladi:

...Dilga yo'llaguvchi nimadir

...**Negakim,**

dilga yo'llaguvchi nimadir

payvand bo‘lib fahm sifatlariga:

haqlikka,

sobitlikka,

e’tiqodga

ixlosning tub tomiri bilan yo‘llar.. (“O‘rin” dostoni)

Yoki

O‘zi nasib etgan tunning chirog‘i – oy

Suzib borar, cho‘mib borar falakda:

nelargadir qoldiriblar firog‘in,

nelargadir ro‘y ko‘rsatar tilikda... (“O‘rin” dostoni)

“Tag‘azzul” dostonida bu so‘zlarning shevalarda qo‘llanuvchi *naylayin* varianti personaj nutqida keltirilib, so‘zning ta’sir kuchini oshirish uchun qo‘llangan:

Naylayin, oh, be choraman,

Bor-yo‘g‘i zor, bechora man.

Avval, oxir be chora man.

Avval, oxir...

Demak, fonetik tejamlilik orqali ayrim olmoshlarning qo‘llanish imkoniyatlarini ko‘rish mumkin ekan. Ma’lumki, *qaysi* olmoshi tarkibidagi *-si* egalik affiksi “qotib qolgan”⁵⁵, poetik matnda *qay* arxaik o‘zagi bilan qo‘llash uslub talabiga ko‘radir:

Hayron-hayron qoladi.

Cho‘chib,

Nimadir ich-etini tirnar.

Qay kimsalar aldovga uchib,

Qay kimsalar aldovni o‘ynar. (“O‘rin” dostoni)

Misralarda *qay* shakli ko‘pincha o‘rin manosi anglatuvchi *qayer* olmoshini ifodalaganda jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish kelishiklari bilan qo‘llanadi:

...**Qachondir**, **qaydadir** ixtiyorini

⁵⁵ Ўзбек тили грамматикаси. I жилд. - Т.: Фан, 1975. - Б. 348.

nafsga berib qo'ygan odam demishkim...

yoki

*Oftobning qahrini **qaydan** ham bilar,*

Soyaki yerlarda o'sgan xo'rozqand?!

Qay shakli qanday olmoshini ifodalaganda (*qay ahvolga - qanday ahvolga* kabi), ohangning ravonlashishi kuzatiladi:

*Kunning **qay** paytida,*

*tunning **qay** payti...*

(Sen. 32-bet)

Istalgan soʻzning tarkibini oʻzgartirib boʻlmaydi, tovushlar buzib yoki chala talaffuz qilinganda, soʻzlarning maʼnosi buzilib, taʼsirchanligiga putur yetadi. Tovushlarni doimiy ravishda fikrdan ayri olib boʻlmaydi, fikr tovush bilan bogʻliq holda voqelanadi, tovushning qanday tovush bilan yondosh kelishi, tovush miqdorining kam yoki orttirilgan holda ifodalanishi uslubiy omillar bilan chambarchas bogʻliqdir. “Talaffuz qulayligiga intilish tufayli nutq jarayonida soʻzdagi tovushlar zanjirida turli fonetik oʻzgarishlar roʻy beradi”⁵⁶. Maʼlumki, fuziyaning ayrim koʻrinishlari fonetik tejamlilik asosida roʻyobga chiqib, bu shakllar poetik matnda ham ifodalanadi. Bu hodisa til sathida mavjud boʻlgan meyoriy fuziya hamda shevalarda kuzatiladigan nomeyoriy fuziya kabi ikki koʻrinishga ajratiladi⁵⁷. Fonetik tejashning dastlabki koʻrinishlari oʻzbek tilida fuziyaning yuzaga chiqishiga sabab boʻlgan: *kichkina=kichik+ gina* kabi. Poetik matnda fonetik tejamlilikni ifodalash maqsadida ijodkor nomeyoriy fuziyani qoʻllaydi, bunday oʻzgarishlardan “sherlarda oʻlchovni toʻgʻrilash uchun”⁵⁸ foydalaniladi. Masalan, *boʻlsa-da* soʻzida birinchi boʻgʻindagi (l) diyerezaga uchraganda (*boʻsa-da* tarzida):

Hov safarga hirs qo'yib, shovqinlar

Bagʻrida karaxt, alang-jalang,

Toʻrt tomonga farqsiz ketayotgan odam,

⁵⁶ Mamatov J. Reduksiya bilan bogʻliq yondosh hodisalar // Oʻzbek tili va adabiyoti. -T., 2008. -№4. - B. 61.

⁵⁷ Rahimov A.U. Fuziya lisoniy tipini kvantitativ va sinergetik yondashuv asosida tadqiq etish (oʻzbek tili misolida): Filol.fanlari nomzodi diss. ... avtoref. -Toshkent, 2009. - B.12.

⁵⁸ Gʻulomov A., Tixonov A., Qoʻngʻurov R. Oʻzbek tili morfem lugʻati. -T.: Oʻqituvchi, 1977. -B. 367.

... bir fursat **bo'sa-da** kangulga kirib,

Unga safar qilib, tinglaganmisan?!

Bu o'rinda **bo'sa** so'zi fonetik tejamlilik uchragan. Fonetik tarkibda poetik talabga ko'ra yuzaga kelgan o'zgarishdan ohangni ravonlashtirish ham maqsad etilgan. Shuningdek, *turgisi kelmay* birikmasining *turgsi kelmay* shaklida qo'llanishi og'zaki nutqqa yaqinlashish, talaffuz qulayligiga ko'radir:

Yotni pesh bilidi tug'ishganidan,

*O'zining uyida **turgsi kelmay**,*

Afzal sanar birov xarobasini...

Yoki meyoriy fuziya natijasida bir fonemaning ikki morfema tarkibida umumiy bo'lib qolishidan talaffuz qulayligi yuzaga chiqadi:

Ne tong, o'z tomirdosh, jonu jigarim,

Qarindosh urug'u, bo'la-bo'lukni,

Aylanib, sal ko'zdan yitdi deguncha,

*Qolganin gij-gijlar **ketotganiga**.*

Bu o'rinda ketotganiga - ketayotganiga so'zida yonma-yon kelgan bir xil tovushlar y o ning "singishuv"ini kuzatish mumkin. Fonetik hodisa sanaluvchi *eliziya*da unli tovush bilan tugagan so'zga unli bilan boshlangan so'zning birikishi natijasida bir unli tovushning tushishi kuzatiladi, fuziya natijasida ikki so'zning o'zaro qushiluvi bilan yuzaga kelgan o'zgarishlar fonetik tejamlilikka mos keladi. Misrada ketma-ket eliziyaning ikki ko'rinishi qo'llanganda o'ta ixchamlik yuzaga keladi:

*Ikkimiz hech qachon **bo'lolmaymiz** do'st. ("Sen", 16-bet)*

Yoki *ola olarkan* fe'lida har ikkala so'zning boshida lablanmagan, orqa qator, keng unli o tovushi talaffuz etilganda noqulaylik kuzatiladi, natijada fuziya talaffuzda yuzaga keluvchi noqulaylikka barham berish talabi bilan eliziya ko'rinishida amal qiladi:

*Sust qotibtinglaysan, **o'nglolmay** hushni,*

Uzoqning gapidan qo'rqasan yomon. ("Sen", Uzoqning...)

O'zbek tilida fuziya ko'rinishlari fonetik tejamlilikka ko'ra yuzaga chiqadi, masalan, bo'la olmaymiz fe'lida har ikkala so'zning boshida lablashmagan, orqa qator, keng unli – o tovushi talaffuz etilganda noqulaylik kuzatiladi, natijada fuziya talaffuz qulayligi nuqtai nazaridan eliziya ko'rinishida amal qiladi:

*Ikkimiz hech qachon **bo'lolmaymiz** do'st.*

Shu bo'ldi...

(Sen, 8-bet)

Shoir misralarda ko'proq kesimlikni kesimlik shakllari bilan emas, ohang orqali ifodalash usulidan foydalanadi:

*Seni ko'rsam dildan armon **ketguvsi**,*

*Sargardon **bitguvsi**, sarson **bitguvsi***

*Shabiston **yetguvsi**, sha'bon yetguvsi,*

Mening shohim, mening ohim, mening mohim

Ya'ni *ketguvsi, bitguvsi, yetguvsi* kabi so'zshakllarda -dir bog'lamasi ohang yordamida ifodalangan.

She'riy matn talabiga ko'ra ijodkor *mabodo* shart bog'lovchisini *mabod* shaklida ham qo'llaydi:

*Sog'inchimni so'ylasam **mabod**,*

sog'inib ketasan suygulim.

(Sen, 8-bet)

Yetakchi va ko'makchi fe'llar birikuvi – harakat tarzi shakllarida ravishdosh shakllarining fonetik jihatdan tejalishi o'ziga xos badiiylikka ega:

Kanglumga bir ufun yugurdi,

armonlarim sirildi – shaydo.

***Anglolmadim men-da** bu sirni,*

huvaydo, huvaydo, huvaydo...

(Sen, 35-bet)

Bu holat shakllar misra oxirida qofiyani yuzaga keltirganda ham yaqqol ko'rinadi:

*Bahor keldi mana qishdan **chiqoldik**,*

Bergan rizq-ro'ziga ne'matga sharaf.

*Tog'dayin zahmatni oxir **yiqoldik**,*

Tabiatga sharaf, himmatga sharaf. (II, 200)

Analitik shaklning har bir komponenti bu qo‘shilishda ayrim so‘zlik holatidan farqlanishga va boshqa xususiyatlariga qaramay, leksemalik shaklini saqlab turadi.

To‘liqsiz fe’llar fe’l shakllari bilan birikkanda asosiy fe’l formasiga xos ma’no ma’lum darajada saqlanishi mumkin, “lekin umumiy ma’no asosiy fe’l formasi bilan to‘liqsiz fe’l formasi ma’nosining oddiy arifmetik yig‘indisidan iborat bo‘lmaydi”⁵⁹. Shuning uchun ham ma’lum shakllar doirasida to‘liqsiz fe’lni tushirib bo‘lmaydi yoki tushirish mumkin bo‘lgan hollarda ham ma’no butunlay o‘zgarib ketadi. To‘liqsiz fe’llarda tor unli (e) noturg‘un⁶⁰ bo‘lib, shart maylidagi tuslangan fe’llarga birikkanda “y” tovushiga o‘tishi mumkin, natijada tuslovchi affiks qisqargan to‘liqsiz fe’lga ko‘chadi:

*Sen dedingki, **bo‘lsaydim** yulduz. (Sen, 40-bet)*

Analitik shakldagi mustaqil so‘z+yordamchi so‘z qolipida eliziya ta’siri bilan ayrim tovushlarni tushirib qoldirish ko‘pincha ikkinchi komponent ekan fe’li bo‘lganda meyoriy fuziyani yuzaga keltiradi:

*Ishi **yurisharkan** qitmir odamning. (Sen,34-bet)*

Emas to‘liqsiz fe’li fe’ldan boshqa turkumdagi so‘zlarga birikkanda ham ikki so‘z o‘rtasida tushib qoladi, natijada urg‘u ko‘chib talaffuz ravonlashadi. Ba’zan bu qulaylikni ta’minlash maqsadida bir misrada to‘liqsiz fe’lning fe’l va ot turkumidagi so‘zlarga qo‘shilgan ikkala shaklida ham eliziyani kuzatish mumkin:

***Ayriliqmas**, visol **kuylab qolsaydim** g‘amda. (I, 92)*

Adabiy til umumiy meyorlardan, qonun-qoidalaridan tashqari chiqmasa-da, badiiy tilda bunday qonun-qoidalaridan chekinish hollari tez-tez ko‘zga tashlanadi. Ba’zan poetik matnda xalqona ohanglarni yorqin ifodalash maqsadi bilan og‘zaki nutq shakllari nomeyoriy fuziya ko‘rinishida amal qiladi:

Borliqning

nimaiki, dami ichida

⁵⁹ Hojiyev A. Fe’l. - T.: Fan, 1973. -B. 58.

⁶⁰ Hojiyev A. To‘liqsiz fe’l. -T.: Fan, 1980. -B. 14.

*shundan,
sasi guvillab
borgan sari
asabni egovlar duch kelgan ko'chada
moshinlarning noxush qichqiriqlari. (Qush. Doston)*

Moshin kabi soʻzlarda soʻz oxiridagi tovushning tushirilishi apokopa hodisasi sanalib, apokopa, asosan, oʻzlashgan soʻzlarda *a* keng unlisining tushishi bilan roʻy beradi, ularning bunday qoʻllanishi “oʻzbekning talaffuzida birmuncha qulaylik – ixchamlik tugʻdiradi”⁶¹. Maʼlumki, oʻzbek tilida urgʻu soʻzning oxirgi boʻgʻiniga tushadi, bu kabi soʻzlarda *a* unlisi urgʻuli boʻgʻindan keyin joylashadi, apokopa hodisasi natijasida talaffuz moslashtiriladi.

Sahifa soʻzida sinkopa hodisasiga binoan *i* tor unlisi tushib *sahfa* шаклида qoʻllanganda, urgʻu birinchi boʻgʻinga koʻchadi va bu shakl misrada takror kelganda ohang tezlashib, taʼkidni yuzaga keltiradi:

*Bir **sahfa** shodligu, bir **sahfa** zahmat. (I, 230)*

Yordamchi soʻz turkumlari – bogʻlovchi, yuklama, koʻmakchilarning poetik matnda qisqargan holda qoʻllanishiga fonetik tejamlilik sifatida qaraldi. Bu shakllarga, birinchidan, tilning tarixi bilan bogʻliq holda, ikkinchidan, sheʼriy ifodada sof poetik shakl sifatida qarash mavjud. Yordamchi soʻz tarkibidagi tovushni iqtisod qilishdan – fonetik qisqargan holda qoʻllashdan konnotativ maʼno boʻlmasligi mumkin, biroq poetik til oʻziga xoslikni, alohidalikni yoqtiradi. Nainki mustaqil soʻz turkumlari, balki yordamchi soʻz turkumlari ham uslub talabi bilan matndan tushirilishi yoki fonetik qisqargan shaklda kelishi mumkin. Eʼtibor berilsa, har qanday fonetik tejamlilikda vazn oʻlchoviga, uslubiy talabga muvofiqlik mavjud. Yordamchi soʻzlarda mustaqil soʻzlardan farqli oʻlaroq, bir tovush emas, asosan tovushlar moddiy ifodalanmaydi. Maʼlumki, eski oʻzbek tilida ham *lekin* bogʻlovchisining *lek* varianti, *agar* bogʻlovchisining *gar* varianti mavjud boʻlgan, biroq oʻsha davrlarda ham ikkinchi variant poetik shakl sanalgan:

⁶¹ Mamatov J. Reduksiya bilan bogʻliq yondosh hodisalar // Oʻzbek tili va adabiyoti. -T., 2008. -№4. -B. 63.

*Qarab ezilaman, sezaman bir mung,
Sadoqatning vayron binolariga.
Lek, sadoqat yashar! –
Hayqiraman so‘ng,*

Shuningdek,

*Kangul rishtalari tob tashlasa gar,
Gardun mehvariga darz ketar sar-sar. (“Sen”, 13- bet)*

Eski o‘zbek tilida *bilan* ko‘makchisining *birla* (*birlan, bila, bilan*)⁶² variantlari mavjud bo‘lib, hozirda *birla, birlan, bila* variantlari poetik til uchun xos bo‘lib qolgan. Poetik matnda fonetik qisqargan quyidagi shakllar bilan ham kela oladi: *Ila* shakli bo‘g‘in miqdoriga ta’sir etmasa-da, evfoniklikka, poetiklikka ega:

*...Qiziqqonlik – g‘alat sira, g‘alat hol,
Qiziqqonlik **ila** paydo har g‘udra, (“Huviyyat” dostoni)*

-la shaklida birmuncha ixchamlik ham bo‘g‘in tejalishi, ham talaffuz qulayligi mavjud bo‘ladi:

*Sog‘inch yamog‘i-**la** yamayman,
Sog‘inch yirtgan qafasin (“Sen”, 17-bet)*

Uchun ko‘makchisi *-chun* shaklida qo‘llanib, she’riy ifoda badiiyligini oshiradi, bunday chog‘da *-chun* ko‘makchisi ot, olmosh, shuningdek, harakat nomi va *-sin, -lik* affikslari bilan tugagan so‘zlardan keyin keladi:

*Sezmoq **chun** ularni takror,
O‘qiyman uch nuqtalarini... (“Sen” 71-bet)*

Demak, tovush yoki tovushlar birikmasining tushirilishi fonetik tejamlilik sanalib, poetik matnda ayrim so‘roq olmoshlari fonetik qisqarib talaffuzni ixchamlashtiradi, vazn talabiga muvofiq bo‘g‘inlar tengligini saqlashga, boshqa bir so‘roq olmoshlarining semantikasini egallagan holda stilistik vazifa bajarishga xoslanadi.

⁶² Ashirboyev S., Azimov I. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. -T.: TDPU, 2002. -B. 88.

2.3. Poetik matnda fonetik ortiqchalikning uslubiy xususiyatlari

Ortiqchalik tamoyilining boshqa ko‘rinishlariga nisbatan shartli ravishda so‘zda biror tovushni orttirib qo‘llashga fonetik ortiqchalik deb qaraldi, tovush orttirib so‘zning fonetik qiyofasini o‘zgartirish turli ma’no nozikliklariga ega, shuningdek, tovush so‘zning qaysi o‘rnida ortiqcha qo‘llanmasin, fonetik ortiqchalikning barcha ko‘rinishlarida konnotativlik namoyon bo‘ladi. Fonostilistik jihatdan bir so‘zdagi unli tovushlarni uning turli bo‘g‘inlarida cho‘zib talaffuz qilinishi ham ahamiyatlidir. Matndagi konnotativ ma’no, ayniqsa, bir so‘zdagi unli yoki undosh tovushlar takrorlanib talaffuz qilinganda yanada kuchliroq ifodalanadi. Poetik matnda ko‘pincha undosh tovushlarni orttirib qo‘llash orqali evfoniya - ohangdorlik yuzaga keladi.

Malumki, qo‘sh undoshlar, yani bir xil undoshli holatning yuzaga kelishi geminatalar nomi bilan yuritiladi. Geminatalar nisbatan keyingi hodisa bo‘lib, manoni kuchaytirish, takidlash, birinchi bo‘g‘in fonetik tuzilishini saqlab qolish tendensiyasi natijasida hosil bo‘lgan⁶³, eski turkiy til davrida ma’lum darajada undoshlarda ikkilik boshlanadi: *iki -ikki, sakiz - sakkiz* kabi⁶⁴. Undoshlar ikkilantirilganda, ochiq bo‘g‘in yopiq bo‘g‘inga aylanib cho‘ziqlik yuzaga keladi. Ayrim sanoq sonlar jamlovchi son affiksalarini olganda, talaffuzda tovush orttirilishi kuzatiladi: *uchchov, to‘rttov, uchchala, beshshala* kabi. Bunday noadabiy shakllarning talaffuzida uslubiy xoslik mavjud, chunki poetik matnda bu kuchli ta’kidni ifodalaydi:

... *Bi-ir-rr pay-yt-la-arr...*

... *Osmoni keng edi qushning* (“*Qush*” dostoni)

Albatta, adabiy tilda yuqoridagi kabi shakllarni meyor doirasida qo‘llamaslik xato, biroq shoir uslubiy maqsad bilan ayrim undoshlarni ataylab ikkilantirib qo‘llaydi. A.Abdullayevning fikricha, geminatalarda bir undosh orttirishning o‘zi bilan ma’no kuchaytirilmaydi, balki qo‘sh undoshlilikni yuzaga keltirish bilan urg‘uni oldingi bo‘g‘inga ko‘chirish va o‘sha bo‘g‘indagi unlini

⁶³ Nabiyeva D. O‘zbek tilining turli sathlarida umumiylik-xususiylik dialektikasining namoyon bo‘lishi. -T.: Sharq, 2005. -B. 92.

⁶⁴ To‘ychiboyev B. O‘zbek tili tarixiy fonetikasi. -T.: O‘qituvchi, 1990. -B. 62.

kuchli talaffuz etish uchun zamin hozirlanadi,⁶⁵ bu hodisani badiiy matnda fonetik ortiqchalik deb o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Ortiqchalik tamoyilining boshqa ko'rinishlariga nisbatan shartli ravishda so'zda tovushni orttirib qo'llashga fonetik ortiqchalik deb qaraldi. Shoir ijodidagi har bir fonetik ortiqchalikda ham pleonazmning ta'kid, kuchli ifoda, atayin e'tibor qaratishga undash kabi uslubiy maqsadlar mavjud. Bunday ortiqchalik esa shoirning maqsadiga muvofiq misralarda "qisqalikdan davomlilikka" tomon gradual shaklda oshib boradi.

Shamol... Men axir kutaman, o'rtanib,

seni intiq kutaman, shamol.

Bag'rimga bosaman hijroning,

dog'laringni quchaman, shamol...

Shamol-l...

Sha-mo-ol...

Sha-mo-ol...l...l... (Sen, 39-bet)

Yoki infinitiv gap shaklidagi kengaygan birikma bilan ifodalangan holatlarda ham unlilar ortishi hodisasi kuzatiladi:

Men sevgan so'z – mangu sukutga ketib,

*yoningda jimgina **uz-o-oq** tikilish... ("Sen", 36-bet)*

Ma'lumki, qo'sh undoshlar, ya'ni geminatalarda bir xil undoshli holat yuzaga keladi, bu hodisa dastlab birinchi bo'g'in fonetik tuzilishini saqlab qolish tendensiyasi natijasida hosil bo'lgan, eski turkiy til davrida boshlangan undoshlardagi ikkilik (iki-ikki kabi), keyinchalik adabiy meyorga aylangan. Poetik matnda geminatalar (undoshlar cho'ziqligi)ning yotar-r, shuningdek, tosh-sh-lari kabi noadabiy formalari ma'noni kuchaytirish talabi bilan ortiqcha qo'llanadi:

Tungi daryo – uzala tushgan qilich.

Bo'lak-bo'lak tunning ko'hna yostig'i,

⁶⁵ Abdullayev A. O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. -T.: Fan, 1983. -B. 11.

oqib yotar-r tosh-sh-lari...

bo 'lak-bo 'lak...

Berilgan parchada qo'sh undoshlilikni yuzaga keltirish bilan urg'uni oldingi bo'g'inga ko'chirishi va o'sha bo'g'indagi unlini kuchli talaffuz etish uchun zamin hozirlagan. Geminatalar ot turkumiga mansub so'zlarda ko'proq qo'llanadi: *tepa-teppa, oshiq-oshshiq, siri-sirri, haqi-haqqi* kabi. Nutq zanjirida birin-ketin kelib, estetik vazifa bajaruvchi tovushlar...fonopoetik birliklar bo'lib, masalan, "r" tovushi ikkilantirilganda, talaffuzda til havo zarbidan titrashi orqali ohangdorlik(evfoniya) yuzaga keladi. Evfoniya [yun. euphonia < eu – yaxshi + phone – ovoz] ohangdorlik; nutqda kuchli ohangdorlik tug'diruvchi turli fonetik usullar, holatlarni ifodalaydi.

"Fonografik jihatdan so'zdagi bir unli yoki bir undoshning orttirilishi u ifodalab kelayotgan ekspressiv bo'yoq miqdorini belgilaydi". Masalan, "Sen" dostonida **gulzor, qudrat** so'zlari o'rniga uslubiy talab bilan **guluzor, qudurat** shaklida ishlatilgan. Bu esa she'rxonni tajnis san'ati kabi ma'no farqlashga majbur qilishi tabiiy:

*Gina dosh-dosh, **qudurat** dosh-dosh,*

To 'lishar pushmonlar, afsus.

(“Sen”, 75-bet)

Yoki:

Nigohim ko 'shkida erkalab –

*yeldirim sabolar **guluzor**.*

(“Sen”, 35-bet)

Fonikada misralardagi unli yoki undosh tovushlarning tuzilishi, konstruktiv vazifasi o'rganiladi. Bu vazifa fonetik ortiqchalikka ham daxldordir, sababi she'riy ritmda cho'ziqlik birlamchi talablardan biri bo'lib, talaffuzga asoslangani boisidan, fonostilistik ahamiyatga egadir. Ba'zan so'zda uning arxaik shaklida mavjud bo'lgan tovushni qo'llash, ya'ni variantdorlik orqali eshitib ta'sirlanish yuzaga keladi, bu variantlar hozirgi o'zbek adabiy tili bilan nisbatlaganda fonetik ortiqcha sanaladi: *shu/ shul, o'shalar/ o'shal, bu/ bul, u/ ul* kabi. Yordamchi so'zlarda: *balki/balkim, agar/magar* tarzida:

Hurillab essa gar nogahon,

qadrning parivash nasimi.

Kanglum ko'tarilar,

ko'tarilar ayon,

eshitsam Qashqadayro sasini. ("Sen", 5-bet)

Shuningdek, ayrim o'rinlarda *tomon* ko'makchisi o'rnida *tovun* ko'makchisi ham ishlatiladi.

*Kun og'di. Kechga **tovun***

esdi xush nasim. ("Sen", 29-bet)

E'tibor berilsa, fonemalarni eshitib his qila olish, ya'ni perseptiv aspektda o'rganish orqali tovush xarakteri aniqlanadi, bu xususiyat fonetik ortiqchalik orqali amalga oshirilgan ekan, poetik matnda tovush tuzilishi fikr mazmuni bilan organik bog'lanib uslubiy ahamiyatga ega bo'ladi.

Semalar takrori natijasida yuzaga kelgan ortiqchalikka semantik ortiqchalik deyiladi, bunda turli so'z turkumlariga kiruvchi hamda bir-biri bilan mazmuniy munosabatda bo'luvchi so'zlar sinfi turkumlararo leksik maydonni tashkil etadi va takror semalar o'zaro tobelik munosabatida birikadi. Semalarning bir arxisema asosida mazmuniy maydonni hosil qilishi natijasida arxisemaning xususiy semalari reallashtiriladi va konkretlashtiriladi, tanlangan semalar takrorida fikrni ta'kidlash, bo'rttirish, emotsional-ekspressivlik kuzatiladi. Masalan, ba'zan shaxs oti ravish yoki sifat oldidan uning belgisini anglatuvchi so'z keladi:

Qulf uzoq kutdi, ko'p uzoq kutdi,

o'tganga, qaytganga termuldi ilhaq. ("Sen", 23-bet)

Bunda arxisemaga atributiv birikkan xususiy sema semantik ortiqchalik mavqeida hisoblanadi.

Arxisema atamasi *integral sema*, *umumiy sema* terminlari bilan ham ishlatiladi. Umumiy sema – bu bir semantik maydondagi sememalarning

tutashtiruvchi semasidir. *Masalan, novcha, baqaloq, cho‘ziq* kabilardagi «meyor» semasi; *chopmoq, oqmoq, sakramoq* kabilardagi «harakat» semasi.

Poetik matnda semantik ortiqchalikning obyektli yoki relyativ shakllari (ko‘zidan yosh oqardi, tomirda qon bo‘lib oqib, qo‘lda qurol bilan jang qilmoq), atributiv shakllari (*qirmiz yoki alvon qon, qora tun, norasida go‘dak, yolg‘iz oy*), izohlovchi-aniqlanmish konstruksiyasiga o‘xshash shakllari *sen o‘zing, bizning barimiz, bularning bari*) tez-tez uchrab turadi.

*Kanglum, mendan bo‘lak kiming bor **sening**,*

*kanglum, sendan boshqa **mening** kimim bor!*

Ne desang deguvchi – yolg‘izim mening,

ne aytsam aytguvchi – o‘zing xokisor... (“Sen”, 3-bet)

Undalma sifatida *kangulga* murojaat qilingan misralar inversiya asosida gap bo‘laklari o‘rinlashgan. O‘zbek tilida gap bo‘laklarining joylashish tartibi asosan erkin bo‘lsa-da, ular gapda ma’lum grammatik qoidalar asosida o‘rinlashadi. Odatda, gapda ega va unga bog‘langan bo‘laklar oldin, kesim va unga bog‘langan bo‘laklar keyin joylashadi, ba’zan aksinchasi ham bo‘ladi.

Misra

*Kanglum, mendan bo‘lak **sening** kiming bor,*

*kanglum, sendan boshqa **mening** kimim bor!*

ko‘rinishida o‘rinlashadi.

Bu o‘rinda **sening kiming, mening kimim** birikmalarida (*sening, mening*) semantik ortiqchalik mavjud bo‘lib, bu ortiqchalik ta’kid, bo‘rttirish ma’nolarida uslubiy ma’no kasb etgan.

“Fonografik jihatdan so‘zdagi bir undoshning takror miqdori u ifodalab kelayotgan ekspressiv bo‘yoq miqdorini belgilaydi”⁶⁶, undoshning cho‘ziqligi natijasida so‘zning atash ma’nosi o‘zgarmaydi, balki so‘zlovchining subyektiv munosabati ifodalanadi. Asosan, undosh tovushlarning cho‘ziqligi, bir tipdagi undoshlarning takrorlanishi va grafik jihatdan ifodalanishi orqali ritmik qiyofa

⁶⁶ Yaxshiyeva G. O‘zbek tilida fonografik uslubiy vositalar: Filol.fanlari nomzodi diss. ... avtoref.-T., 1997. -B. 15.

hosil bo‘ladi, bu kabi talaffuz qilish va yozish uslubiy ahamiyat kasb etadi, bir undoshni ikkilantirib qo‘llash ot turkumida ko‘proq kuzatiladi: *tepa - teppa, oshiq - oshshiq, tummor-tumor* kabi.

Ruhim mahzanida ganji marvarid –

Qayg‘umning qayg‘usi osilgan tummor. (“Sen”, 51-bet)

Fonostilistik jihatdan so‘zdagi bir tovushning miqdoriy takrori u ifodalayotgan ekspressiv bo‘yoq miqdori darajasini belgilaydi, chunki “nutq zanjirida birin-ketin kelib, estetik vazifa bajaruvchi tovushlar...fonopoetik birliklardir”⁶⁷. Konnotativ ma’no fonetik vositalarda kuchliroq ifodalanadi. Masalan, *r* tovushi ikkilantirilganda, talaffuzda tovush kuchining yuqorilashuvi kuzatiladi, masalan, *qari kishi* birikmasiga qaraganda *qarri kishi* konstruksiyasida ma’no va belgi darajasi yuqori, *r* sonorining bunday joylashuvi ekspressiv xarakterga ega. Bunga sifatning fonetik usul bilan hosil qilingan orttirma darajasi deb qaraladi, ba’zan poetik matnda yengil qochirimni ifodalashi mumkin.

Ko‘rinadiki, geminalarda ikkilantirilgan undoshdan oldda turgan unli kuchli talaffuz qilinadi, ya’ni zarb urg‘usini oladi, qo‘sh undoshlilik ma’noning kuchayishiga sabab bo‘ladi. “O‘zbek tili morfem lug‘ati”da unli yoki undoshlardagi mavjud cho‘ziqlikka “fonetik boshqalik” deb qaralib, stilistik maqsadga xizmat qilishi xususida aytiladi⁶⁸. Nutq tovushlaridagi bu kabi qo‘shimcha tovush bo‘yoqdor tovush bo‘lib keladi.

Turli fonetik vositalardan foydalanishda, birinchi navbatda, adabiy meyor talablari hisobga olinadi. Zarur fonetik vositani tanlayotganda, avvalo, matnning mazmuni, uning qanday uslub va janrga tegishli ekanligi, unda qaysi davr tasvirlanayotganligiga e’tibor berish zarur. She’r nazariyasi haqidagi sohalardan biri bo‘lgan fonikada misralardagi unli yoki undosh tovushlarning tuzilishi, konstruktiv vazifasi, ya’ni nutq tovushlarining uslubiy tabiati o‘rganiladi. Poetik matnning ta’sirchanlik kuchini oshiruvchi tovush cho‘ziqligi ohang bilan belgilanadi, bu esa ifodali o‘qish san’ati uchun muhim sanaladi. Fonetik

⁶⁷ Tursunova O. Fonopoetikada qofiya masalasi // O‘zbek tili va adabiyoti. -T., 2009. -№1. -B. 104.

⁶⁸ G‘ulomov A., Tixonov A., Qo‘ng‘urov R. O‘zbek tili morfem lug‘ati. -T.: O‘qituvchi, 1977. -B. 367.

ortiqchalik tilning boshqa sathlarida mavjud bo'lgan lisoniy ortiqchaliklardan farqli o'laroq, talaffuzga asoslangani boisidan emotsional-ekspressivlik doirasi kengroq bo'ladi. Demak, poetik matnda tovushning akustik tabiati juda muhim, negaki, tovush cho'ziqligi, kuchi, tembri, balandligi birgalikda musiqiylikni ta'minlaydi.

Fonetik ortiqchalikda so'zning arxaik tuzilishida mavjud bo'lgan tovushni qo'llash bilan variantdorlik yuzaga keladi, so'z fonetik qiyofasini o'zgartirishi natijasida akustik qiyofasini ham o'zgartiradi.

Ijodkor adabiy tilimizdagi *etsa, yarashadi, o'tirib* so'zlarini *eltsa, yarashadir, o'ltirib* kabi arxaik ko'rinishda qo'llaydi, natijada bu shakllar ortiqchalikka daxldor bo'ladi:

Shomga befarq etiklayverar

Kunlar ortidan kunlar. ("Sen", 53-bet)

Tilshunoslikda mavjud bo'lgan variantlilik bir so'zning nutq ko'rinishlarida turlicha qo'llanishini belgilaydi. Variantlilik tilning ichki imkoniyati sanalib, adabiy tilning kommunikativ tabiati bilan mos kelgandagina qo'llanadi. Tilda mavjud variantlilikka (bu o'rinda mavjud so'zning fonetik o'zgarishda bo'lgan arxaik shakli nazarda tutildi) shartli ravishda fonetik ortiqchalik sifatida qaraldi. Bir so'zning fonetik arxaizmga mansub shakllari bilan bog'liq variantlilik olmoshlarda ham ko'p kuzatiladi: *shu/ shul, o'shalar/ o'shal, bu/ bul, u/ ul* tarzida:

G'am ila suygaydir, bul makon, kelgil,

So'nggi g'ami menman ochunning. ("Sen" dostoni)

Yoki:

Ochunda qurbatli narsalar shulkim: qaysiki, ... (Huviyyat dostoni)

Hozirda bu kabi fonetik variantlar tarixiy mavzudagi prozaik matnlarda davrga hamohanglikni ifodalasa, poetik matnda alohidalik, xoslik maqsadi bilan qo'llanadi. Variantlilik ma'lum tilga xos fonetik, leksik, grammatik birliklarning davr o'tishi natijasida turli-tuman o'zgarishlarga uchrashi bilan

xarakterlanadi. Demak, variantlilik tilning tarixiy taraqqiyotini belgilab beruvchi muhim omil, zarur shartlardan biridir. Til taraqqiyotida variantlar uslubiy hodisa sifatida bir xil ma'noli til elementlarining tilda mustahkamlanishini yoki muomaladan chiqib ketishini ta'minlaydi. Variantlilik sabab badiiy matnda tanlash imkoniyati mavjud, chunki qayerda tanlash imkoni bo'lmasa, uslubiy aniqlik bo'lmaydi: *balki/balkim, agar/magar* kabi. Bu shakllarni adabiy tilga qiyosan ortiqchalikka daxldor deb qarash mumkin.

Ba'zi o'rinlarda *balki* yordamchisi o'rnida *balkim* varianti qo'llanib, gumon ma'nosini ta'kidlanadi.

Ikrom Otamurod *balkim* variantini ko'pincha misra oxirida bog'lovchidan o'sib chiqqan modal so'z sifatida qo'llaydi. *Balkim* shakli zidlanish ma'nosini anglatib, zidlov bog'lovchisi vazifasida kelgan o'rinlar ham uchraydi:

*Necha-necha xastalikni daf etib, **balkim**...("Sen", 54-bet)*

Fonetik ortiqchalik mavjud so'zlarda poetik tasvir kuchliroq, ta'sirliroq ifodalanadi. *Agar* bog'lovchisining she'riyatda *magar* variantini qo'llash bilan uslubiy ohang, chiroyli talaffuz yuzaga keladi:

***Magar** yer yuzini bossa ham to'fon*

Sening to'pig'ingga chiqmasa, shu bas. (II, 38)

Agar bog'lovchisi otga ko'chib, ko'plik va kelishik affiksini olishi mumkin: *agarlardan* tipida. Bu kabi ko'chish kuchsiz bo'lib, bunday ko'chishni okkazional ko'chish desak xato bo'lmaydi. Okkazional ko'chish odatdagi qo'llanish bo'lmay, individual nutqiy matndagina yuzaga keladi. "Okkazional ma'no... u ifodalagan so'zni o'z ichiga olgan gap yoki birikma yordamidagina tushunarli bo'ladi"⁶⁹. Bir o'rinda individual yaratuvchanlik asosida *agarlardan* va *magarlardan* variantlarining yonma-yon qo'llanishidan keng ma'no mujassamlashuvi – hayotning butun murakkabliklari badiiyona ifodalangani ko'zga tashlanadi.

⁶⁹ Mirtojiev M. Okkazional ma'no // O'zbek tilshunosligi masalalari. 443- chiqish. -T.,1973. -B. 93.

Fonemalarni eshitib his qila olish⁷⁰ ularni ortiqcha qo‘llashda va bu bilan uslubiy maqsadni ko‘zda tutishda amal qilar ekan, fonostilistikaning imkoniyatlari benihoya kengligini anglash mushkul emas. Fonetik tejamlilikka zid ravishda fonetik ortiqchalikda konnotativ ma‘no to‘la mavjud bo‘ladi. Ijodkordagi hayajon, his-tuyg‘u ifodalari o‘quvchiga tovush vositasida yanada yorqinrok anglashiladi. Qo‘shimcha ma‘no bo‘yoqlari undosh fonemalarni ikkilantirish, orttirish orqali amalga oshiriladi. Poetik matnning tovush tuzilishi fikr mazmuni bilan organik bog‘langandagina uslubiy ahamiyatga ega bo‘ladi. E‘tibor berilsa, fonostilistik jihatdan poetik matnda, asosan, undosh tovushlarning cho‘ziqlik darajasi ekspressiv bo‘yoq miqdorini belgilaydi. Bu miqdoriy belgi ijodkorning poetik mahoratini, his-kechinmasini ifoda etadi.

⁷⁰Abduazizov A. O‘zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. -T.: O‘qituvchi, 1992. -B. 56.

Bob bo'yicha xulosalar

Tilshunoslikda lisoniy tejamlilik va ortiqchalik tamoyilining o'rganilishi hamda fonetik shakllarga munosabati tadqiq etilar ekan, quyidagicha xulosalarga kelindi:

1. Lisoniy tejamlilik va ortiqchalik tamoyili o'zbek adabiy tili materiallari asosida o'rganilgan bo'lib, badiiy matndagi ahamiyati keng tadqiq etilishi kerak bo'lgan masalalardan biri sifatida poetik matn misolida o'rganildi.

2. Tovush yoki tovushlar birikmasining tushirilishi fonetik tejamlilik sanalib, poetik matnda ayrim so'roq olmoshlari fonetik qisqarib talaffuzni ixchamlashtirish, vazn talabiga muvofiq bo'g'inlar tengligini saqlashga, boshqa bir so'roq olmoshlarining semantikasini egallagan holda stilistik vazifa bajarishga xoslangan bo'ladi.

3. Poetik matnda tejamlilik tamoyili fuziya ko'rinishida talaffuzda qulaylikka intilish, fonotsion energiyani tejash, so'zlash organlarining harakatini yengillatish maqsadi bilan qo'llanadi.

4. Fonetik ortiqchalik tovushning ortiqcha qo'llanishidan yuzaga kelib, poetik matnda nutq tovushlari talaffuzi bilan bog'liq ekspressivlikning aks etishi geminatalarda aniq ko'rinadi, natijada tovushning miqdoriy belgisi ekspressiv bo'yoq miqdorini belgilaydi.

5. So'zni tovush yuzaga keltirar ekan, so'zda tovushni orttirib qo'llash variantlilik bilan bog'liq holda undagi sifat belgisini ro'yobga chiqaradi.

III BOB. SO‘Z MA’NOSIGA ASOSLANGAN BADIY SAN’ATLARDA SO‘Z QO‘LLASH MAHORATI

3. 1. Tashbehni shakllantiradigan leksik vositalar tahlili

Adabiyotshunoslikda badiiy san’atlarni ma’noviy (ya’ni ma’noga asoslangan) va lafziy (ya’ni so‘z shakliga asoslangan) san’atlarga ajratish an’ana bo‘lib kelgan.

O‘zbek tilida so‘z ma’nosining tovlanishi asosida qator so‘z o‘yinlari qo‘llanadi. So‘z ma’nosining ko‘chishiga asoslangan san’atlar badiiy adabiyotda ma’noviy badiiy san’at sifatida shakllanadi. Ma’noviy san’atlar she’riyatning asosiy tasviriyl vositalaridan biri bo‘lib, shoir uchun fikrni obrazli, yorqin ifodalash, mazmunni rang-barang uslubiy ko‘rinishlarida bayon qilishda imkoniyat yaratadi.

Ma’noviy san’atlarni yaratishda tilning quyidagi xususiyatlari alohida vazifa bajaradi:

1. So‘zning to‘g‘ri va ko‘chma ma’no imkoniyatlari.
2. So‘zlardagi shakliy aynanlik (omonimlar).
3. So‘zlardagi ma’nodoshlik xususiyatlari (sinonimlar).
4. Frazeologik birliklar.
5. Maqollar.
6. Atoqli otlar.

Shu bois,uchinchi bobda hozirgi o‘zbek she’riyati tili uchun xarakterli bo‘lgan ma’noviy san’atlardan tashbeh, mubolag‘a, jonlantirish, tazod, tazmin, irsoli masal, iqtibos, talmeh kabi turlari lisoniy-uslubiy tahlilga jalb etildi.

Mumtoz adabiy manbalarda har bir so‘zning shaklan va mazmunan o‘z takomiliga yetkazishga harakat qilingan. Xuddi shu tariqa boshqalarni ham so‘zni qadrlashga undalgan, bu bilan shoirlar adabiyot, xususan, she’riyatning asosiy talabi – fikrni yashirish, asl maqsadni badiiy vositalar, jumladan ko‘p ma’noli so‘zlar ifodalaydigan botiniy ishoralar bilan berish qoidasiga rioya qilganlar.

She'riyatda eng muhim qoidalardan biri mavjud narsa, voqea – hodisalarni boshqacha nom bilan atash, izohlash. Asar asosiga olingan tilning lug'aviy imkoniyatlari ushbu o'rinda muallifga boshqa tilda so'zlash imkoniyatini beradigan lug'aviy vositalar, ularning leksik-semantik va stilistik imkoniyatlarida namoyon bo'ladi.

O'zbek mumtoz adabiyotida lirik qahramon, narsa yoki voqea- hodisalarni o'zgacha atash uchun ularga nisbatan o'xshatishlar qo'llagan. Bunday usul adabiyotda **tashbeh** deb ataladi.

Tashbeh (o'xshatish) haqida Y. Ishoqov shunday ma'lumot beradi: "Tashbeh to'rt qismdan tarkib topadi: 1) Mushabbah (o'xshagan narsa); 2) mushabbahun bih (o'xshatilayotgan narsa); 3) odati tashbeh (o'xshatish vositalari); 4) vajhi tashbeh (o'xshatish sababi)"⁷¹.

Tashbeh, ya'ni o'xshatish ikki xil usulda yuzaga chiqadi: tashbehi tom – ikki narsani bir-biriga hamma jihatdan o'xshatish; noto'liq o'xshatish narsalarning xususiyatlarini hisobga olgan holda ayrim jihatlarini o'xshatish.

Maqola muallifi tashbehning bir necha turlarini keltiradi:

- 1) Tashbehi sareh – ochiq o'xshatish;
- 2) Tashbehi mashrut – shartli o'xshatish;
- 3) Tashbehi tafzil – chekinish yo'li bilan o'xshatish;
- 4) Tashbehi aks – teskari o'xshatish;
- 5) Tashbehi muzmar – yashirilgan o'xshatish;
- 6) Tashbehi tavsil – barobar o'xshatish;
- 7) Tashbehi musalsal – ketma – ket o'xshatish;
- 8) Tashbehi kinoya – kinoya yo'li bilan o'xshatish;
- 9) Tashbehi mo'kad – ta'kid yo'li bilan o'xshatish.

O'xshatishga berilgan ta'riflarning turli xillari mavjud. Xususan, A. Rustamov bu hodisani qo'yidagicha ta'riflaydi:

⁷¹Is'hoqov Y. Tashbeh // O'zbek tili va adabiyoti. – 1970. – №4. – B. 81.

“Shoirning mahoratini, xususan, uning tasavvur va xayol olamining boy yoki qashshoqligini ko‘rsatuvchi badiiy vositalardan biri o‘xshatishdir. Biror narsa yoki hodisaning xususiyatini shu xususiyati bor boshqa narsa yoxud hodisa orqali tasvirlash “o‘xshatish” yoki “tashbeh” deb ataladi. O‘xshatishning mundarijasini o‘xshatilish, o‘xshovchi va o‘xshamish tashkil qiladi⁷².

Bu badiiy - uslubiy vositaning turlari haqida qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan.

M. Mukarramovning tadqiqotlari o‘xshatishni sof tilshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganishga bag‘ishlangan⁷³.

O‘xshatishlarning semantik-stilistik taraqqiyoti tilning lug‘at tarkibi bilan bog‘liq hodisa. Aynan til lug‘ati tarkibi uning eng tez o‘zgaruvchan qismi ekanligi bilan xarakterlanadi. Ma’lum so‘z yoki tushunchalar ma’lum vaqtda keng iste’molda bo‘ladi yoki shu vaqtda ular abadiydek tuyuladi. Yillar mobaynida o‘sha davr bilan bog‘liq tushuncha, so‘zlar ham tarix sahifasidan o‘rin oladi. Tilda uning lug‘at tarkibi qanchalik o‘zgaruvchan, beqaror bo‘lmasin, unda qaysidir lug‘aviy birliklar, semantik-stilistik vositalar saqlanib qoladi, ulardagi an’anaviylik, tadrijiylik davom etadi.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, hozirgi o‘zbek adabiyotining zamonaviy vakillari asarlarida o‘xshatishdan keng foydalanilgan. Yuqorida keltirilganidek, ular asarlari tilida o‘xshatishning mumtoz adabiyotda keng iste’molda bo‘lgan eski yoki eskirgan so‘zlar, badiiy-lug‘aviy vositalar bilan birgalikda yangi, tilda keyingi paytlarda paydo bo‘lgan so‘zlar yoki tushunchalar bilan bog‘liq so‘zlar ham aks etgan shakllari qo‘llanilgan. Ikrom Otamurod asarlari o‘rganilganda badiiy-uslubiy vositaning bu turidan keng foydalanilganligi kuzatildi. Shuning bilan bir qatorda, ular hozirgi o‘zbek tilining leksik-semantik xususiyatlariga tayangan holda yangi, original o‘xshatishlar yaratishga erishdilar.

⁷²Ishoqov Y. Tashbeh // O‘zbek tili va adabiyoti. – 1970. – №4. – B. 81.

⁷³

Mukarramov M. O‘zbek tilida o‘xshatish. – Toshkent: Fan, 1976.

O‘xshatish asosiga olinayotgan narsa yoki voqea-hodisalar ham davrlararo o‘zgarib boradi. Masalan, qadimgi turkiy davrda yuz-oyga, ko‘z-yolqin (porloq narsa)ga o‘xshatilgan. O‘xshatish – tasavvur birligi. Tasavvur esa mavjudotga asoslangan xayolot natijasidir⁷⁴. O‘rta asrlarda o‘xshatish obyektlari sarv, alif, dol, zuluk, ajdaho kabi tabiiy, ijtimoiy, afsonaviy narsalar bilan shakllangan. XX asr oxirlarida esa, o‘xshatishga asos qilib olinayotgan narsa yoki voqea-hodisalarning mundarijasi kengaydi. Binobarin, Ikrom Otamurod o‘xshatishlarida ko‘proq ijtimoiy-siyosiy mavzu va tabiiy hodisalar aks etgan. Masalan, Ikrom Otamurod she’rida shunday misralar uchraydi:

... Kun.

Quyosh ko‘kda chog‘larin chohlab, zinhor,

Ayamasdan to‘kar nurlarin.

Botinga harorat tumorin bog‘lab,

Zohirga naqshlar – naqsh turlarin. (“O‘rin” dos.)

yoki **“Tag‘azzul”** dostonida

Sabringa qadrdon tutindim chog‘imlab,

Ishq qayg‘usi jonim etmish giriftor.

Abrlar chanbarin yirtib yomg‘irlar,

Shovillab quyilar yer-u osmon tor.

Birinchi, ikkinchi she’rlarning misralarida inversiya usulida jonlantirish tashbehga qorishtirilgan holda yuzaga chiqarilgan. Qo‘llangan fe’llarga yuklangan ma’no vazifalari ularni inversiya orqali gapda ega vazifasini bajarishlariga xizmat qilmoqda. Ushbu she’rdagi o‘xshatishlarning ifodalanish usuli: *“Abrlar chanbarin yirtib yomg‘irlar ”* – Abr chanbari – bulutlar to‘dasi, yomg‘ir esa “men”ning iztiroblari ifodasi. O‘kinch, alam libosi-la burkangan tuyg‘ular po‘rtanasi tufayli

⁷⁴ Mukkaramov M. O‘zbek tilida o‘xshatish. – Toshkent: Fan, 1976. – B. 53.

adadsiz yer va osmon ko‘zga torlik qiladi bu esa qiyosiy tashbeh, shartli tashbehni hosil qiladi.

She’riyatda shoir doimo bir obrazlar yoki ularning holati, harakati haqida yozar ekan, aslida tashbehdan kutilgan ma’no, maqsad o‘zgacha ekanligi bilan xarakterlanadi. Shoir quyidagi uslubda tashbehlar yaratadi:

Beshikni yodimga tushirar tobut,

Go‘yoki miltiqdir osig‘liq tanbur.

“Beshikni yodimga tushirar tobut” misrasida tashbehi tavsiya-tenglashtirilgan o‘xshatish qo‘llangan. Bunda so‘zlarning o‘rni almashtirilsa ham ma’noda o‘zgarish yuz bermaydi: tobutni yodimga tushirar beshik. Birinchi misra tashbehi sarehga asoslangan “yodimga tushirar” birikmasi **“o‘xshaydi”** fe‘lining ma’nosini anglatmoqda. Shoirning so‘z qo‘llash mahorati shunda namoyon bo‘ladiki, bu misradagi o‘xshatish yuqorida keltirilgan tashbeh turlarining hammasiga mos keladi. Go‘yo yordamchisiga - ki bog‘lovchisining qo‘shilishi bilan ham o‘xshatish ifodalanadi⁷⁵. Keyingi misraga e’tiborni qaratamiz. «Go‘yoki miltiqdir osig‘liq tanbur». Miltiq bilan tanbur o‘rtasidagi o‘xshatish asosi birida ovoz - dahshat, ikkinchisida - go‘zallik, hayot. Bunday antonimiya faqat individual nutqqa xos bo‘lib, bu nutqdan tashqarida mavjud emas. Shunday bo‘lsa ham, so‘z san’atkorlari ana shunday antonimiyani yuzaga keltirish bilan fikrning ifodaliligini va ta’sirchanligini ta’minlaydilar⁷⁶. Shoir o‘z ijodida A. A. Potebnyaning “So‘z - tayyor fikr uchun ifoda va aloqa vositasi bo‘lib anglashiladigan narsa emas. U insonda tafakkurning faoliyati taqozo etgan zaruriyatdan paydo bo‘ladi – fikrlovchining o‘ziga fikr yaratish uchun zarur vosita xizmatini o‘taydi” - degan fikridan o‘rinli foydalangan.

She’riyatda sadoqat, vafodorlik ramzini ifodalashda it obrazidan keng foydalaniladi. O‘zbek mumtoz adabiyotida bu obraz deyarli har bir shoir lirikasida yetakchi o‘rinlardan biri hisoblanadi. Ba’zan ruhiy kechinmalar, ziddiyatli tushkun

⁷⁵ Mukkaramov M. O‘zbek tilida o‘xshatish. – Toshkent: Fan, 1976. – B. 53.

⁷⁶ Abdurahmonov H., Mahmudov N. So‘z estetikasi. – Toshkent: Fan, 1981. – B.15.

holatlar, itning holatiga qiyoslanadi. Shoirilar it obrazini lirik qahramonga o'xshatishda bevosita tashbeh - tashbehi sareh usulini qo'llaydilar:

Tag'in **itday** kelurman qaytib,

Jarlik - qayon yo'limni bursam.

Ikrom Otamurod ijodida **it** obrazi ikki ma'noda o'xshatish vazifasini bajargan. Birinchi misrada *itdek* - it kabi xor qilib, ikkinchi misrada esa *it* vafodor epiteti bilan sadoqat ramzi ma'nosini anglatgan.

Ikrom Otamurodning she'rlarida **kabi** ko'makchisi bilan qo'llangan o'xshatishlar so'z ma'nosining aniq, ravon, jozibali va ishonchli bo'lishiga xizmat qilgan. Ayniqsa, *yosh*, *beg'ubor*, *yangi* va *musaffo* ma'nolarini *bahor*, *go'dak* so'zlari orqali ifodalayotganda **kabi** ko'makchisidan unumli foydalangan.

O'xshatish obyekti sifatida kapalak so'zidan foydalangan. Semantik jihatdan kamalak - *nafis*, *dilgir*, *nozikligi* va *chiroyliligi* bilan barchani o'ziga maftun etadi. Shoirning she'rlarida ko'p o'rinlarda lirik qahramonda ifoda shaklining o'zgarib turishi kuzatiladi. Aynan shu hol she'rni monologik (uchinchi shaxsda) yoki dialogik (ikkinchi shaxsda) ifodalanishi she'rning sharhi hol yoki dialogik xarakter kasb etishini ta'minlaydi. Xuddi shu holat dialogik xarakterdagi misralar jonlantirish va murojaat san'atini o'xshatish zamirida hosil bo'lishiga xizmat qiladi. Bu san'atlar badiiy tilda nutq shaxsining o'zgarishi bilan bog'liq.

Ikrom Otamurod ijodida og'zaki nutqqa xos bo'lgan, shuningdek, uslublararo neytral bo'lgan, **kabi** ko'makchisiga keng murojaat qilish bilan birga, badiiy uslubda eski qatlamga xos "**kibi**", "**yanglig**" ko'makchisi ham ko'p uchraydi. Bu ko'makchi so'z hozirda deyarli arxaik qatlamga o'tib qolgan. She'riyatda tez-tez qo'llanib turishiga qaramay, jonli xalq tilida iste'molda yo'q.

Tashbeh san'atining hozirgi o'zbek she'riyatidagi o'rni, qo'llanishi va ma'no taraqqiyoti bo'yicha olib borilgan kuzatishlarni quyidagicha xulosalash mumkin:

1. Hozirgi o'zbek she'riyatida tashbeh o'zbek mumtoz adabiyotidagi shakl va ma'no xususiyatlarini saqlab qolgan.

2. Shoir tashbeh san'atini yaratishda turli leksik-grammatik vositalardan foydalangan.

3. Tashbeh hosil qiluvchi lugʻaviy vositalarni qoʻllashda shoirlar badiiy adabiyotdagi tarixiy koloritni saqlab qolishda koʻp oʻrinlarda arxaizmlarga ham murojaat qilganlar.

Jonlantirish, qiyoslash uchun tabiat hodisalari tanlanadi. Tabiat hodisalarini jonlantirib voqea-hodisa yaratish, yoki uni izohlash **tashxis, intoq** kabi badiiy sanʼatlarni yuzaga keltirish badiiy adabiyot tilining muhim omillaridan hisoblanadi.

S. Rafiddinov tashxisni “tabiatdagi umuman, koinotdagi narsa, predmetlarni jonlantirib tasvirlash”, deb taʼriflaydi¹.

A. Hojiahmedov esa jonlantirish insonga xos xususiyatning jonsiz narsalarga koʻchirishdan iborat deb, hisoblaydi: Tashxis (jonlantirish) hayvonlar, qushlar, jonsiz narsalarga inson xususiyatlarini koʻchirish sanʼatidir².

Badiiy uslubning bu turi metaforaning koʻrinishlaridan biri hisoblanadi. Bu xildagi jonlantirish ilmiy adabiyotlarda apostrofa deb ham nomlanadi. Jonlantirishning yana bir koʻrinishi personifikatsiya deb nomlanib, unda jonivorlardagi xislatlar odamga koʻchiriladi.

Hozirgi oʻzbek adabiyotida jonlantirish usulidan keng foydalanilgan. Ikrom Otamurod quyidagi sheʼrda quyoshga jon ato qiladi:

Quyosh roʻmolini qoʻndirib qiya,

Erinib koʻtarar mujgonlarini.

Qoʻyvorib yuborar keksa oq qiya,

Bagʻrida asragan gʻujgʻonlarini. (“Sabuh...”)

Sheʼr inversiya usulida hosil qilingan. Bu misrada *qoʻndirib qiya* soʻzi taqlid soʻzdan yasalgan boʻlib, sheʼrda sifatlash vazifasini bajarmoqda.

Ikrom Otamurod sheʼrlarida tabiat hodisalariga nisbatan tashbehni xuddi insonga yoki hayvonlarga tatbiqan qoʻllash usullari kuzatiladi.

Masalan:

... Ilonday sudralib,

Toʻlgʻonar qumlar,

Oftobning betiga shappotlar shappot. (“Qush” dostoni)

Jonlantirish uchun olingan tasvir vositasi ham yangi manzarani koʻz oʻngida osongina gavdalandirishga xizmat qiladi.

Shoir jonlantirish uchun dialektal soʻzlardan ham oʻrinli foydalanadi. Shamoldagi beqarorlik ikki maʼnodosh soʻz “*telvakezik*” va “*sayoq*”da aks etib, “daydi” maʼnosini anglatadi. Jonlantirish uchun qoʻllangan soʻzlarning maʼno xususiyatlari bir-biriga mos ravishda tanlanib, sheʼrning muvaffaqiyatini taʼminlashga xizmat qiladi.

Jonlantirishda atrof-muhitning yangi, hali aytilmagan, aniqrogʻi, inson ongi tomonidan kashf qilinmagan holat va xususiyatlarini soʻzda ifodalashi shoirning soʻzga ijodiy yondashuviga bogʻliq. Jonlantirish yangi boʻlishi bilan birga, u inson tushunchasi doirasida boʻlishi, toki jonlantirish borasida qoʻllangan tashbeh insoniy xususiyatlarni tabiat hodisalariga koʻchirish bilan bogʻliq. Aynan mana shu koʻchirish jarayonida ularning xususiyl belgilari ham diqqat markazida boʻladi. Shoirning muvaffaqiyati esa jonlantirish uchun tanlangan soʻzlarning maʼno ottenkalarini tabiat hodisalarining xususiyl belgilariga mos kelganligidadir.

Zamonaviy oʻzbek sheʼriyatida intoqning undov his-hayajon ifodalovchi soʻzlarning qoʻllanishi tez-tez uchrab turadi. Masalan, adiblar Hamid Olimjon, Gʻafur Gʻulom asarlarida Vatan mudofaasiga otlangan yigitlarga nisbatan murojaat intoq sanʼati orqali chaqiriq ruhi singdirilgan undov, his-hayajonli soʻzlari sheʼr tarkibiga koʻplab kiritilgan. Zamonaviy shoirlar sheʼriyatida bu usul lirikaga ham koʻchdi. Xususan, uni bahorga murojaat qilishi jonlantirish orqali amalga oshgan:

Xayr, Bahor! Alvado, bahor!

Ushalmasdan qoldi armonim.

Biroq **kutgil dedi-yu ,bahor,**

Lablarimga bosdi barmogʻin.

Quyidagi misralarda jonlantirishning yangi shaklini namoyon qiladi va uni tashbehga qorishtirib tavsiflaydi. Intoq orqali daryoning holatini uning tilida soʻzlaydi:

Togʻlar tiniq qorini berar,

Yashil vodiyl yoniql gullarin.

Birinchi misradagi qor soʻzida “suv” maʼnosi anglashilayotgan boʻlsa -da, undagi oqlik, poklik daryoning tilida “men pok niyatdan yaralganman” degan maʼnoni ham anglash mumkin. Ikkinchi misradagi yashil vodiya - oʻtloq, uning yoniq gullari tabiatdir. “Kechalarning bagʻrini yoqdim” misrasi Hamid Olimjonning “Daryo kabi uygʻoq oʻtarman” degan misrasiga hamohang. Sheʼrda daryoning shaffofligi inson koʻziga qiyoslangan. Tabiat hodisalarini insonga nisbatan qiyoslash, uni jonlantirishga olib kelgan.

3.2. Asar matniga badiiy parchalarni kiritishga asoslangan badiiy sanʼatlar

Tazmin (“bir narsani ikkinchi bir narsa orasiga qoʻymoq”) sheʼrga oʻzga bir shoir asaridan biron misra, bir yoki bir necha bayt kiritish sanʼatidir.⁷⁷ Bu sanʼat hozirgi oʻzbek sheʼriyatida ham davom ettirilgan. Jumladan, isteʼdodli shoir Ikrom Otamurodning sheʼrlarida mazkur sanʼat oʻz aksini topgan:

Men senga qaraganda, daraxtlar toʻsiq boʻldi,
Boʻy-boʻyiga qizgʻonib, yoʻllar ham oʻsiq boʻldi,
Kanglum mahzanlarida ungani oʻksik boʻldi,
Sensan mening hijronim,
Menman sening hijroning.

Sheʼrdagi misra soʻnggida keltirilgan “*Sensan mening hijronim*” qator Zulfiyaning “**Hijron**” sheʼridan olingan boʻlib, sheʼrning avvalgi misralardagi mazmun va mohiyat bilan muvofiq keladi.

Taʼkidlash lozimki, tazmin uchun olingan misra, sheʼrning mavzu va mazmuniga asos boʻlib, uning lirik xotimasini badiiyat talabi nuqtai nazardan toʻldirishga xizmat qilgan.

yoki

Yoʻllaringda mushtoq koʻzlarim kuygay,

⁷⁷ Hojiahmedov A. Sheʼriy sanʼatlar va mumoz qofiya. – Toshkent: Sharq, 1998. – B. 60.

Tilimni yondirib, soʻzlaring kuygay,

Oʻylasam oʻylarim, boʻzlarim kuygay,

Soʻnggi ohi menman ochunning

Sheʼrdagi har bir misra soʻnggida Mashrabning **“Kuygay”** gʻazalidan olingan radif boʻlib, sheʼrning avvalgi misralardagi mazmun va mohiyat bilan muvofiq keladi.

Tazmin uchun olingan misra sheʼrning mazmunini ochishida uning boshlanish nuqtasi boʻlishi ham mumkin. Bu hollarda shoir avval koʻchirma misra keltiradi, keyin uning maʼno va mohiyatiga mos misralarda semantik, shuningdek, kompozitsion butunlikni taʼminlaydigan soʻzlarga murojaat qiladi.

Yuqoridagi qisqa semantik-stilistik tahlildan maʼlum boʻladiki, tazmin sanʼati hozirgi oʻzbek adabiyoti tilini bezash bilan birga, badiiy nutqning taʼsirchanligini oshirish, maʼno butunligini taʼminlashga ham xizmat qilgan.

Tazmin sanʼatida nomlar, soʻzlar, soʻz birikmalari, iboralar yoki maqollar yoxud bir yoki bir necha misralar, baʼzan maʼlum badiiy parcha, ijod qilinayotgan asar matniga tashqaridan olib kiriladi. Ularning baʼzilarida olib kiriladigan material “sitata” (havola)ni eslatadi. Baʼzi sanʼatlardagi obrazli otlarni tilga olish esa oʻzlashma emas, balki “foydalanuvchi, qoʻllanuvchi leksemalar”ning⁷⁸ bir koʻrinishidir.

Xullas, tazmin sanʼati talabi bilan asar matniga kiritiladigan biror parcha qayd qilinganlardan mohiyatan farqlanadi. Ular orasidagi oʻxshashlik shundaki, barchasi muallif qalamiga mansub boʻlmagan, oʻzgalardan olinayotgan hadis ekanligida. Ammo tazmin sanʼati tufayli, olinayotgan badiiy parchalar har qanday boshqa kiritmalardan, birinchidan, badiiy asar elementi ekani bilan; ikkinchidan, badiiyligi tufayli, badiiy matn tarkibiga tabiiy qism sifatida singib keta olishi bilan, uchinchidan, ijod qilinayotgan asar gʻoyasiga mos tushishi, uning mazmunini yanada boyitishi, badiiyligini toʻldirishi bilan farqlanadi. Shu tufayli, tazmin

⁷⁸ Oʻzbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1985. – B. 71.

san'ati talabi bilan asar matniga kiritilgan badiiy parchalar uning tuzilishi va tarkibida sezilmaydigan holda yashaydi. Bunday parchalarning o'zgalardan olinganligini barcha ham payqayvermaydi. Shu sababli, ko'p holda she'r muallifi tazmin misra yoki parchani qo'shtirnoqda beradi yoki havola orqali qayerdan olinganini eslatadi yoxud asar matnida o'sha materialning egasi tilga olib o'tiladi. Mana shu hol tazminning eng muhim xususiyati va funksional mohiyatini belgilaydi.

3.2.1. Asar matniga maqol va iboralarni kiritishga asoslangan badiiy san'atlar

Badiiy asar she'rning ijodiyliги, originalligi faqatgina yangi ma'no, yangi shakl yaratish bilan baholanmaydi. Shoirning mahorati mavjud adabiy-lisoniy klishe'larning asar tarkibiga muvaffaqiyatli singdirilishi bilan ham bog'liq. Folklor tilida asrlar davomida sayqallanib, jilolanib kelayotgan maqol, matal va masallar mana shunday klishe'larning mumtoz namunasi bo'la oladi. Badiiy asar tiliga she'riyatimiz uslubini bezab, unga o'ziga xos jilo bag'ishlab kelgan maqol, matal va hikmatli iboralardan foydalanish san'ati - irsoli masal she'riyatimiz hozirgi bosqichida ham keng qo'llanishga loyiqdir"⁷⁹.

Irsoli masalning Atoiy she'riyatidagi qiziqarli namunalari tahlil qilingan⁸⁰. Shoir Pahlavonquli Ravnaqning irsoli masaldan mohirona foydalanganligi tadqiqotlardan ma'lum. Chunonchi, uning quyidagi misralarida "Ming siz-bizdan bir jiz-biz yaxshi" halq maqolidan foydalanganligi qayd etilgan:

Ne samar hosil bo'lur yuzda degandan siz u biz,

Yaxshiroq ming siz-u bizdan ko'rinur bir jizu-biz.

Irsoli masal "maqol kiritish" ma'nosini ifodalaydi, ushbu san'atning Navoiy va Lutfiy she'rlarida xarakterli, go'zal namunalari bor⁸¹.

⁷⁹ Rafiddinov S. Majoz va haqiqat. – Toshkent: Fan, 1995. – B. 131-134.

⁸⁰ O'zbek adabiyoti tarixi. 3 tomlik. T. 1. – B. 283.

⁸¹ Hojiahmedov A. Badiiy san'atlar va mumtoz qofiya. – Toshkent: Sharq, 1998. – B. 59-60.

Hozirgi o'zbek adabiyoti asarlarida uchraydigan maqol va matallar maxsus tadqiq qilingan va bu muammoga doir monografiya yozilgan. Ayrim adiblar asarlari tilidagi aforizmlarning qo'llanishiga oid tadqiqotlar ham bor⁸².

Irsoli masal san'atida maqol va iboralar semantik-struktural o'zgarishlar bo'yicha quyidagi turlarga bo'linadi: 1. Maqol va iboralarni aynan qo'llash. 2. Maqol va iboralarni almashtirib qo'llash. 3. Maqol va iboralar tarkibini kengaytirish. 4. Maqol va iboralarning qismlarini tushirib qoldirish. 5. Maqol va iboralarning bo'lib-bo'lib berilishi.

Maqol va iboralar hech qanday o'zgarishsiz aynan keltirilsa-da, shoirlar tomonidan maqol va iboralarga ishlov berilib, she'r mazmuniga singdirib yuborilgan holatlari ham uchraydi. Maqol va iboralar ijodkor tomonidan ma'lum darajada qayta ishlanganda, maqolning shaklidan ko'ra mazmuniga ko'proq e'tibor beradilar.

Ikrom Otamurod - hikmatlar shoiri. Shoir hikmatlarni shunchaki aytib qo'yish bilan kifoyalangisi kelmaydi. U fikrini imkon qadar sirlar pardasiga o'rab, bir qaraganda ko'rinmaydigan qilib ifodalashni xush ko'radi, shuningdek, uning misralaridan nimanidir uqish mumkin, o'rganish mumkin. "Tag'azzul" dostonida:

... Qachondir, qaydadir ixtiyorini

nafsga berib qo'ygan odam dermishkim...

...Mening nafsim balodir,

yonar o'tga solodur... (51-bet)

yoki

Cho'ri kiyganini

Qul yeganini maqtaydi,

Deydilar onam.

Yana shunday deydilar,

⁸² Samadov Q. Oybekning til mahorati. – Toshkent: TDPI, 1981.

To 'lib-to 'lib ketganlarida:

Ta'na o'chog'i tordir,

Toyrimachog'i bordir.... (40-bet)

Shoirning she'rida "*sichqon sig'mas iniga, g'alvir bog'lar dumiga*" maqoli inversiya va qofiya talabiga ko'ra o'zgartirib ishlatilgan.

To'g'ri, to'g'ri. E'tirozim yo'q:

Sichqon g'irt ovsar-da,

Sig'maydi-yu, iniga,

G'alvir bog'lar dumiga.

Hazilga o'xshab ketadigan bu she'rning tubida katta bir falsafiy mazmun yotadi. She'r shoirtabiat insonning dunyoqarashi, hayot tarzini aks ettirgan.

Iboraning komponenti "*sichqon*" so'zi she'r boshida berilib, "*g'irt ovsar*" xarakteristikasi bilan diqqatni o'ziga jalb qiladi. Bu so'z o'zining ham lug'aviy ma'nosida, ham ibora ichidagi ma'nosini anglatadi. Xuddi shu yo'sinda she'rda "*g'alvir*" so'zi ham ishlatilgan. Ushbu so'z she'r ruhiga singib ketgan holda, uning asosiy g'oyasini ifodalaydi.

Aforizmlar doimo voqea-hodisadan kelib chiqadigan mantiq, xulosaga asoslanishdan tashqari hazil va kinoyali o'xshatishga asoslangani uchun ham ko'p hollarda ular tashxis va jonlantirish san'atlari bilan uyg'unlashib ketadi. *Tuya, echki* kabi hayvonlar maqol orqali she'r tarkibiga kiritilganidek, yuqoridagi sichqon obrazi irsoli masal san'ati uchun tashxis qilingan.

Maqollar ham lisoniy vositalar singari o'z o'rniga ega. Ular davr ruhini berishda, turli xil voqealarni tasvirlashda, personajlar xarakterini aks ettirishda, ijodkor olg'a surgan g'oyani falsafiy-estetik jihatdan umumlashtirishda muhim uslubiy vazifa bajaradi⁸³.

⁸³ Muhammadjonova G. 80-yillar oxiri 90-yillar boshlari o'zbek she'riyatining lingvopoetik tadqiqi: Filol.fanlari nomzodi ... diss. – Toshkent, 2004. – B. 73.

3.2.2. Oyat va hadislarni qo'llash bilan bog'liq san'atlar

Til lug'at tarkibining imkoniyatlaridan foydalanish jarayonida badiiy asarning ma'nosini kengaytirish, tilini jozibador bo'lishida ijodkorlar turli badiiy vositalardan foydalanadi. Til ifodasining jilolanishi uchun xizmat qiladigan til materiallarini izlab topadi, asarga kiritadi.

Sharq adabiyotida, xususan, o'zbek adabiyotida o'rta asrlarda mumtoz adabiyot namunalarida islom dinining muqaddas kitobi Qur'on oyatlari, payg'ambar hadislaridan parchalar, namunalarni asar tarkibiga kiritib ma'no kuchaytirish, asar tilini bezash keng an'ana bo'lgan. Hozirgi o'zbek she'riyatida ham iqtibos san'ati keng qo'llana boshladi.

Iqtibos (arabcha **“ziyo olmoq”**, ma'nosidagi so'z) – 1) o'z fikrini izohlash yoki tasdiqlash uchun boshqa birovning asaridan parcha yoki ma'lum bir so'z (sitata) keltirish; 2) boshqa bir shoirning she'rini ijodiy qayta ishlash⁸⁴ .

“Ilm o'zlashtirmoq” ma'nosidagi iqtibos so'zi **Qur'on oyatlari va payg'ambar hadislarini** she'r ichida keltirish yoki ularning mazmunini she'rda ifodalash san'atidir. Musulmon mamlakatlarining shoirlari bu usulga keng murojaat qilib, o'zlarining lirik va liro-epik asarlarining matnlariga oyatlar va hadislarni kiritganlar.

Hadislarga bag'ishlab yozilgan “Arbayn”lar ham iqtibos usulida yaratilgan asarlardir⁸⁵. Bu san'at haqida yozilgan ma'lumotlar juda kam, alohida ishlar ham mavjud emas. Iqtibos san'ati mohiyatan va vazifasiga ko'ra badiiy adabiyotning spetsifik xususiyatidir. Ushbu san'atni tilshunoslik nuqtai nazaridan uslubiy va matnshunoslik muammolari qatorida o'rganish mumkin.

Ko'rinadiki, iqtibos terminining izohi har ikki muallifda ikki xil izohlangan. Terminning ma'nosi deyarli bir xil izohlanadi. Lug'atdagi termin izohidagi 1. O'z fikrini izohlash yoki tasdiqlash uchun boshqa birovning asaridan parcha yoki

⁸⁴ Homidiy H., Abdullayeva Sh. Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1967. – B. 71.

⁸⁵ Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. – Toshkent: Sharq, 1998. – B. 62.

ma'lum bir so'z (sitata) keltirish, jumalari A. Hojiahmedovning ma'naviy san'at turiga kiruvchi "tazmin san'ati ("bir narsani ikkinchi bir narsa orasiga qo'yimoq") – **she'rga o'zga bir shoir asaridan biron misra, bir yoki bir necha bayt kiritish san'ati**"ga berilgan ta'rifiga aynan o'xshashligi yaqqol ko'rinib turibdi. Bizningcha, ushbu o'rinda A. Hojiahmedov izohlagan ta'rifda jon bor. Chunki hadislarga bag'ishlab yozilgan she'rlar hozirgi zamon she'riyatida ham o'z aksini topgan. Jumladan, A'zam O'ktamning "Ikki dunyo saodati" deb nomlanuvchi kitobida Imom Buxoriy to'plagan ayrim hadislarining badiiy talqini bayon qilinadi.

Mazkur to'plam avval Imom Buxoriy hadislarini, so'ngra uning badiiy talqini, undan keyin esa ularga izoh berilishi bilan yakunlanadi.

Shoir mazkur to'plamdagi she'rlarni diniy-falsafiy usulda bayon qiladiki, undan insonlar o'rnak olishlari, tabiiy. Masalan, "Omonatga qilma xiyonat" she'ri iqtibos san'atiga misol bo'la oladi:

*Chin baxtsizlik asli ne ekan,
Rasululloh shundayin degan:
"Badbaxt erur deyar bo'lsa kim:
"Men oyatni esdan chiqardim".
Bo'lmas o'zi istab unutgan,
Jazo shulkim, faromush etgay
Takror eting Qur'onni har dam,
Bog'lagandek tuyani mahkam.
Sal beparvo qolganingiz choq -
Qochar asov tuyadan tezroq!"⁸⁶*

Shoir Muhammad payg'ambar hadisidan ijodiy foydalangan holda uni badiiy tilda ifoda qilgan. Biroq hadis ma'nosiga putur yetmagan.

⁸⁶ A'zam O'ktam. Ikki dunyo saodati. – Toshkent: Cho'lpon. 1997. – B. 38.

Sohibi Qur'on (hofizi Qur'on) bog'lab qo'yilgan tuyaning egasiga o'xshaydi. Agar u uni bog'liqda saqlab ehtiyotlasa, olib qolgay, bo'shatib yuborilsa, ketib qolgay!" Bu xususdagi hadislarni Ibn Umar, Abdulloh, Abu Muso roziyallohu anhu rivoyat etganlar: **"Takrorlash bilimning onasidir"**, degan gapni ko'p eshitganmiz. Unutish – yo'qotish bilan barobar ekan. Yod olingan har bir oyatni yeru ko'kka ishonmay asrash kerak. Har soniyada: "Olloh menga bergan omonat joyida turibdimi-yo'qmi?" deya tekshirib turmoq lozim. Jannatga kiritilgan kishiga: **"Qur'ondan qancha yod olgan bo'lsang, o'shancha o'qib ketaver"** deyilarkan. Ichkari yurilgan sayin Olloh taologa yaqin boriladi. O'shal kunda tilimiz tutilishidan, sal o'tmay to'xtab qolishdan O'zi asrasin.

"Tili boshqa, dili boshqa - badbaxtdir" she'rida quyidagilar o'z ifodasini topgan:

"Zamon oxirida o'zlari yoshu, orzulari ahmoqona va gapga chechan bir qavm dunyoga kelur..."

Quyidagi she'rda hadis ma'nosini kengaytirib izohlagan:

Bir qavm kelur - da'vosi baland,

Mahmadona, havosi baland.

Namoz o'qir, shu birla shaksiz -

Tahqirlashar namozlaringiz.

Ro'za tutar shu birla so'zsiz -

Tahqirlashar ro'zalarinigiz.

Garchand olim bo'lur aksari,

Qur'on o'tmas bo'g'zidan nari.

Dindan chiqib keturlar esiz,

O'q kamondan otilgandek tez.

Mazkur hadisni Abu Sa'id al-Hudriy, Suvayd raziyallohu anhum rivoyat qilganlar. Iymon til bilan izhor etilib, dildan tasdiqlanadi. Payg'ambar

alayhissalom xabar bergan qavm esa tilida muslim, asli munofiq. Aytayotgan soʻzlari yurakdan chiqmaydi. Qurʼon qalblaridan oʻrin olmagan. Iloyo. Shu qavm vakili boʻlishdan asra!

“Oʻzi pokning dili pok” sheʼrida shoir **“Besh vaqt namoz... Oллоh taololar tufayli gunohlarni kechirgaydir”**⁸⁷ hadisini toʻlaligicha badiiy tilda inversiya usulida mazmun toʻla saqlangan holda keltiradi:

Lutf eturlar sarvari olam:

“Soy boʻyida yashagan odam,

Unda besh bor choʻmilsa, keyin

Tanimda kir qoldi dermikin?”

Sahobalar bir ovozdan der:

“Undoq tanda qolmas sira kir”.

- Shundoq erur besh vaqt namoz ham

Namoz bilan poklanur odam.

Boʻlsa agar insonda gunoh,

Namoz bois avf etur Oллоh.

Paygʻambar alayhissalomdan **“Bandalarning qaysi amali olloh taologa xush keladi?”** deb soʻrashganda, **“Oʻz vaqtida oʻqilgan namoz”** deya marhamat qilgan ekanlar.

Iqtibos sanʼati hosil boʻlishida Ikrom Otamurodning hozirgi zamon oʻzbek adabiy tili leksik qatlamlaridan tashqari, arabcha, forsha soʻzlarni zamonaviy tilga singdira olgan. Iqtibos sanʼatida maʼnoviy jihatdan bir-biriga yaqin tushunchalar anglatuvchi **Oллоh, Sarvari olam, Rasululloh, sahoba, Qurʼon, oyat, hadis, jannat, namoz, roʻza, ibodat, din** kabi soʻzlar faol qoʻllanilgan. Bu oʻrinda

⁸⁷ Buxoriy. Hadis. 1-jild. Al-jomiʼ As-Sahih: (Ishonarli toʻplam) – Toshkent: Qomuslar, 1991. – B. 156.

tanosib san'ati iqtibos san'atining yaratilishida tayanch vazifasini bajarganligini alohida ta'kidlash joizdir.

Xullas, bu sa'natning lug'aviy ma'nosi **“boshqa bir asar yoki she'rni qayta ishlash”** deb sharhlangan bo'lsa-da, iqtidorli shoirlar she'rlarida o'z fikrini asoslash, mantiqiy izchillikka erishish maqsadida sharqona odob nuqtai nazaridan oyat, hadislardan, **“Ikki dunyo saodati”** kabi to'liq iboralar keltirilib, badiiy talqin etilgan.

3.2.3. Atoqli otlarni qo'llashga asoslangan san'atlar

O'zbek mumtoz adabiyotida ijtimoiy-siyosiy hayotda yuz bergan turli voqealar, inson hayotiga oid hodisa va tarixlar badiiy san'at usulida keng qo'llangan. Mavjud lisoniy vositalarning leksik-semantik va stilistik imkoniyatiga tayangan holda ishora usuli bilan qator tarixiy hodisalar asarda bir so'z yoki atama vositasida tasvirlangan. Shunday san'atlardan biri talmehdir.

Talmeh (“nazar solmoq”)* she'r yoki nasrda mashhur tarixiy voqealar, afsonalar, adabiy asarlar yoki maqollarga ishora qilmoq san'atidir⁸⁸. Ushbu san'at* asosida yaratilgan she'rlarda tarixiy hodisalar ma'lum bir maqsadni ko'zda tutib eslanadi. Ko'pincha muallif hammaga ma'lum bo'lgan milliy qahramon yoki yaxshilik, saxiylik timsoliga aylangan tarixiy shaxslarning nomini she'r tarkibida qo'llashi, ularning amalga oshirgan ishlari ma'lum bir g'oya, holatni obrazli qilib ta'riflaydi.

Zabt etgani kelmadim seni,
Yeng ichida yo'qdir pichog'im.
Men **Iskandar, Chingizxon** emas,
Osmon kabi ochiq quchog'im. (“Sayohat”)

Tarixda insonlar boshiga ne-ne kulfatlar solgan **Iskandar, Chingizxon** istilolarining ijtimoiy-siyosiy oqibatlari ularning ismini keltirish bilan o'quvchi ko'z oldida namoyon bo'ladi. O'quvchi tasavvurida tarixni gavdalantirish uchun antroponimlar ma'lum g'oyaviy-tarixiy manba hisoblanadi. Binobarin, keltirilgan

* A. Hojiahmedov mazkur san'atni talmih deb atagan.

⁸⁸ A. Hojiahmedov. Sheriy san'atlar va mumtoz qofiya.-Toshkent: Sharq, 1998.-B.43.

antroponimlarning butun semantik doirasi uning badiiy matn ichidagi ma'nosida mujassamlashgan.

Iskandar, Chingizxon tomonidan yondirib yuborilgan shahar va qishloqlardagi tutunning qora soyasiga ishora sifatida "*Osmon kabi ochiq quchog'im*" o'xshatishi orqali yangi semantik tizim yaratish imkonini bergan.

Talmeh uchun vosita bo'la oluvchi, o'z g'oyasi, fikrini obrazli ifodalay oladigan lisoniy vositalarni har bir adib maqsadga muvofiq ravishda tanlaydi. Shoirlar mumtoz she'riyatimizda qayta-qayta ishlatilgan an'anaviy «material» dan foydalanganda ularning yangi qirralarini ochishga yangicha talqin qilishga intiladilar.⁸⁹ Biz o'rgangan shoirlarning she'rlarida talmeh san'ati vositalari qayd qilingan fikrning to'g'riligini tasdiqlaydigan dalillar anchagina. Quyida ularning ba'zilarini keltiramiz:

Talmeh hosil qilishda shoir tarixiy shaxslarning nomlaridan foydalanadi:

Ulug' ajdodlarning mavjudligi, ularga bo'lgan hurmat shoir ijodida quyidagicha ifodalanadi.

Sulton Mirhaydarning toshlarin silab,

Yarim ko'ngrim to'lar, o tangrim, inon.

Oppoq laylaklarga omonlik tilab,

Ko'hna ruhlar – imon, sog'inchlar – imon.

(*"Ruhimning qayg'us"*i, 17-bet)

Ona-yerning qadimiyligi, ko'hna tarixi, moziyga daxldorlik g'oyalarini bayon qilmoq uchun *Go'ro'g'li*, *Qays* kabi atoqli otlardan foydalanadi:

Atirgullar dudog'ida nam,

Yulduzlardan tomar iyiklar.

Go'ro'g'lining tushida – Eram,

Qaysni quchib yotar kiyiklar.

Keltirilgan misolda ham milliy qahramon alp *Go'ro'g'li* nomining zikr etilishi dovyurak, jasur yigit obrazi anglashiladi. *Qays obrazida* Navoiyning butun odob-ahloq haqidagi aqidalari birgina antroponimni qo'llashi bilan o'quvchi

⁸⁹ Ishoqov Y. So'z san'ati so'zligi. – Toshkent: Zarqalam, 2007. – B. 72.

ongida to'raligicha tasavvur uyg'otadi. Kishi ismlari orqali talmeh yaratishda birgina ishoraning o'zi kamlik qiladi.

Oxirgi misolda shoir kuzatilayotgan ma'noni to'ldirish, uni yorqinroq ochib berish uchun qo'shimcha vositalarga murojaat qilgan. Shoir folklor qahramoni *Go'ro'g'li* obrazi orqali xalq og'zaki ijodi namunalari yoki tarixiy kitoblarda keltirilgan voqealarga ishora qiladi.

Ma'lumki, *O'lmas Koshey* obrazi salbiy obraz bo'lib, u faqat yomonlik illatining elchisi sifatida barchaga tanish:

O'lmas Koshey kabi bu jaholatning
Mingta kallasi bor,
Vujudi bitta.

Yuqoridagi she'rda jaholatning vujudi bitta, lekin kallasi mingta ekanligi, lirik qahramon obdon o'ylab, xalq ta'biri bilan aytganda, "yetti o'lchab bir kesishi" kerak, shundagina uning joni qayerda ekanligi oydinlashadi, ya'ni puxta o'ylangandagina muammoning yechimi topiladi degan fikrni ilgari surgan. Shoirning yana bir she'rda saxiylik ulug'lanadi:

Ishonmasang qara ko'zimga
Ko'zlarimda yashaydi *Xotam*.

Xotam toy obrazi mumtoz adabiyot asarlarida saxiylik ramzidir. Saxiylik haqida gap ketganda, albatta, *Xotam* obrazi tilga olinadi. Baytda muallif yomon niyatli insonlarning ko'zlaridan ma'lum bo'lishini ta'kidlab, ko'zlarimga yaxshilab qara, mening niyatim pok demoqchi bo'lgan.

Xullas, talmeh o'zbek mumtoz adabiyotida keng qo'llanilgan badiiy-tasviriy vositalardan biri. Zamonaviy o'zbek adabiyotida ham tarixiy voqealarni lirik asarlar zamiriga singdirib, ulardan ma'no bo'rttirish va qisqalikka erishishga mo'ljallangan talmeh san'atining namunalari hozirgi o'zbek adabiy tilining lug'aviy imkoniyatlarini to'ldirgan.

So'z ma'nosiga asoslangan badiiy san'atlarning semantik-stilistik xususiyatlari, ularni yaratishda so'z qo'llash mahorati bo'yicha olib borilgan tahlillarni quyidagicha xulosalash mumkin:

1. Soʻz maʼnosiga asoslangan badiiy sanʼatlar zamonaviy oʻzbek adabiyotida ham mumtoz adabiyot doirasidagi kabi shakl va mazmun mohiyatini saqlab qolgan. Zamonaviy shoirlar asarlarida oʻzbek tilining lugʻaviy imkoniyatlari darajasida soʻz oʻyini, sheʼrni soʻzlar orqali jilolantirish, badiiy nutqning ravonligi va musiqiylikini oshirish borasida uning yangi, takrorlanmas, original koʻrinishlari uchraydi.

2. Zamonaviy oʻzbek sheʼriyatida qoʻllangan *tashbeh*, *jonlantirish*, *iqtibos*, *talmeh* kabi badiiy vositalar shoirning tildagi lugʻaviy birliklardan badiiy matn yarata olish mahoratini namoyon qilgan.

3. Hozirgi oʻzbek adabiyotida tashbeh uchun muvaffaqiyatli qoʻllangan soʻzlarning maʼno doirasi kengaygan, maʼno qirralari sayqallanib, sheʼrning badiiy nafosatini taʼminlagan. Oʻxshatish asosiga olinayotgan narsa yoki voqea-hodisalar ham davrlararo oʻzgarib boradi. Hozirgi oʻzbek sheʼriyatida oʻxshatishga asos qilib olinayotgan narsa yoki voqea-hodisalarning mundarijasi kengayib, oʻxshatishlarda koʻproq ijtimoiy-siyosiy mavzu va tabiiy hodisalarning aks etishi, oʻxshatishning diniy-falsafiy atamalar bilan bogʻliqligi, oʻxshatishda narsa yoki voqea-hodisalar sentimental hissiyotlarni tashbehlarga singdirgan holda shakllantirishga erishilgan.

4. Tadqiqot obyektiga olingan shoirlar asarlari tilida soʻz qoʻllash mahoratini namoyon qilish uchun keltirilgan maʼnoviy sanʼatlarda mualliflar tomonidan qoʻllanilgan maqol va iboralar sheʼrdagi mavzu mohiyatini xulosalash bilan birga, uning semantik tugalligini taʼminlashga zamin yaratgan.

5. Iqtibos sanʼati oʻrta asrga xos shakl va maʼno xususiyatlarini mustahkam saqlab kelayotgani bois, asosan bu sanʼat Islom dini qonun-qoidalarini bilan mustahkam bogʻliqligi tufayli, sheʼrning taʼsirchanlik koʻlamini kengaytirishda makon va zamon chegaralaridan chiqib, oʻzidagi arabcha-diniy atamalarni saqlab qoladi. Masalan, lutf, sarvari olam, sahoba, oyat, hadis, jannat, namoz, ibodat, din kabi lugʻaviy birliklar iqtibos sanʼatining shakllanishiga zamin yaratgan.

6. Talmeh sanʼatida tarixiy yoki afsonaviy shaxs, joy nomi yoki voqea-hodisalar roʻy bergan sana va boshqalarni eslatish yoʻli bilan tilda ortiqcha izoh, bayondan halos boʻlinadi. Eslatilgan antroponim, toponim va boshqa leksik-semantik birliklarning zamirida koʻzda tutilgan maʼno namoyon boʻlgan. Tarixiy

xodisalar va voqealarni badiiy asar tarkibiga kiritish jarayonida antroponimlarni qo‘llash orqali so‘zda ixchamlikka erishish yo‘li bilan hosil qilingan san’atlar til lug‘at tizimining boyishi uchun xizmat qilgan.

3.3. Lisoniy birliklarning shakli va takroriga asoslangan badiiy san’atlarning leksik-semantik xususiyatlari

Sharq she’riyatida poetik vositalarning eng ko‘p uchraydigan turi lafziy san’atlardir. Tasviriy vositalarning bu turida har bir so‘zga, uning shakliga e’tibor beriladi⁹⁰. Badiiy san’atlarning lafziy ko‘rinishlarida ham uning ma’noviy turlari singari har xil fikrlar mavjud.

So‘z shakli va takrori yuzaga keladigan lafziy san’atlarni lisoniy tahlil etishda quyidagi masalalarga e’tibor berilishi nazarda tutiladi. Bular juft so‘zlarga, so‘zlardagi shakliy yaqinlikka, fonetik va orfoepik birliklarning talaffuzi va funksional xususiyatlariga, so‘zlarni bo‘g‘in va vazn tengligi kabilarga asoslangan san’atlardir. Zero, lafziy san’atlar hozirgi o‘zbek she’riyatida ham “ko‘b va xo‘b” qo‘llanilgan. Ayniqsa, takror va shakldosh so‘zlar Ikrom Otamurod asarlarida o‘rinli ishlatilgan. Ular asarlarida takrir, tardi aks, raddi matla’, tasbig‘, tasdir, hojib, radif, tavshih, muvozana kabi badiiy san’atlar mahorat bilan qo‘llanilgan. Ushbu poetik vositalar shoirlar asarlarining badiiy qimmatini oshirish, she’r misralarida ohangdoshlik va musiqiylikni hosil qilishda katta ahamiyatga ega. Albatta, bu badiiy san’atlarni yaratishda is’tedodli shoirlar o‘zbek tilining lug‘aviy tarkibidan, uning fonetik-morfologik va sintaktik qurilishidan unumli foydalanganlar.

Ushbu bobda hozirgi o‘zbek she’riyati tili uchun xarakterli bo‘lgan bir qator lafziy san’atlar shoirlar badiiyati leksikasi tili materiallari asosida har bir so‘zning o‘rni, takrori, shakli, ularning bir-biriga munosabati masalalari tahlil etildi.

⁹⁰ Hamidov Z. So‘z san’ati va san’atkor mahorati. – Toshkent: Universitet, 1991. – B. 33.

3.3.1. Soʻzlarni shakliy (boʻgʻin, vaznga koʻra) tengligiga asoslangan badiiy sanʼatlarning lisoniy tahlili

Til lugʻat tarkibining poetik asar yaratishdagi imkoniyatlari nafaqat soʻzdagi maʼno koʻchishiga emas, balki soʻzning shakli va mazmuni bilan bogʻliq soʻz oʻyinlarida ham namoyon boʻladi.

Soʻzlarning shakliy xususiyatlariga asoslangan sanʼatlardan biri muvozanadir.

Muvozana “vazn (oʻlchov) jihatidan tengdoshlik” maʼnosini anglatadi. Bu sanʼat sheʼr misralaridagi barcha soʻzlarning vazn (oʻlchov) jihatidan oʻzaro teng boʻlishini nazarda tutadi⁹¹.

Zamonaviy oʻzbek sheʼriyati namunalarida badiiy til nafosatini taʼminlovchi bu usul keng qoʻllanilgan:

Kanglum, mendan boʻlak kimning bor sening,

Kanglum, sendan boshqa mening kimim bor?!

Ne desang deguvchi – yolgʻizim mening,

Ne aytsam aytguchi – oʻzing hokisor...

.... ..

Kanglum, meni tushinguvchi oʻzingsan faqat,

Kanglum, faqat seni anglab yetguvchi oʻzim.

Mening vujudimda ulgʻayar toqat,

Sening vujudingda gʻunchalar toʻzim... (Sen. “Kanglum”, 3-bet)

yoki

Salqin-salqin kunlar boshlandi,

Boshlandi salqin tunlar.

Qurum bosgan tuynuklar endi

boʻralaydi tutunlar.

Kangularda uygʻonar sukut,

Kangularda sukutga qaytish.

Endi xotiralarga quloq tutib,

⁹¹ Hojiahmedov A. Sheʼriy sanʼatlar va mumtoz qofiya. – Toshkent: Sharq, 1998. – B. 105.

Endi xotirlarni aytish. (Sen. "Salqin-salqin kunlar...", 12-bet)

Misralardagi shakl tengligi, soʻzlardagi ohangdoshlik va maʼnodoshlik gradatsiya usuli asosida qurilgan boʻlib, maʼnoni ketma-ket qaytarishga xizmat qilgan. Salqin kunlar boshlandi, salqin tunlar boshlandi, koʻngillarda sukut boshlandi.

Quyidagi misralarda ham shakldoshlik asosida tanlangan soʻzlar badiiy matn doirasida bir umumiy maʼnoni ifodalashga xizmat qilgan:

Ishq asling boʻlsin kanglum,

Toʻrt fasling boʻlsin kanglum.

Sening savdoying kanglum,

Sening shaydoying kanglum....("Kangul" 60 bet)

Sheʼrda gradatsiya his-tuygʻuning shakl va holatiga asoslangan. Shoirning muvozana uchun tanlangan soʻzlari vertikal maydonda zid maʼnoli boʻlishi ham mumkin. Biroq bu zidlik sanʼatning ohangdoshlik va vazndoshlik holatiga putur yetkazmaydi:

Sen – yolgʻizlik kabi jimjit...

Sen – yolgʻizlik kabi goʻzal...

Sen – yolgʻizlik kabi gʻamgin...

Sen – yolgʻizlik kabi yolgʻiz... (Sen. 64 bet)

Tadqiqot obyekti qilib olingan hozirgi oʻzbek adabiyotida soʻzlarning shakl va maʼno munosabatiga asoslangan muvozana sanʼati asar tilining taʼsirchanligini oshirish, unda jozibadorlik va ohangdorlikni taʼminlash, uchun keng qoʻllangan. Zamonaviy oʻzbek adabiyoti vakillari tildagi mavjud lisoniy vositalarning shakl va maʼno xususiyatlaridan samarali foydalanib, bu sanʼatning goʻzal namunalarini yaratganlar.

3.3.2. Soʻz takroriga asoslangan badiiy sanʼatlarda semantik-stilistik munosabatlar

Takrorga asoslangan soʻz oʻyini mumtoz adabiyotda keng tarqalgan uslubiy vositalardan biri hisoblanadi. Oʻzbek adabiy tilida shakl va maʼnoda hamohanglik, kuchli taʼkidni talab qilgan paytda sheʼrda soʻz, jumla va hatto butun-butun misralar ham takrorlanib kelishi mumkin.

Takrorga asoslangan sanʼatlarning hammasida ham soʻz, jumla yoki misralar bir xil shaklda takrorlanmaydi, turli maʼnolarda semantik munosabatni ifodalash uchun soʻzlarning oʻrni va ayrim oʻrinlarda ularning shaklini oʻzgartirib ham takrorlash mumkin.

Uchinchi bobda hozirgi oʻzbek sheʼriyati tili uchun xarakterli boʻlgan bir qator lafziy sanʼatlar shoirlar leksikasi materiallari asosida har bir soʻzning oʻrni, takrori, shakli ularning bir-biriga munosabati tahlil etildi. Ulardan namunalar keltiramiz:

Takrir asli arabcha soʻz boʻlib, bir yoki bir necha soʻzni, baʼzan maʼlum satrni takrorlab qoʻllash demakdir⁹¹. Bu sanʼat baʼzida takror yoki mukarrar deb ham ataladi⁹².

Olib borilgan kuzatishlarda takrir sanʼati ham qadimiy hodisa ekani koʻrsatildi. Ahmad Yugnakiyning “Hibbatul haqoyiq” asarida takrir sanʼatining namunalari mavjudligi aniqlangan⁹³. N. Mallayevning taʼkidlashicha, Ahmad Yugnakiy oʻz asarida “... takrir, alliteratsiya kabi poetik usullarni ham qoʻllaydi. Bular badiiy misralarning mazmunini boyitish va uning badiiy qimmatini oshirishga xizmat qiladi”⁹⁴.

Takror va uning turlari yuzasidan tilshunoslar turli fikrlar bildirganlar. Oʻzbek tilidagi takroriy soʻzlar leksika va morfologik sathlarda keng tahlil qilinmagan⁹⁵. Ular uslub jihatdan hali chuqur oʻrganilganicha yoʻq. Baʼzi ishlarda takrorning anaforik takrorlar, epiforik takrorlar, aralash (doiraviy) takrorlar kabi

⁹¹ H. Homidiy va boshqalar. Adabiyotshunoslik terminlari lugʻati. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1996. – B. 216.

⁹² Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-oʻzbekcha izohli lugʻati. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1983. – B. 248.

⁹³ Oʻzbek adabiyoti tarixi. 3 tomlik. T. I. – B. 139.

⁹⁴ Mallayev N. Oʻzbek adabiyoti tarixi. – B. 148.

⁹⁵ Bu oʻrinda Z. Oʻrinboyevning ishini koʻzda tutmoqdamiz. Ishning “kirish” qismiga qarang (dissertant).

tiplari tilga olinadi. Badiiy asarda, barcha stilistik vositalarda bo'lgani kabi, takrorning zimmasiga ham nutqiy vositalarga xos emotsional bo'yoq, alohida ohang, joziba berish vazifasi yuklanadi. Shuning uchun ham ijod jarayonida ularga murojaat qilish qalamkashdan maxsus tayyorgarlikni talab qiladi va ana shunday mehnat mevasi bo'lgan takrorlargina badiiy usul uchun chinakam stilistik usul sifatida xizmat qiladi⁹⁶. So'zni takror qo'llashidan asosiy maqsad fikrni bo'rttirib ta'kidlash, mazmunni obrazli va ta'sirli ifodalashdir. Shoirilar o'z asarlarida takror san'atini yaratishda leksik va grammatik kategoriyalarning deyarli hammasidan foydalanadilar. Takror san'ati, ayniqsa, alliteratsiya, assonans, anafora, epiforalar asosida hosil bo'ladi.

Alliteratsiya misradagi so'zlar boshida bir xil tovushlarning takror qo'llanishidan hosil bo'ladi. Tovush takrorining turli xil ko'rinishlari Ikrom Otamurod she'rlarida ko'plab uchraydi.

Ikrom Otamurod "Ichkari...Tashqari" she'rida tovush takrorining turli xil ko'rinishlaridan ustalik bilan foydalanadi:

Ichkari tashqari chiqmoq istayur,
Istayur ichkarida mohini.
Tashqari ichkariga kirmoq istayur,
Istayur ichkarida Ollohni.

Misralarida **i** tovushining so'zlari tarkibida takrorlanishi alliteratsiyani hosil qilgan.

Tovush takrori so'z takroriga o'tib boradi.

Anafora misralar boshida bir so'z yoki birikmani o'zgarishsiz, aynan takrorlaydi. Masalan:

***Odamzod** dunyoga sochgan urug'dir visol,*
***Odamzod** dunyodan yiqqan hosildir hijron.*
***Odamzod** dunyoga sochgan urug'dir niyat,*
***Odamzod** dunyodan yiqqan hosildir o'lim.*
***Odamzod** dunyoga sochgan urug'dir beshik,*

⁹⁶ Karimov S. O'zbek tilining badiiy uslubi: Filol.fanlari d-ri ... dis.avtoref. – Toshkent, 1993. – B. 38.

Odamzod dunyodan yiqqan hosildir tobut. (*“Ichkari...Tashqari”*39-bet)

Bu yerdagi soʻz takrori shoirning oʻsha soʻzdan keyin keladigan fikrlarining xulosasiga asoslangan. Butun sheʼr davomida **odamzod** soʻzining anafora shaklida takrorlanishi unga alohida urgʻu berilishi maʼnoni kuchaytirishga, oʻsha soʻzning mohiyatini kuchliroq, boʻrttiribroq koʻrsatishga xizmat qilgan.

Anafora nutqni oʻziga xos tarzda shakllantirib, uning kompozitsion tuzilishiga ijobiy taʼsir etadi. Nutqning eng asosiy-keskin nuqtasini belgilaydi⁹⁷.

Kuzatishlar shuni koʻrsatadiki, birikma holida takrorlanuvchi soʻzlar fikrni yanada kuchli va salmoqdor qilishga yordam beradi. Ikrom Otamurod quyidagi **“Tagʻazzul”** sheʼrda **“Oʻ, ishq, yoʻllaringda”** bu birikmasini ketma-ket toʻrt marta takrorlab takrorning anaforik usulini yaratishga muvaffaq boʻlgan:

Oʻ, ishq, yoʻllaringda hijron dili toʻq,

Oʻ, ishq, yoʻllaringda visol koʻzi nam!

Oʻ, ishq, yoʻllaringda boʻldim-ku xazon,

Oʻ, ishq, yoʻllaringda muruvvat bormi?

Sheʼriyat tilidagi har qanday takror maʼlum darajada ekspressivlikka ega boʻladi. Chunki unda taʼkid, uqtirish, izchil, izhor maʼnosi ifodalanadi. Shu bilan birga, takrorlanuvchi qism tarkibida emotsional undovlar, modal soʻzlar, soʻroq olmoshlari kelganda takror maʼnosidagi emotsional-ekspressiv boʻyoq yanada kuchayadi, taʼsirchanlik yuqori darajaga erishadi. Quyidagi misralar bunga yaqqol misol boʻla oladi:

Nahot kanglum, yana senga baqamti keldim,

Nahot kanglum, yana mendan kutding hidoya.

Nahot kanglum, yurgan yoʻllarim sen sori yeldi,

Nahot kanglum, turgan bekatlaring menda nihoya.

Sheʼr anaforaga asoslanar ekan, unda emotsional-ekspressiv boʻyoqni qatʼiy taʼkidlash modal soʻzga yuklatilgan boʻlsa, keyingi misralarda qarshilantirish orqali keyingi taʼkidni obrazli taʼsirchan ifodalashga xizmat qilgan.

⁹⁷ Tomashevskiy B. V. Stilistika. – Leningrad: LGU, 1983. – S. 279.

Anafora faqat nutqning bezagi tashqi belgisi bo‘lib qolmay, balki ma‘noni kuchaytirishga ham xizmat qiladi⁹⁸. Bu she‘rda birinchi misra ikkinchi misraga qarama-qarshi qo‘yiladi. To‘rtinchi misra esa hamma fikrni bir nuqtaga jamlab, yakuniy xulosa chiqaradi.

Anafora yangilik o‘ramidan iborat bo‘lgan holda, fikrni taraqqiy ettira borish asnosida “eng yangi” ning kelib chiqishiga xizmat qiladi. Yoki u “eng yangi” ga aloqador diqqat qaratilgan eng asosiy nuqta bo‘lgani uchun ham takrorlanganligi kuzatiladi⁹⁹.

Epifora misralar oxirida ayni bir elementning takrorlanishidan iborat stilistik figuradir. U badiiy nutqni yanada ohangli, ifodali bayon etish uchun qo‘llanadi. Bu ko‘pincha badiiy asarlarda uchrab, o‘zaro qofiyadosh, ohangdosh so‘zlarning yoki bir xildagi tovush va qo‘shimchalarning takrori asosida vujudga keladi¹⁰⁰. Epifora misralarda kelish o‘rniga ko‘ra anaforaga zid tushuncha hisoblanadi

So‘z ma‘nosidan turli san‘atlar yaratish borasida foydalanish shoirning **“Ichkari... Tashqari”** dostonining quyidagi misralarda ham o‘z aksini topgan:

Boring ham kanglungda,
zoring ham kanglungda.
Yetganing ham kanglungda,
ketganing ham kanglungda...
Rahmating ham kanglungda,
la’nating ham kanglungda.
Kariming ham kanglungda,
yariming ham kanglungda...

Zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi takror san‘atining lisoniy xususiyatlari bo‘yicha olib borilgan tahlillarni quyidagicha xulosalash mumkin:

⁹⁸ Hamroyev F. 90-yillar poeziyasida takror uslubi vosita sifatida. To‘plam. – Samarqand, 1996. – B. 104.

⁹⁹ Rixsiyeva G. She‘riyatdagi gaplarning aktual bo‘linishida anaforalar o‘rni: Filol.fanlari nomzodi ... dis.avtoref. – Toshkent, 1999. – B. 23.

¹⁰⁰ Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. – Toshkent, O‘qituvchi, 1995. – B. 70.

1. Takror san'ati zamonaviy o'zbek adabiyoti tilidagi alliteratsiya va epifora hodisalari orqali hosil qilingan.

2. Takror hozirgi o'zbek she'riyati tilida bir, ikki yoki uch so'z takrori ko'rinishlarida namoyon bo'lgan. Takror uchun olingan so'zlar undov, modal so'zlar tarkibidan iborat bo'lishi mumkin.

Tardi aks “teskari holda takrorlangan” degan ma'noni anglatadi. Tardi aksning mohiyati, ahamiyati, uning turlari yuzasidan bir qator mumtoz manbalardagi mulohazalar o'rganilib, bu san'atning to'rt ko'rinishi mavjudligi ta'kidlanadi¹⁰¹.

Yana bir tadqiqotda bu san'atning nomi “tardi aks” emas, “tardu aks” tarzida tilga olinadi va u “teskari qilib takrorlash” ma'nosini ifodalanishi aytiladi¹⁰².

Ikrom Otamurod mohir so'z san'atkori sifatida har bir so'zga o'ta ehtiyotkorlik va tejamkorlik bilan yondashadi. Shu sababli, uning ixcham, nozik she'rlari o'quvchiga badiiy zavq beradi. Ikrom Otamurodning “Kanglum mening siddiqim, do'stim, yoronim” she'rida tardi aks san'atining go'zal va noyob ko'rinishi hosil bo'lgan:

Kanglum, **mendan bo'lak** kimning bor sening,

Kanglum, **sendan boshqa** mening kimim bor?

Ne desam, deguvchi, yolg'izim mening,

Ne aytsam, aytguchi, o'zing hokisor!

Tardi aks, ya'ni akslantirib takrorlash she'rning birinchi va ikkinchi misralariga tegishli bo'lib, uchinchi misraning to'rtinchi misrada takrorlanishi tardi aksda ma'noni kuchaytirishga xizmat qilgan. She'rdagi fe'l shaxs-sondagi tuslanish takrorlangan misraning ma'nosini ko'ngil va menga oid ekanligiga ishora qiladi. Masalan, mening sendan bo'lak, sening mendan bo'lak kabi.

Tardi aks san'ati zamonaviy o'zbek adabiyotida shakl va mazmun jihatidan takomillashib, uni semantik-stilistik chegaralarni kengaytirishda faqat so'zning aks

¹⁰¹ Is'hoqov Y. Tardi aks // O'zbek tili va adabiyoti. – 1971. – №6. – B. 82-83.

¹⁰² Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. – Toshkent: Sharq, 1998. – B. 89.

takrori emas, fonetik aks takrori ham badiiy lisoniy jarayondan o‘rin olgan. Xususan, Ikrom Otamurodning “Buvishim” she’rida shunday misralar mavjud:

Bir ezgin yomg‘irlar **yog‘a** boshladi,
Sog‘inchlar sabrini **chog‘a** boshladi.
Kun ham namoyishga **og‘a** boshladi,
Buvishim, men seni bir ko‘rgim keldi.

Tardi aks san’atining fonetik aks misolida shoir nafaqat so‘zning fonetik aks, balki semantik aks takrorini ham yaratgan. Masalan, *yog‘a boshladi* birikmasi harakatni, *chog‘a boshladi* birikmasi chalg‘itish, *og‘a boshladi* birikmasi kunning botish holatini tasvirlaydi.

Shoir ijodida munozarali tardi aks, tajnisli tardi aks asosiga qurilgan san’atda so‘z qo‘llashning go‘zal namunasi mavjud. Shoir lirik qahramonning holatini nutq fe‘llariga bog‘lab ifodalaydi: hayqirdim (maqtandim); qaytarilar (aks harakat-javob keladi); eshitilar (quloqqa chalinar); ingradim (azobli holatimni namoyon qildim); gumbirlaydi (azobimdan rohat ovozi keldi) kabi.

Quyidagi misralarda shoir tardi aks san’atini qo‘llash orqali bevafo dunyo obrazini ifoda etgan:

Oy jamol ko‘rsatdi zeb berib tunga,

Oy seni eslatdi oyjamol menga

Tardi aks san’ati namunalarini hozirgi o‘zbek adabiy tilining shakllanishi va taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyatini shunday xulosalash mumkin.

1. Tardi aks inversiya asosiga qurilgan san’at bo‘lib, she’rda so‘zlarning grammatik shakli almashtirilishi orqali antiteza usuli bilan hosil bo‘lgan.

3. Tardi aksda misralar orasida mantiqiy urg‘u oladigan so‘z ajralib turadi va antiteza asosiga olinadi.

4. Zamonaviy o‘zbek adabiyotida tardi aksning taraqqiyot topgan shakli ham uchraydi: so‘zning aks takrori, fonetik aks takrorga o‘tgan o‘rinlar uchradi.

5. Tardi aksga asoslangan she’r namunalarida o‘zbek adabiy tilining lisoniy imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilgan.

Radif san'ati lafziy san'at turlaridan hisoblanib, so'z takrori asosida yaratiladi. Radif she'r misralarida asosan qofiyadan keyin takrorlanib keluvchi so'z yoki so'zlardir¹⁰³.

Jumladan, Ikrom Otamurodning "Qo'shiq" nomli she'rda radif san'atining go'zal namunasi mavjud:

Osmonimni obod qilgan qamar **eding**,
Balolardan saqlaguvchi tumor **eding**,
Ko'zlarimda mudom ko'zi xumor **eding**,
Yo'llarimni yoshing bilan yuvar **eding**,
Meni desa joningni ham berar **eding**.

Mazkur san'at fe'lining to'liqsiz shakli eding so'zining ketma-ket takrorlanishi natijasida vujudga kelgan. Osmon, obod so'zlaridagi unlilar ohangdoshligi, qilgan, qamar so'zlaridagi undoshlar uyg'unligi asar tilining badiiylik ko'lamini yanada boyitgan. She'rda qofiyani tashkil qilgan-qamar, tumor, xumor, yuvar, berar so'zlari she'rning sodda, o'ynoqi va ravonligini ta'min etgan.

Shoir Iqbol Mirzoning "So'roq" she'rda ham radif san'ati uchraydi.

Qoshlaring kamon **deymi**,
Yuragim nishon **deymi**,
Kipriging paykon **deymi**,
Jigar-bag'rim qon **deymi**,
Ko'zlaring cho'lpon **deymi**,
Ko'zlarim giryon **deymi**,
Munis, mehribon **deymi**,
Rostimni yolg'on **deymi**?

Yuqoridagi she'rda alliteratsiya va assonanslar asosida tavshih san'ati hosil bo'lgan. Ta'kidlash lozimki, shoirning bu san'atni qo'llashdan maqsadi faqatgina so'z o'yini bo'lib qolmay, bir mavzu ostidagi so'z, gap yoki sodda gaplarni inversiya usulida ishlatib, ma'noni haddan ziyod bo'rttirib ko'rsatishga intilishdan iborat. O'zbek tili lug'at tizimidagi so'zlarning tarkibi va semantik maydonidagi

¹⁰³ O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 tomlik. T. 1. – M.: Rus tili, 1981. – B. 612.

rang-baranglik tavshih san'atiga asoslangan she'ring muvaffaqiyatini
ta'minlagan.

Bob bo'yicha xulosalar

1. Hozirgi o'zbek she'riyatida tashbeh o'zbek mumtoz adabiyotidagi shakl va ma'no xususiyatlarini saqlab qolgan.

2. Tashbeh hosil qiluvchi lug'aviy vositalarni qo'llashda shoirlar badiiy adabiyotdagi tarixiy koloritni saqlab qolishda ko'p o'rinlarda arxaizmlarga ham murojaat qilganlar.

3. Zamonaviy o'zbek she'riyatida qo'llangan *tashbeh*, *jonlantirish*, *iqtibos*, *talmeh* kabi badiiy vositalar shoirning tildagi lug'aviy birliklardan badiiy matn yarata olish mahoratini namoyon qilgan.

4. Iqtibos san'ati o'rta asrga xos shakl va ma'no xususiyatlarini mustahkam saqlab kelayotgani bois, asosan bu san'at Islom dini qonun-qoidalarini bilan mustahkam bog'liqligi tufayli, she'rning ta'sirchanlik ko'lamini kengaytirishda makon va zamon chegaralaridan chiqib, o'zidagi arabcha-diniy atamalarni saqlab qoladi. Masalan, lutf, sarvari olam, sahoba, oyat, hadis, jannat, namoz, ibodat, din kabi lug'aviy birliklar iqtibos san'atining shakllanishiga zamin yaratgan.

5. Talmeh san'atida tarixiy yoki afsonaviy shaxs, joy nomi yoki voqea-hodisalar ro'y bergan sana va boshqalarni eslatish yo'li bilan tilda ortiqcha izoh, bayondan halos bo'linadi. Eslatilgan antroponim, toponim va boshqa leksik-semantik birliklarning zamirida ko'zda tutilgan ma'no namoyon bo'lgan.

6. Tardi aks inversiya asosiga qurilgan san'at bo'lib, she'rda so'zlarning grammatik shakli almashtirilishi orqali antiteza usuli bilan hosil bo'lgan.

7. Zamonaviy o'zbek adabiyotida tardi aksning taraqqiyot topgan shakli ham uchraydi: so'zning aks takrori, fonetik aks takrorga o'tgan o'rinlar uchradi.

XULOSALAR

1. O'zbek adabiyotshunosligida sharqona she'riy san'atlarni o'rganish, mumtoz adabiyotimizni o'rganish, tahlil qilish asnosida tadqiq obyektining xarakteridan kelib chiqadigan majburiylik asosida yuz bergan jarayondir.

2. Sharqda she'rshunoslik adabiyotshunoslik va tilshunoslik nuqtai nazaridan ajratib yuborilgan emas. Shuning uchun she'riy san'atlar tahlilini ham umumfilologik tarzda olib borish maqsadga muvofiqdir. Bunday tahlilning namunasini Alisher Navoiy «Muhokamat ul-lug'atayn» asarida yaratib bergan. Demak, tahlil kompleks tarzda olib borilishi lozim.

3. Lisoniy tejamlilik va ortiqchalik tamoyili o'zbek adabiy tili materiallari asosida o'rganilgan bo'lib, badiiy matndagi ahamiyati keng tadqiq etilishi kerak bo'lgan masalalardan biri sifatida poetik matn misolida o'rganildi.

4. Fonetik ortiqchalik tovushning ortiqcha qo'llanishidan yuzaga kelib, poetik matnda nutq tovushlari talaffuzi bilan bog'liq ekspressivlikning aks etishi geminatalarda aniq ko'rinadi, natijada tovushning miqdoriy belgisi ekspressiv bo'yoq miqdorini belgilaydi.

5. So'zni tovush yuzaga keltirar ekan, so'zda tovushni orttirib qo'llash variantlilik bilan bog'liq holda undagi sifat belgisini ro'yobga chiqaradi.

6. Zamonaviy o'zbek she'riyatida qo'llangan *tashbeh*, *jonlantirish*, *iqtibos*, *talmeh* kabi badiiy vositalar shoirning tildagi lug'aviy birliklardan badiiy matn yarata olish mahoratini namoyon qilgan.

7. Talmeh san'atida tarixiy yoki afsonaviy shaxs, joy nomi yoki voqea-hodisalar ro'y bergan sana va boshqalarni eslatish yo'li bilan tilda ortiqcha izoh, bayondan halos bo'linadi. Eslatilgan antroponim, toponim va boshqa leksik-semantik birliklarning zamirida ko'zda tutilgan ma'no namoyon bo'lgan.

8. Tardi aks inversiya asosiga qurilgan san'at bo'lib, she'rda so'zlarning grammatik shakli almashtirilishi orqali antiteza usuli bilan hosil bo'lgan.

9. Zamonaviy o'zbek adabiyotida tardi aksning taraqqiyot topgan shakli ham uchraydi: so'zning aks takrori, fonetik aks takrorga o'tgan o'rinlar uchradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. RAHBARIY ADABIYOTLAR

1. Karimov. I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. -T.: O'zbekiston, 220 bet.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008. 168 bet.
3. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T.: Ma'naviyat, 2011. 180 bet.

II. ASOSIY ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonov G'. Adabiy asar tilini o'rganish haqida. O'zbek tilini o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan, 1973. – B. 70.
2. Abdurahmonov H. Mahmudov N. So'z estetikasi. – Toshkent: Fan, 1981. – B. 128.
3. Bafojev B. Navoiy asarlari leksikasi. – Toshkent: Fan, 1983. –B.125.
4. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – Toshkent: Fan, 1985. – B. 200.
5. Boboyev T. She'r ilmi ta'limi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – B. 344.
6. Doniyorov X., Yo'ldoshev B. Adabiy til va badiiy stil. –Toshkent: Fan, 1988. – B. 208.
7. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1980. – B. 250.
8. Ishoqov Y. Navoiy poetikasi. – Toshkent: Fan, 1983. – B. 168.
9. Yusubova R. Hozirgi o'zbek poeziyasida lisoniy tejamlilik va ortiqchalik (A.Oripov lirikasi misolida) : Filol.fanlari nomzodi ...diss.avto-ref. –T., 2011. 26 bet.
10. Yusubova R. Sinonimlarning leksik ortiqchalikka munosabati xususida // Professor-o'qituvchilar va talabalarning XXIV ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. III qism. -Navoiy, 2009. -B.46-48
11. Yo'ldoshev B. Badiiy nutq stilistikasi. – Samarqand: Universitet, 1982. – B. 82.

12. Yoʻldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2007. – B. 125.
13. Mallayev N. Oʻzbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1966. –B. 320.
14. Mahkamov N. Oʻzimiz va soʻzimiz. – Toshkent: Adabiyot va sanʼat, 1997. – B.112.
15. Mahkamov N. Terminologiyada “ekonomiya prinsipi” // Oʻzbek tili terminologiyasi va uning taraqqiyot perspektivalari: I Respublika terminologiya konferensiyasi materiallari. -T.,1986. (byulleten OʻzR FA). -B. 49-50.
16. Mahmudov N. Ellipsis v sovremennom uzbekskom yazike: Avtoref. diss. ...kand.filol.nauk .-T.,1978.
17. Mirtojiyev M. Oʻzbek tilida ellipsis natijasida sinekdoxaning sodir boʻlishi // Oʻzbek tilshunosligi masalalari. 475-chiqishi. -T., 1975. –B.59-67.
18. Misliddinova M. Talaffuzdagi tejamlilik // Oʻzbek tili va adabiyoti. -Toshkent, 2005. -№5. -B.80-83.
19. Navoiy asarlari uchun qisqacha lugʻat. –Toshkent: Fan, 1993. – B. 374.
20. Nurmanov A. Prinsipi ekonomii v foneticheskix izmeneniyax uzbekskogo yazika: Avtoref. diss. ...kand.filol.nauk. -T.,1973.
21. Pirimqulov A. Mohiyat va mahorat. – Toshkent: Fan, 2001. – B. 64.
22. Rafiddinov S. Maʼjoz va haqiqat. – Toshkent: Fan, 1995. – B. 120.
23. Rahmonov V. Sheʼr sanʼatlari. – Leninobod, 1972. – B. 180.
24. Samadov Q. Oybekning til mahorati. – Toshkent: TDPI, 1981. –B. 104.
25. Tojiyev Y. Oʻzbek tilida affiksial sinonimiya. –T.: Universitet. 1991. 80 bet.
26. Tursunov Oʻ., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – . Sarimsoqov B. Oʻzbek adabiyotida sajʼ. – Toshkent: Fan, 1978. – B. 152.
27. Turobova M. Sintaktik tejamlilik hodisasi // Oʻzbek tili va adabiyoti. - Toshkent, 2006. -№ 5. -B. 79-83.
28. Umrqulov B. Poetik nutq leksikasi. – Toshkent: Fan, 1990. –B.110.
29. Qudratov T., Nafasov T. Lingvistik tahlil. Oliy oʻquv yurtlari uchun qoʻllanma. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1981. – B. 184.
30. Qilichev E. Badiiy tasvirning leksik vositalari. – Toshkent: Fan, 1982. –B. 87.

31. Qo'ng'urov R. O'zbek tilining tasviriy vositalari. – Toshkent: Fan, 1977. – B. 152.
32. Qo'chqortoyev I. Badiiy so'z san'ati. – Toshkent: Fan, 1967. – B. 120.
33. O'rinboyev B., Qo'ng'urov R., Lapasov N. Badiiy tekstning lingvistik tahlili. – Toshkent: O'qituvchi, 1990. – B. 216.
34. Sheronov B. O'zbek tili gap qurilishida lisoniy ortiqchalik: Filol.fanlari nomzodi ...diss.avto-ref. –T., 1996. -B.9.
35. Shukurov I. Ellipsis sababli otlarda nutqiy metonimiyalar sodir bo'lishi // O'zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 1982. -№3. –B.44-46.
36. Hamidov Z. Navoiy badiiy san'atlari. – Toshkent: Universitet, 2002. – B. 56.
37. Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. - T.: O'qituvchi, 1974. -308.
38. Hojiyev A. O'zbek tilshunosligi atamalarining izohli lug'ati. - T.: O'qituvchi, 2001 - 120 b.
39. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. –T.: O'zME, 2002. - B.101.
40. Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. – Toshkent: Sharq, 1998. – B. 160.

III. ELEKTRON RESURS MANBALARI

1. <http://www.gldv.org/cms/gldv.php>
2. <http://lexikon.anaman.de/lexikon.htm>
3. www.ziyonet.uz
4. www.ziyouz.com
5. www.kutubxona.com
6. www.turklib.uz
7. www.literature.uz